


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

H.Muhammadiyeva

**TILSHUNOSLIKKA
KIRISH**

MA'RUZALAR MATNI



Tuzuvchi

H.Muhammadiyeva

Taqrizchilar:

f.f.n dots.,Z.Sodiqov

p.f.n S.Misirov

Ma`ruzalar matni Ingliz tili va Leksika-stilistika kafedrasining 2011 yil 26.08.11 №1 bayonnomasi yig`ilishida muhokama qilinib tasdiqlandi va ko`paytirishga tavsiya etildi.

Mazkur ma`ruzalar matni filolog ixtisosini egallamoqchi bo`lgan talabalar uchun asosiy predmet hisoblanadi. Birinchi bosqich talabalari tilshunoslik nazariyasiga kirish kursini o`rganadilar.

Mazkur ma`ruzalar matni talabalarga “Tilshunoslikka kirish” kursining nazariy masalalarini o`rganish, o`zlashtirish va takrorlash borasida yordam beradi. Shuningdek, sinovlar, seminar va amaliy mashg`ulotlarda, mustaqil ishlarni bajarishda qo`l keladi deb umid qilamiz.

Mazkur ma`ruzalar matni oliy o`quv yurtlarining filologiya, xorijiy tillar fakultetlari talabalari, o`rta maktab, litsey va kollej o`qituvchilari, o`quvchilari hamda tilshunoslik muammolari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo`ljallangan.

Namangan 2011

M U Q A D D I M A

Qo'llanma "Tilshunoslikka kirish" kursining asosiy masalalarini qamragan xolda 16 ta mavzuga bo'lingan va har mavzuga bir ma'ruza bagishlangan.

Ma'ruzalar quyidagicha:

- Mavzuga oid asosiy masalalar (reja o'rvida);
- Mavzudagi lingvistik atamalar izohi;
- Mavzuga oid masalalar bayoni;
- Mashq va nazorat uchun savol va topshiriqlar;
- Adabiyot.

O'quvchi ma'ruza matnida ganday masalalar ko'rib chiqilganligini bilish uchun rejaga murojaat qilishi mumkin.

Ma'ruzalarda qo'llangan atamalarning muqobillari ingliz, nemis, rus tillarida berilgan va ular o'zbek tilida izohlangan.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar bayoni qismida mavzu sodda, tushunarli, lo'nda, qisqa, turli chizmalar yordamida tezis shaklida bayon ilingan.

Ma'ruza mavzusiga oid savol va topshiriqlar o'quvchini amaliy ishga yo'llash, bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga qaratilgan.

Qo'llanmada "Tilshunoslikka kirish" kursi bo'yicha referat mavzularining tahminiy ro'yxati va referat yozish haqida uslubiy ko'rsatma ilova qilingan.

Tilshunoslikka oid savollar va ularning qisqacha javoblari talabaga o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Qo'llanma talabalarga tilshunoslikka kirish kursining nazariy masalalarini o'rganish, o'zlashtirish uchun yordam beradi.

Shu bilan birga sinov va imtixonlar, seminar va amaliy mashgulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga tayyorgarlik ko'rishda qo'l keladi deb umid qilamiz.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining filologiya, xorijiy tillar fakultetlari talabalari, o'rta maktab o'quvchilari hamda tilshunoslik muammolari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

Muallif ushbu qo'llanmaning bunyodga kelishida moddiy, ma'naviy va amaliy yordamini ayamagan Z.Sodiqov, S.Raximov, T.No'monov, Sh. Qayumov, A. A'zamov va R.Saydalievga o'z minnatdorligini bildiradi. Shu bilan birga uning mazmunini yaxshilashga yordam beradigan har qanday fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

TILSHUNOSLIK FANI VA UNING PREDMETI MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR

- Tilshunoslik fanining jahon fanlari tizimidagi o'рни
- Tilshunoslikning asosiy masalalari
- Tilshunoslikka kirish fanining vazifalari
- Tilshunoslik aspektlari
- Til funksiyalari

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

TILSHUNOSLIK lingvistika, *ing.* linguistics , *nem.* Sprachwissenschaft, Linguistik, Sprachkunde, *rus.* yazikoznaniye, yazikovedeniye, *turkcha* dil bilimi, inson tilini o'rganadigan fan.

FALSAFA *ing.* Phylosophy. *nem.* Philosophie , *rus.* filosofiya, Ta-biat, jamiyat va taffakur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

PSIXOLOGIYA *ing.* psychology, *nem.* Psychologie, ruxshunoslik. Inson ruxiyati qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi fan.

TARIX *ing.* history, *nem.* Historie, Geschichte, *rus.* istoriya. Jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan.

ADABIYOTSHUNOSLIK *ing.* literarycriticism, *nem.* Literaturwissen-schaft, *rus.* Literaturavedeniye. Adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy tanqid haqidagi fanlar majmui.

FILOLOGIYA *ing.* philology, *nem.* Philologie, *rus.* filologiya. Xalqning til, adabiyot va madaniyatini organadigan fanning umumiy no-mi.

PEDAGOGIKA *ing.* Pedagogic, *nem.* Pädagogik. Ta'lim va tarbiya haqidagi fan.

TIL *ing.* Language, *nem.* Sprache, *rus.* yazik . Kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi.

TILSHUNOS (lingvist) *ing.* linguist, *nem.* Linguist, *rus.* yazikoved. Tillarni umumiy jihatdan o'rganadigan hodim.

LILGVISTIK BILIM *ing.* linguistic science, *nem.* linguistisches Wissen, *rus.* lingvisticheskoye znaniye. Tillarga va tilshunoslikka oid bo'lgan bilim.

LINGVISTIK ATAMA (termin) *ing.* linguistic termin. *nem.* linguistisches Fachwort, *rus.* lingvisticheskiy termin. Tillarga va tilshunoslikka oid bo'lgan terminlarni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi.

TILSHUNOSLIK ASPEKTLARI tilshunoslik sohalari, *mas:* Umumiy, hususiy, nazariy, amaliy tilshunoslik.

UMUMIY TILSHUNOSLIK *ing.* general linguistics, *nem.* allgemeine Sprachwissenschaft, *rus.* obsheye yazikoznaniye. Barcha tillarga hos bo'lgan qonuniyatlarni o'rganadigan fan.

HUSUSIY TILSHUNOSLIK *rus.* chastnoye yazikoznaniye. Konkret til haqidagi fan.

TILNI NAZARIY (ILMIY) O'RGANISH tilni nazariy jihatdan tadqiq qilish.

TILNI AMALIY O'RGANISH ushbu til yordamida og'zaki yoki yozma ravishda muomala qila olish, yani o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qila olish va o'zgaralar fikrini tinglab yoki o'qib tushuna olish.

TILNING FUNKSIYALARI *ing.* functions of language, *nem.* Sprachfunktionen, *rus.* funktsiya yazika. *mas.* Aloqa, muomala qilish vositasi.

EKSPRESSIV FUNKSIYA *ing.* emotive function, *nem.* emotive Funktion, *rus.* emotsionalnaya funktsiya. His-hayajon, istak, ruxiy kechinmalarni isxor etish vositasi.

AKKUMULYATIV FUNKSIYA *ing.* accumulative function, *nem.* akkumulative Funktion, *rus.*akkumulativnaya funktsiya. Tilda to'plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga etkazish vositasi.

ALOQA VOSITALARI kishilar o'rtasida muomala jarayonida foydalanadigan ishora va belgilar. Ular ovozi yoki grafik bo'lishi mumkin.

OVOZLI VOSITALAR ovoz yordamida belgi yoki ishora berish, *mas:* qo'ng'iroq, gudok, sirena, signal va boshqalar.

GRAFIK VOSITALAR ko'rish sezgisi orqali belgi beradigan vositalar, ularga: yozuv, qo'l alifbosi, ko'zi oqizlar alifbosi, morze alifbosi, yo'l

belgilari, bayroq, raketalar, ilmiy simbolika (matematik, ximik, biologik va boshqa belgilar).

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Kishilik jamiyatidagi fanlar quyidagicha klassifikasiya qilinadi (B.M.Kedrov).

I. Falsafa fanlari.

II. Matematika fanlari.

III. Tabiiy va texnik fanlar (astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, fiziologiya, antropologiya, tog` ishi, qishloq xo`jaligi fanlari, meditsina fanlari).

IV. Ijtimoiy (sotsial) fanlar (tarix, arxeologiya, etnografiya, geografiya, siyosiy iqtisod, huquqshunoslik, san`atshunoslik, psixologiya, pedagogika, tilshunoslik).


Tilshunoslik fanining asosiy masalalari quyidagilar:

- Tilning tabiati va mohiyatini belgilash;
- Tilning paydo bo`lishi va rivojlanishi;
- Jahon tillari va ularni klassifikatsiyalash;
- Tilning tuzilishi, qurilishi;
- Fonetika masalalari;
- Grammatika masalalari;
- Leksikologiya masalalari;
- Yozuv va yozuvning paydo bo`lishi;

Tilshunoslikka kirish predmetining vazifasi:

- Talabalarni til haqidagi fanining asoslari bilan tanishtirish;
- Talabalarga lingvistik atamalar haqida tushuncha berish;
- Talabalarning lingvistik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;
- Talabalarni taniqli tilshunoslardan bilan tanishtirish

Tilshunoslikning quyidagi sohalari mavjud:



Til quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- **KOMMUNIKATIV** funksiya. Aloqa, muomala qilish uchun xizmat qilish tilning eng muhim funksiyalaridan biridir. Kishilar til orqali o'z fikrlarini, istaklarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlarini tushunadilar. Bu tilning kommunikativ, ijtimoiy funksiyasidir.
- **EKSPRESSIV** funksiya. Kishilar bir-birlariga til yordamida ta'sir qiladilar. Modal so'zlar, intonatsiya, ritorik so'roq kabi vositalar ekspressivlikni kuchaytiradi.
- **AKKUMULATIV** funksiya. Til millatlararo aloqa vositasi, aloqa quroli, tilda to'plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga etkazish vositasidir. Bu tilning gneseologik funksiyasi.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A D A B I Y O T

1. Mirabbos Tursunovich Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. T.1992.
2. Otaqo'zi Azizov. Tilshunoslikka kirish. T. 1996. 3-6 sahifalar.

3. Olga Sergeyevna Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. M.1966.
4. Aleksandr Aleksandrovich Reformatskiy. Vvedeniye v yazikoznaniye. M. "Prosvesheniye". 1967. 5–53 sahifalar.
5. Boris Nikolaevich Golovin. Vvedeniye v yazikoznaniye.M.“visshaya shkola” 1977. 3–29 sahifalar.
6. Grigoriy Andreevich Nechayev. Kratkiy lingvisticheskiy slovar. Izdatelstvo Rostovskogo universiteta. 1976.
7. Shavkat Karimov. Tilshunoslikka kirish kursidan praktikum. T. "O'qituvchi". 1987.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati (ikki tomli). Moskva, "Russkiy yazik". 1981.

TIL, NUTQ VA NUTQ FAOLIYATI

MA'RUZAGA OID ASOSIY MASALALAR

- Til va uning mohiyati.
- Nutq va uning mohiyati.
- Nutq faoliyati va uning mohiyati.
- Til va nutq opozitsiyalari.
- Nutqning belgilari.
- Nutqning funksiyalari.
- Nutqning psixologik mexanizmlari.
- Nutq faoliyat sifatida.
- Nutqning yaratilish modellari.
- Nutqni idrok qilish.
- Nutq faoliyatining turlari.

MAVZUGA OID LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

TIL *ing.* language, *nem.* Sprache, *rus.* yazik. Ishoralar tizimi. Aloqa vositasi. Fikrlash quroli. Fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi.

NUTQ *ing.* speech, discourse, *nem.* Rede, Sprechen, Sprachgebrauch, *fran.* parole, discours, *rus.* rech. Tildan muomalaning turli holdalarida foydalanish. Fikrni shakllantirish va ifodalash usuli.

NUTQ FAOLIYATI *ing.* speech, *nem.* Sprechfähigkeit, *fran.* langage. Til tizimidan foydalangan holda muomala vaziyatini hisobga olib, axborot berish va olishga, taʼsir otkazishga qaratilgan faoliyat.

MUOMALA *ing.* communication, contacts, intercourse, *nem.* Kontakt, Kommunikation, *rus.* obsheniye. Kishilarning bir-birini tushunishi. Kishilar bilan munosabat, sözlashuv. Kishilar ortasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bogʻlanishlarning köp qirrali jarayoni.

EKSPRESSIVLIK til funksiyalaridan biri. His-hayajon, istak, hoshish kabi kechinmalarni izhor qilish vositasi.

HABAR (belgi) berish, *rus.* signalizatsiya. Söz yordamida predmet, xarakter, holat, voqelik, tushuncha haqida belgi, ishora, habar berish, bildirish, voqib qilish.

UMUMLASHTIRISH *rus.* obobsheniye. Alohida, juzʼiy til hodisalarini kuzatish, organish natijasida hosil boladigan umumiy yakunlovchi fikrga kelish, hulosalash, yakunlash.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALAR BOYONI

Til nima? Nutq nima? degan savollarga javob berish juda jön, osondek tuyuladi. Til – aloqa vositasi. Til – muomala quroli. Til – fikrni ifodalash vositasi. Til – ishoralar tizimi, yigʻindisi, majmuyi va boshqalar.

Nutq–tildan amalda foydalanish. Nutq – tilning reallashuvi. Nutq – fikrni shakllantirish va ifodalash usuli va ho kazo.

Agar masalaga chuqurroq kirib borilsa ushbu hodisalarning mohiyatini tushunish va ularning munosabatlarini aniqlash, belgilash, izohlash, tavsiflash, tasavvur qilingandek, sodda, jön, oson emasligi ayon boladi.

Til va nutq tushunchalarini fiziologiya, psixologiya, pedagogika va tibbiyotda almashtirib qöyish mumkin emas. Fiziolog va psixolog doimo nutq bilan mashgʻul, pedagogikada esa bola nutqini shakllantirish, rivojlantirish va boyitish haqida gapiriladi. Tibbiyotda esa nutq kasalliklari

va kamchiliklari haqida s'öz yuritish mumkin. Yuqoridagi barcha hollarda s'öz NUTQ haqida, TIL haqida emas!, boradi. Biroq tilshunoslikda til va nutq chegaralarini belgilash va ularning özaro munosabatlarini aniqlash ancha mushkil va murakkabdir.

Ovrupo tilshunosligida bu masalaga birinchi bölib Wilhelm von Humboldt qalam urdi. Uning fikricha til tugallangan ish (ergon) bölmay balki doimiy faoliyat (energiya) dir. Individ tili va xalq tili bir-biri bilan bog'liq. W.Humboldt g'oyalarini Ferdinand de Sossyur rivojlantirdi. F. de Sossyur uch tushunchani: nutq faoliyati (langage), til (langue) va nutq (parole) tushunchalarini farqlash lozimligini uqdiradi. Yuqoridagi masala L.V.Shcherba asarlarida yaqqol dalillar bilan ilmiy jihatdan asoslandi va uning amaldagi axamiyati körsatib berildi. L.V.Shcherba til xodisalarining uch aspekti mavjudligini ta'kidlab, ularni quyidagicha izohladi:

B i r i n c h i aspekt - gapirish va tushunish jarayoni, yani nutq faoliyati;

I k k i n c h i aspekt - til tizimi, sistemasi, yani til (lug'at va grammatika);

U c h i n c h i aspekt - til materiali, yani konkret holatda barcha gapirilgan va tushunilganlarning majmui, jami, yig'indisi - tekstlar. (Л.В.Щерба. О тройком аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. В кн.: Языковая система и речевая деятельность Л. Наука 1974 с.26).

L.V.Shcherba til materiali va til tizimini nutq faoliyatining turli so-halaridir deb hisoblaydi.

Yuqoridagi fikrlardan quvvatlangan holda taniqli psixolog I.A.Zimnyaya "Til fikrni shakllantirish va ifodalash quroli", nutq esa "fikrni shakllantirish va ifodalash usuli" deb hisoblaydi.

Til material birliklar tizimi, sistemasidir. Til birliklari (tovush, s'öz, s'öz birikmalari, jumlarlar) jamoa ongida shakllanadi. Fikr, hissiyot, kayfiyat bunday emas.

Kishilar til birliklari vositasida ma'lum fikr, hissiyot, kayfiyatlarini konkret sharoitga, holatga, muhitga, situatsiyaga mos ravishda ifodalaydilar. Natijada, til xarakatga keladi, amalda köllaniladi, reallashadi, yani nutq hosil bölad.

Agar til muomalaning tarixan shakllangan ishoralar mexanizmi bölsa, nutq kishining fikr, hissiyot, kayfiyat, holat, istak hoxishi va

boshqalarni ifodalovchi konkret qoidalar asosida tuzilgan, tizimlangan, joylashtirilgan til ishoralidir.

Tilda hamma narsa qolipga, qoidaga, normaga solingan. Til jamoa mulki, umuminsoniy hodisa. Individ tili mavjud emas. Individlarning nutqidan tilga ma'lum hodisalar o'tib boradi. Til ayrim shaxslarning hohish - irodasiga bog'liq bo'lmagan holda muomala jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradi.

Eng qiyini nutq tushunchasini aniqlash, izohlash, tavsiflashdir. Nutq bu til ham, nutq faoliyati ham emas. Odatda og'zaki nutq, yozma nutq, bola nutqi, o'quvchi nutqi, yoshlar nutqi, sahna nutqi, monolog nutq, dialog nutq va boshqalar haqida gapiriladi. Bularning barchasi tildan muomalaning turli holatlarida, sharoitlarida, muhitlarida amaliy foydalanish imkoniyatlari hisoblanadi. Yuqoridagi tushunchalar tilshunoslikning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Tilning psixo-fiziologik mexanizmlari esa fiziologiyaning, psixologiyaning, akustikaning tadqiqot ob'ekti hisoblanib, tilshunos ularning tadqiqot natijalaridan amalda foydalanadi. Tilshunos nutq faoliyatining bir bo'lagini "kesib olib" uni tadqiq qiladi. Natijada, tilshunos hosila "TIL" deb nomlanuvchi tadqiqot ob'ektiga ega bo'ladi.

Til haqida tog'ri - notog'ri, aniq - noaniq, sodda - murakkab, boy- qabbag'al, oson - qiyin degan tushunchalarni aytish joiz emas. Usbu nisbatlar, belgilar, ta'riflar, hususiyatlar nutqqa ta'luqli. Nutqda normadan chiqib ketish, qoidani buzush hollari uchrab turadi. Til va nutq hodisalarini yaqqolroq tasavvur qilish uchun ularni shaxmat o'yiniga qiyoslash mumkin. Har bir shaxmat donasining konkret vazifasi va harakat qoidalari mavjud. Oyin jarayonida ushbu vazifalar va qoidalar reallashadi, yuzaga chiqadi, namoyon bo'ladi, amal qiladi. Agar biror donaning shaxmat taxtasi katagida o'zni o'zgarsa, qoshnisi o'zgarsa, uning vazifasi ham, ta'siri ham o'zgaradi. Til va nutq birliklarini ham shunday tasavvur qilish mumkin.

Til normalariga, qoidalariga, qonuniyatlariga nutq jarayonida amal qilish yoki qilmaslik hodisasi, nutq madaniyati degan tushunchani kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Nutq faoliyati, eng avvalo, jarayon hisoblanadi. Uni fiziolog, fizik, psixolog, lingvist tadqiq qiladi. Nutq faoliyati faqat og'zaki: gapirish va eshitishdan iborat bo'lmay, balki yozma: o'qish va yozishda ham iborat. U

individual hodisa b'olib, uni orfografik, fonetik shaklda yoki og'zaki muomala jarayonini magnit tasmaiga yozib olish va turli nuqtai nazardan va turli tadqiqot uslublaridan foydalangan holda o'rganish, tahlil qilish, tavsif qilish va ta'riflash mumkin.

Til va nutq hodisalarini bir-biridan ajratish, ularni bir-biriga qarama-qarshi qoyish mumkin emas. Biroq ularning birligini, ammo ayni hodisa ham emasligini unutmaslik kerak, ularni go'yo daftar varag'ining ikki sahifasi sifatida tasavvur qilish mumkin.

G.V.Kolshanskiy fikriga kora til va nutq hodisalarini tadqiq qilish maqsadida shartli ravishda bir-biridan ajratish mumkin. Til va nutq hodisallari V.A.Zveginsevning "Predlojeniye i ego otnosheniye k yaziku i rechi" M. 1976. s.10. nomli kitobida quyidagicha qiyoslanadi:

T I L	N
U T Q	
1. Umumiy	Xususiy
2. Mavhum	Konktet
3. Borliq	Hodisa
4. Shaki	Substansiya
5. Psixik (ruxiy)	Fizik (jismoniy)
6. Potensiya	Amalga oshirish akti
7. Konstrukt	Kuzatiluvchi ob'ekt
8. Tizim, sistema	Matn, tekst
9. Invariant	Variant
10. O'zgarmas, doimiy	O'zgaruvchan
11. Butunlik	Qism
12. Ijtimoiy	Individual
13. Tizim	Amalda ko'llanishi
14. Kod	Axborot
15. Tuganlangan	Tuganlanmagan

Nutq kishilarning til vositasida bir-birlari bilan muomala qilish jarayonidir. Nutq quyidagi xususiyatlari bilan baholanadi:

1. Mazmundorlik (bu gapiruvchi, so'zlovchining bilimdonligi, tajribaliligi va tayyorgarligiga bog'liq).

2. Tushunarlilik (tinglovchining bilim, tajriba darajasiga hamda gapiruvchining tinglovchiga mos materialni tanlash qobiliyatiga bog'liq).

3. Ifodalilik (his-hayajon bilan ifodalash, intonatsiya, urg'u, pauza, temp va boshqa ekstra-lingvistik xususiyatlarga bog'liq).

NUTQ FUNKSIYALARI:

1. MUOMALA jarayonida:

a) Muomala: kishilar nutq orqali fikr almashadilar, muloqatda bo'ladilar, bir-birlariga ta'sir qiladilar... .

b) Ekspressivlik: nutq mazmuniga hissiy munosabat bildiradilar, hursandlik-hafalik, quvnoqlik-bosiqlik, achchiq yoki hush muomala, samimiylik g'arazgo'ylik... izhor qiladilar.

c). Xabar, belgi berish: nutqda predmet, xarakat, holat, voqelik, haqida signal: belgi, ishora, xabar beriladi.

2. **FIKRLASH** jarayonida: a). Umumlashtirish. Har bir so'z tushuncha yoki fikrni ifodalash uchun hizmat qiladi, fikrni reallashtiradi va umumlashtiradi.

Nutq shakllanishi, ro'yobga chiqishi va reallashishi uchun ma'lum psixologik, ruxiy mexanizmlar faolligi zarur. N.I.Jinkin bu mexanizmlarni quyidagilar deb hisoblaydi:

1. Fikrni programmalash mexanizmi.

2. Programmalashdan grammatik struktura (jumla) ga o'tish bilan bog'liq bo'lgan mexanizmlar guruhi:

- Sintaktik konstruksiyalarni grammatik nuqtai nazardan prognoz qilish mexanizmlari.

- So'zning grammatik xususiyatlarini eslab qolish, esda saqlash va esga tushurish (ro'yobga chiqarish, reallashtirish) mexanizmlari.

- Bir turdagi konstruksiyadan boshqa turdagi konstruksiyaga o'tish (trans-formatsiya) mexanizmi.

- Programma elementlarini grammatik konstruksiyaga tarqatish mexanizmi.

3. Ma'no va tovush xususiyatlariga ko'ra kerakli so'zni izlashni taminlovchi va sintagmani motor jihatidan programmalash mexanizmlari.

4. Nutq tovushlarini tanlash va motor programmadan uni tovush bilan "to'ldirish" mexanizmlari.

5. Nutqni tovush bilan ifodalash mexanizmlari.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar ruhiy jarayon haqida borganligi uchun ham, bu jarayonni faqat nasavvur qilish, faraz qilish mumkin. Uni anglash, ilg'ash, fahmiga etish ancha murakkab hisoblanadi.

Nutq jarayon bo'lishi bilan bir qatorda faoliyat hamdir. Nutq faoliyati bosh miya yarim sharining faoliyati bilan uzviy bog'liq. Uning asosini bosh miyaning chap yarim shari tashkil qiladi. Bosh miyaning o'ng yarim shari ovozni o'zgartirish (yo'g'on, ingichka, yoqimli, shirali...) uchun xizmat qiladi.

Har qanday faoliyat kabi nutq faoliyati ham biror niyat bilan bog'liq. Biroq niyat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Niyatni vujudga keltiruvchi motiv (ta'sir, sabab, undovchi, stimulator) zarur. Niyat harakat orqali amalga oshadi. Har bir harakatdan ma'lum maqsad ko'zlanadi. Bir yoki bir-necha maqsadning amalga oshirilishi niyatning ro'yobga chiqishiga olib keladi. Niyatning ro'yobga chiqishi birin ketin, ma'lum tartibda joylashgan bosqichlardagi faoliyatlar yig'indisi bilan bog'liq. Demak: motiv----- NIYAT-----HARAKAT-----MAQSAD-----FAOLIYAT.

Aytganimizdek, nutq shakllanishi uchun biror niyat bo'lishi kerak. Niyatning paydo bo'lishi hali nutq emas. Niyatni amalga oshirish maqsadida uning mazmuni shakllantiriladi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat:

B i r i n c h i bosqichda matnning temasi, mavzusi va ushbu mavzu bo'yicha nima deyish, yani rema aniqlanadi.

I k k i n c h i bosqichda nutq shakllanadi. Agar birinchi bosqichda bir butun niyatni so'zlovchining shaxsiy hayot tajribasi asosida shakllangan nutq mazmuni hamda uning tema va remasi aniqlangan bo'lsa, ikkinchi bosqichda anashu mazmuni jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lgan, ular tushuna oladigan qismlarga ajratib, har-bir tarkibiy qismning o'z temasi va remasi, sub'ekt va ob'ektlari aniqlanadi. So'zlovchi tomonidan yaratil-

gan matn talaffuz qilingan tovushlar (havo to'liqlari) orqali tinglovchi qulog'iga etib boradi. Nutq shakllanishining mazmun (mantiqiy-hissiy tushuncha) bosqichi o'z o'rnini ma'no (ijtimoiy umumlashgan tushuncha) bosqichiga bo'shatib beradi.

B i r i n c h i bosqichni mazmun bosqichi yoki ichki (chuqur) semantik bosqich, i k k i n c h i bosqichni esa ma'mo bosqichi, yoki tashqi semantik bosqich deb yuritiladi. Endi niyatni amalga oshirishning uchunchi bosqichi boshlanadi. U c h u n c h i bosqich ichki (chuqur) sintaktik bosqich deb nom olgan. Mazkur bosqichda sub'yekt, ob'yekt va predikatlarni ifodalaydigan so'zlar, hamda ushbu modelning sintaktik qurilmasi tanlanadi. Bu bosqichdagi jarayon ichki nutqqa to'ri keladi. T o' r t i n c h i bosqich tashqi sintaksisdir. Bu bosqichda so'zlovchi tomonidan sintaktik qurilmaning uzil-kesil shakli aniqlanadi. Sintaktik qurilmaning shakli hal qilingandan so'ng beshinchi bosqich boshlanadi. B e s h i n c h i bosqich ichki (chuqur) morfologik bosqich deb yuritiladi. Bu bosqichda tanlangan sintaktik qurilmaga mos keluvchi so'zlarning umumiy morfologik shakli aniqlanadi. Shundan so'ng tashqi morfologik - o l t i n c h i bosqich boshlanadi. Bu bosqichda mazmuni dastlabki ifoda qiluvchi so'zlarning morfologik shakli uzil-kesil aniqlanadi.

Nihoyat, e t t i n c h i - fonetik bosqich boshlanadi. Bu bosqichda mazmuni ifoda qila oladigan fonemalar ajratiladi. Fonemalarning o'zi nutqda ishtirok etmaydi. Ular nutq tovushlarining umumlashgan ko'rinishi bo'lib, nutq jarayonida ularning o'rnini konkret nutq tovushlari egallaydi. Shu yo'l bilan ko'zda tutilgan mazmun tinglovchi e'tiboriga havola qilinadi. Yuqoridagi bosqichlarning barchasi simultan, bir daqiqada sodir bo'ladi.

Nutqning yaratilishini taxminan quyidagich tasavvur qilish mumkin: Niyat (motiv) -- ichki semantik bosqich -- tashqi semantik bosqich, ichki sintaktik bosqich -- tashqi sintaktik bosqich -- ichki morfologik bosqich -- ichki tovushlar bosqichi --- fonologik bosqich va nihoyat fonetik bosqich.

So'zlovchi tomonidan yaratilgan matn talaffuz yordamida havo to'liqlari orqali tinglovchining qulog'iga etib keladi. Tilglovchi ushbu to'liqlarni nutq tovushlari sifatida idrok qiladi. Idrok jarayoni ham mu-

rakkab bo'lib turli bosqichlardan iborat. Nutqni idrok qilish jarayoni haqida bir qator fikrlar mavjud. Keng tarqalgan fikrlar sifatida quyi dagilarni keltirish mumkin. Ulardan b i r i n ch i s i n i quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Matn onologik–fonetik bosqich morfologik bosqich sintaktik bosqich semantik bosqich mazmun. Bu haqiqatdan uzoq bo'lgan umumiy farazdir. Chunki bu yo'l bilan matnни idrok qilish ancha vaqt talab qiladi. Muloqat jarayonida esa idrok qilingan axborotga javob shu daqiqaning o'zida beriladi.

Nutqni idrok qilish borasidagi i k k i n ch i fikr sintez orqali tahlilga o'tish deb nomlanadi. Bu fikrga ko'ra, so'zlovchi talaffuz qilgan tovushlar birikmasi tinglovchining eshitish a'zolari tomonidan qabul qilingach, butunligicha idrok qilish jarayonining semantik bosqichiga tushadi. Inson qabul qilayotgan matn birliklarini alohida idrok etmay, undagi asosiy g'oyalarni ajratib olib, bir–biriga bog'laydi va yagona mazmun yaratadi. Tinglovchini birinchi navbatda nutqning mazmuni qiziqtiradi.

Nutq faoliyatining quyidagi turlari mavjud:

1. Ichki nutq – tashqi nutq.
2. Retseptiv nutq– reproduktiv nutq.
- 3.Og'zaki nutq: tinglabtushunish, auroirovaniye – gapirish, so'zlash.
4. Yozma nutq: o'qish– yozish.
5. Dialog nutq (juft nutq, gaplashish, so'zlashish).
6. Monolog nutq (yakka nutq, gapirish, so'zlash).

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Til tushunchasini ta'riflang.
- Nutq deganda nimani tushunasiz?
- Nutq faoliyatining mohiyatini tushuntiring.
- Nima uchun til, nutq va nutq faoliyati tushunchalari turlicha ta'riflanadi?
- Til, nutq va nutq faoliyatining o'zaro munosabatini izohlang.
- Til va nutq oppozitsiyalari deganda nimani tushunasiz?

- Nutq qanday belgilarga ega?
- Nutq qanday funksiyalarni bajaradi?
- Nutqning qanday mexanizmlari mavjud?
- Nutqni faoliyat sifatida izohlang.
- Nutqning sodir bo'lishi uchun nimalar zarur?
- Nutq qanday chizma asosida yaratiladi?
- Nutq idrokini qanday formula yordamida tasavvur qilish mumkin?
- Nutqning qanday turlari mavjud?

A D A B I Y O T

- M.T.Irisqulov T.1992.
- Ferdinand de Sossyur Kurs obshey lingvistiki. v kn. Trudi po yazikoznaniyu M.1977. 31-270 sahifalar.
- Lev Vladimirovich Shcherba Yazikovaya sistema i rachevaya deyatel'nost. L. Nauka 1974.
- Nikolay Ivanovich Jinkin Mexanizmi rechi M.1958.
- Irina Alekseevna Zimnyaya Psixologiya obucheniya inostrannim yazikam v shkole M.1991.
- Aleksey Alekseevich Leont'yev Yazik, rech n rechevaya deyatel'nost M. 1969.
- Genadiy Vladimirovich Kolshanskiy Sootnosheniye sub'yektivnix i ob'yektivnix faktorov v yazike. M. Hauka 1965.

TIL VA TAFAKKUR

MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR:

Til haqida tushuncha:

- tilning mohiyati; - til ijtimoiy hodisa; - til material hodisa;
- tilning tuzilishi; - til birliklari; - til funksiyalari;
- til haqidagi ta'riflar; - tilning paydo bo'lishi.

Tafakkur haqida tushuncha:

- tafakkur ideal hodisa;- tafakkur fikrlash jarayonidir;
- tafakkur bilish jarayonidir;
 - a). hissiy bilish (kōrish, eshitish, tam bilish, rang bilish, teri sezgilari);
 - b). mantiqiy bilish;
 - tafakkur mantiq kategoriyalariga amal qiladi.

Til va tafakkur munosabatlari:

- til va tafakkur bir xil hodisa;
- til va tafakkur alohida hodisalar.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir. Til fikrni moddiylashtiradigan, reallashtiradigan, kishilarning fikr almashishini ta'minlab beradigan quroldir. Tilsiz insoniyat bōlmaydi. Til kishilarning bir-birlarini tushunishlariga, yashash uchun vositalar topib birlashishlariga, ishlab chiqarishni tashkil qilishlariga yordam beradi.

Til jamiyat tomonidan yaratilgan bōlib, uning taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. Til faqat kishilarga hos bōlib ular uchun xizmat qiladi.

Insonni hayvondan farqlab turuvchi narsa bu tildir. Shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy bunday deganlar:

“Insonni sōz ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yōq ondin”.

Tilda kishilar, jamiyat taraqqiyotiga xos bōlgan barcha ōzgarishlar aks etadi. Har bir millatning dunyoda borligini kōrsatadigan asosiy belgisi ham tildir. Agar millat ōz milliy tilini yōqotsa, uning ruxi ham yōqoladi. Shuning uchun ham Abdulla Oripov shunday yozgan:

“Ona tilim sen borsan shaksiz,
Bulbul kuyin sherga solaman.
Sen yōqolgan kuning shubhasiz,
Men ham tōti bōlib qolaman”.

Til material hodisadir. U konkret tovush, sōz, qoidalardan tashkil topgan. Shuning uchun ham til fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlar asosida tashkil topgan material hodisadir.

Har bir til tuzilishiga kōra tovushlar tizimi, sōz boyligi, grammatik va stilistik hodisa hamda qoidalar majmuidan iboratdir. Murakkab hodisa bōlgan til tuzilishiga kōra fonetik, leksik, grammatik qatlamlarga bōlinadi. Har bir qatlam ōzining tadqiqot birligiga ega.

Fonetika bōlimi tovush-fonema, leksika bōlimi sōz, morfologiya bōlimi morfema, sintaksis bōlimi gap bilan shugʻullanadi.

Til jamiyatda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kommunikativ funksiya; (muomala, aloqa qilish),
2. Ekspressiv funksiya; (taʼsir qilish),
3. Akkumulyativ funksiya. (axborotni tōplash, yigʻish, jamlash).

Til jamiyat uchun xizmat qilganligi, tuzilishi jihatdan murakkab hodisa bōlganligi uchun ham turli fanlarning tadqiqot obʼyektini hisoblanadi. Har bir fan vakili tilni ōz nuqtai nazaridan tadqiq qiladi. Shuning uchun ham turli fan vakillari tilga turlicha taʼrif berganlar.

Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

- Til insonning sōzlash, gapirish qobiliyatidir. (psixolog).
- Til fikr ifodalash va ōzaro aloqa quroli bōlib xizmat qiladigan tovushlar, sōzlar va grammatik vositalar tizimidir. (psixolingvist).
- Til nutqning ōziga xos hususiyatlari va ifoda vositalari bilan ajralib turadigan bir turi, stil, uslub. *Mas* Badiiy adabiyot tili. Sōzlashuv tili. Gazeta tili. Bola tili. Navoiy tili. (adabiyot shunos).
- Til fikr ifodalashda, ōzaro aloqa jarayonida yuzaga keladigan ibora, gap, sōz, nutq. (tilshunos).
- Til ijtimoiy hodisa. Inson jamiyati mavjudki, til ham mavjuddir. U jamiyatning tugʻilishi va rivoji bilan tugʻiladi va rivojlanadi. Jamiyat ōlishi bilan til ham ōladi. Jamiyatdan tashqarida til yōqdir. (filosof).
- Til dil kaliti, bilimlar kaliti, haqiqat quroli.
- Til inson ruhining nafasidir. (Y.Grimm).
- Til ōtganlarni, yashayotganlarni va yashaydiganlarni bir - biri bilan bogʻlaydigan eng hayotiy va eng mustahkam vositadir. (K.D.Ushinskiy).
- Til xalq tarixidir. Til - rivojlanishga va madaniyatga yōldir.

(A.I.Kuprin).

- Til muomala jarayonida har qanday fikrni ifodalay oladigan quroldir. (L.USPENSKIY).
- Axborot nazariyasiga muvofiq til muomala tizimining kodidir. (Injener psiholog).
- Til s^oz va grammatik qoidalar, qoida-tushunchani ifodalaydigan ramziy ishoradir. (V.F.Humboldt).
- Til ^oziga hos strukturaga ega b^olgan sistemadir. (F.de Sossyur).
- Til ma^ono bilan bog^langan va akustik-artikulatsion birikmalar va ularning psixik obrazlaridan tarixiy y^osinda tashkil topgan ijtimoiy aloqa vositasidir.

Naturalizm vakili August Slayxer tilni quyidagicha ta^rriflaydi:

- Til fikrning tovush orqali ifodalanishidir.
- Til talaffuz qilingan tovushlar yordami bilan fikr ifodalash.
- Til tabiiy hodisadir. Shuning uchun ham u tug^liladi, ^osadi, rivojlanadi, yuksaladi va ^oladi.

Psixologizm vakillari G.Shtayntal, A.A.Potebnya, Vundt ta^rriflashlaricha,

- Til hudo yoki odam ruhining ifodasi, k^orinishidir.
- Til sof psixik hodisadir.
- Til doimiy faoliyat. U ayrim shaxs faoliyati bilan bog^lliq.

(A.A.Potebnya).

Yosh grammatiklar fikricha:

- Til individual, psixo-fizik yoki psixofiziologik faoliyatdir.

TAFAKKUR – insonning fikrlash qobiliyati, fikr yuritish, muhokama qilish jarayoni. Ob^oeyktiv borliqning, voqe^likning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi in^oikos jarayoni. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak formasi.

Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi, s^ongra muhokama, xulosa, nazariya va boshqa shakllarda yuzaga chiqadi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon b^oladi. Tafakkur bilish jarayonidir. Ma^olumki bilishning ikki bosqichi farqlanadi:

1. Hissiy bilish.
2. Mantiqiy bilish.

Mantiqiy bilish yoki aqliy bilish – bilishning yuqori, murakkab bosqichidir. Aqliy bilishda narsa hodisalarning ichki, umumiy, qonuniyatli,

mohiyatli, zaruriy hususiyatlari bilib olinadi. Aqliy bilishda fikrlash, tafakkur, aql-farosat ishlatish zarur bōladi. Aqliy bilish ilm-fan yōlidir.

Aqliy bilishning tushuncha, muhokama, mulohaza, xulosa, hukm, nazariya, ilmiy faraz, tarixiy-mantiqiylik kabi shakllari mavjud.

Tushunchalar predmet, hodisalarning hamma hususiyat va belgilarini emas, balki eng asosiy, muhim hususiyat va belgilarini, taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Tushunchalarda ob'yektiv olamning sezgi obrazi emas, balki fikriy obrazi aks etadi.

Bilish jarayoni ilmiy maqsadlarga qaratilsa bunday bilish ilmiy bilish deb ataladi. Ilmiy bilishning tajriba, kuzatish, eksperiment, qiyoslash, taqqoslash, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullari mavjud.

Til va tafakkur munosabatlari murakkab bōlib, bu munosabat turli fanlar tomonidan ōrganiladi. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan hodisalardir. Tilsiz tafakkur bōlmagani kabi, tafakkursiz til ham bōlmaydi. Fikr tilda reallashadi. Tilsiz fikr mavjud emas. Tafakkurning moddiy qobug'i tildir.

Biroq til va tafakkur bir xil hodisa emas. Til material hodisadir. Tafakkur esa ideal hodisadir.

Til va tafakkur munosabatlari fan tarixida turlicha talqin qilingan. Masalan: N.Y.Marr til va tafakkur hodisalarini bir-biridan ajratib qōyadi. Garchi til va tafakkur bir xil hodisalar bōlmasa ham, ularni bir-biridan ajratib bōlmaydi.

Til va tafakkur qonunlari tuzilish va rivojlanish jihatidan bir xil emas. Tilning qurilish qoidalari grammatika fani tomonidan ōrganiladi. Tafakkur qonunlari va tushunchalari esa mantiq ilmidagi ōrganiladi.

Til fikrning shakllanishida va ifodalanishida vosita, qurol bōlib xizmat qiladi.

Har bir fanning kategoriyalari bōlgani kabi grammatik va mantiq kategoriyalari mavjud. Ular bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligi mumkin. Masalan: "Bino quruvchilar tomonidan qurildi". Bu mantiq jihatdan hukm, grammatik jihatdan esa gap. "Bino"- mantiqiy ob'yekt, grammatik ega. "Quruvchilar"- sub'yekt, grammatik jihatdan tōldiruvchi.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Til nima? - Nima uchun til ijtimoiy hodisa?
- Nima uchun til material hodisa? - Nima uchun til tabiiy hodisa emas?
- Til birliklari qaysilar? - Til qanday funksiyalarni bajaradi?
- Til haqida qanday ta'riflar mavjud? - Tafakkur nima?
- Nima uchun tafakkur ideal hodisa? - Bilish nima?
- Bilishning qanday bosqichlari mavjud?
- Hissiy bilish (sezgi, idrok, tasavvur) nima?
- Mantiqiy (aqliy) bilish nima? - Til va tafakkur bir xil hodisami?
- Ularni bir-biridan ajratish mumkinmi?
- Tilga xos qaysi kategoriyalarni bilasiz? - Mantiq kategoriyalari qaysilar?

A D A B I Y O T

- A.T. Irisqulov, Tilshunoslikka kirish, T.,1991.
- Umumiy psixologiya, M., 1986, 322-347 sahifalar.
- M.B.Gamezo, I.A.Domashenko, Atlas po psixologii, M., 1986, 97-175 sahifalar.
- I.A.Zimnyaya, Psixologiya obucheniya inostrannim yazikam v shkole., M., 1991, 73-144 sahifalar.
- A.A.Reformatskiy, Vvedenie v yazikovedeniye. M., 1967, 7-14 sahifalar.

TILNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Ma'ruza bo'yicha asosiy masalalar:

- **Tilning paydo bo'lishi haqidagi turli fikrlar:**
- til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan;
- til kishilar tomonidan yaratilgan;
- tovushga taqlid nazariyasi;
- undovlar nazariyasi;
- mehnat chaqiriqlari nazariyasi;

- ijtimoiy kelishuv nazariyasi;
- tilning paydo bo'lishiga materialistik qarash.
- Qabila va urug' tillari.
- Milliy tillar.
- Milliy tillarning paydo bo'lish yo'llari.
- Tillarning rivojlanishi.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR

I Z O H I

TILNING RIVOJLANISHI *ing.* development of language, *nem.* Sprachentwicklung, *Entwicklung der Sprache*, *rus.* razvitiye yazika. Tilning bir holatdan ikkinchi, yuqori holatga o'tishi, o'sishi, yuksalishi, taraqqiyoti, ravnaqi, ravnaq topishi.

DOIMIY RIVOJLANISH Til doimiy rivojlanishda. Tilning doimiy rivojlanish qonuniyatlari mavjud.

Ular quyidagilar:

- yuksak rivojlangan va go'zallikka erishgan til bir kun "o'ladi" degan fikr (Shlegel, Grimm, Humboldt) noto'g'ri;

- tilning rivojlanishi biologik organizm rivojlanishiga o'xshab - tug'ilish, o'sish, yuksalish va o'lish - jarayonlaridan iborat emas;

- tilning rivojlanishida hech qanday sakrash, yangi tilning to'satdan paydo bo'lib qolishi sodir bo'lmaydi;

- tilning rivojlanishi va o'zgarishi to'xtovsiz, doimiy davom etadi;
- tilning turli tarkibiy qismlari (fonetika, grammatika, leksika) bir tekisda rivojlanmaydi. Bu ma'lum til xizmat qilayotgan jamiyat va tarixiy sharoitlar bilan bog'liq.

NOTEKIS RIVOJLANISH tilning turli davrlarga hos bo'lgan rivojlanish tezligi. Tilning rivojlanish tezligi jamiyat rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

TILLARNING CHATISHUVI *ing.* texing of languages, hybridization, *nem.* Hybridisation. *rus.* snosheniye yazikov. aralashish, qorishish. Tillarning o'zaro ta'siri natijasida bir tilning ikkinchisiga qo'shilib ketishi. Yutqazgan til yutgan tilning fonetik, leksik va grammatik tuzulishida substrat shaklida saqlanib qoladi. Bunga misol bo'lib ingliz tilini olish mumkin.

Ingliz tilining asosini german tili tashkil qiladi. Shu bilan birga unda roman tilining ham ta'siri juda kuchli.

SUPERSTRAT *ing.* superstratum. Kelgindilar tilining yerli aholi tilidagi izlari, ta'siri.

SUBSTRAT *ing.* substratum. Turli-tuman hodisalarning umumiy asosi. Hodisalar o'rtasidagi umumiylik yoki o'xshashlikning negizi. Bir tilning ikkinchi tildagi ta'siri, izi. Bir tilni boshqa til ta'sirida o'rganish.

URUG' O'zaro qon-qardosh bo'lgan kishilardan iborat dastlabki asosiy jamoa, uyushma, tashkilot. Bir ota-bobodan, bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar.

QABILA sinfiy jamiyatgacha qarindoshlik munosabatlari, urf-odatlar, til va hudud jihatdan o'zaro bog'langan kishilar uyushmasi.

XALQ *ing.* people. *nem.* Volk. *rus.* narod. Muayyan mamlakatning barcha aholisi, ijtimoiy birlik, etnik birlik.

MILLAT *ing.* nation. *nem.* Nation. *rus.* natsiya. Tarixan tashkil topgan, madaniyati, tili, hududi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarining umumiyligi asosida vujudga kelgan kishilar guruhi.

MILLIY TIL *ing.* national language. *nem.* Nationalsprache. *rus.* natsionalniy yazik. Bir millat kishilariga hos bo'lgan aloqa vositasi. Bir millatga hos bo'lgan til.

ADABIY TIL *ing.* literary language. *nem.* Literatursprache. *rus.* literaturniy yazik. Ummumxalq tilining qayta ishlanib normalashtirilgan shakli. U har bir millatning ijtimoiy faoliyatida yozma va og'zaki tarzda xizmat qiladi.

DIALEKT *ing.* dialect. *nem.* Mundart. *rus.* dialekt. Umumiy adabiy tildan ma'lum xususiyatlari bilan farq qiluvchi mahalliy sheva.

SHEVA *ing.* subdialect. *rus.* govor. Umumxalq tilining ma'lum hududga hos tarmog'i, mahalliy til, laxja.

JARGON *ing.* jargon, lingo cont. *nem.* Rotwelsch. Faqat ma'lum guruh kishilari tushuna oladigan shartli til, argo.

ANALOGIYA *ing.* analogy. *nem.* Analogie, Angleichung. o'xshatish, o'xshatma: tildagi bir-biridan uzoq hodisalarning o'xshashligi asosida o'zaro yaqinlashuvi.

ANALOGIST narsa bilan uning nomi o'rtasida muayyan bog'lanish BOR deb hisoblovchi olimlar, klassik falsafa vakillari.

ANAMALIYA o'xshamaslik, umumiy yoki standart qolipga o'xshamaslik, mos kelmaslik.

ANAMALIST narsa bilan uning nomi o'rtasida muayan bog'lanish YOQ deb hisoblovchi olimlar, klassik falsafa vakillari.

TOVUSHGA TAQLID *ing.* anomatopoctik theory, *nem.* Theorie der Lautnachahmung, *rus.* teoriya zvukopodrajaniya. Tilning paydo bo'lishi haqidagi faraz . Dastlab kishilar tabiyatdagi tovushlarga (qushlarning sayrashi, hayvonlarning qiyqirigi, suvning shaldirashi va boshqalar) taqlid qilganlar. Natijada til paydo bo'lgan.

UNDOVLAR *ing.* interjectional theory, *nem.* Theorie der Interjektion, *rus.* teoriya mejdometnaya. Ushbu farazga ko'ra kishilar ichki his- hayajonlarini beixtiyor turli qiyqiriqlar orqali izxor qilganlar.

MEHNAT CHAQIRIQLARI tilning paydo bo'lishi haqidagi faraz. Bunga ko'ra kishilar birgalikda ishlayotgan paytda turli ovozlari yordamida bir-birlariga ta'sir o'tkazganlar, ishga undaganlar.

IJTIMOY KELISHUV til kishilarning o'zaro kelishuvi natijasida paydo bo'lgan. Biroq ular bir-birlari bilan qaysi tilda kelishganlar?!

MARKSISTIK QARASH tilning paydo bo'lishi haqidagi materialistik fikr: tilning paydo bo'lishi, insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Til zaruratdan kelib chiqqan.

MODULATSIA *ing.* modulation, *nem.* Modulation. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Tilning paydo bo'lishi va tilning shakillanishi tushunchalari bir biridan farq qiladi. Ibtidoiy tilni tarix kitobidan ham, esdaliklardan ham, grammatika kitoblaridan ham topish mumkin emas. Demak ibtidoiy tilni tadqiq qilish ham, tajribadan o'tkazish ham mumkin emas. Hullas tilning paydo bo'lishini faqat ilmiy faraz qilish-gina mumkin.

Adabiyotlarda tilning paydo bolishi haqida ikki xil fikrni uchratish mumkin.

1. Tilni kishilar yaratmagan, til Alloh tomonidan yaratilgan mo'jiza, Allohning insonlarga qilgan marhamatidir.

2. Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa tilni kishilar yaratganlar degan fikrni olg'a suradilar. Bu borada tilshunoslik tarixida ko'plab nazariyalar mavjud.

Ular quyidagilar:

- Tovishga taqlid qilish (Laybnist, Herder, Humboldt)
- Undovlar nazariyasi: (Shtayntal, Ch.Darvin, A. Potebnya, Kudryavskiy, I.Russo)
- Mehnat chaqiriqlari nazariyasi. (L. Nuare, K. Bofer)
- Ijtimoiy kelishuv nazariyasi.

Kishilik jamiati rivojida quyidagi etnik birliklar vujudga keldi: Urug'; Qabila; Elat; Halq; Millat.

Har bir urug uchun o'z a'zolariga yordam berish, himoya qilish, zararni hamjihatlik bilan qoplash, umumiy qabriston, yerga umumiy egalik qilish, umumiy diniy etiqod urug'ning asosiy belgilari bo'lgan. Ular uchun til asosiy belgi hisoblangan. Urug' a'zolarining bir-biri bilan oila qurishi taqiqlangan. Natijada bir urug' boshqa urug' bilan oila qurish niyatida qarindoshlik aloqalarini o'rnatgan. Urug'larning birlashishi qabilaning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Qabilalar aloqa vositasi sifatida foydalanadigan til dialekt, sheva bo'lgan .

Davlatning kelib chiqishi, jamiatning rivojlanishi turli qabila kishilarning bir-biriga yaqinlashtirishga olib kelgan. Ular aloqa qilishi mumkin bo'lgan umumiy til zarurati paydo bo'lgan. Bunday til bo'lib sharq mamlakatlarida - arab tili, g'arbda qadimgi yahudiy va lotin tili xizmat qilgan.

Slavyan halqlari uchun qadimgi slavyan tili umumiy til vazifasini bajargan.

Millatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi milliy tillarning rivojlanishiga olib kelgan. Millat va milliy tillarning paydo bo'lishi turli halqlarda turli davrda, turli tempda o'tdi va turli natijalar bilan yakunlandi.

Tarixda uyg'onish deb nom olgan davrning vakillari milliy tillarning rivojlanidhi uchun katta hissa qo'shganlar. Ular o'z asarlarini milliy tillarda yozganlar.

Umumiy til hisoblangan lotin tilini faqat ilim bilan shug'ullangan kishilargina bilganlar. Oddiy kishilar esa milliy tillarida muomala qilganlar.

O'rta Osiyoning ilimli kishilari arab yoki fors tilidan foydalanar edilar. Oddiy halq turk tillida aloqa qilar va ularning tillari chala ilimli kishilar tamonidan kamsitilar edi. Bobomiz Mir Alisher Navoiy turk tilining boshqa tillardan qolishmasligini, balki ko'p jihatdan ustun ekanligini nazariy jihatdan asoslabgina qolmasdan, balki turkiyda butun jahonga mashhur bo'lgan, o'lmas asarlar yaratdi.

Halqlar taraqqiy qilib jamiyatning muayan tarihiy sharoitida millatga aylanadi. Millatning asosiy belgilari quyidagilar:

- umumiy hudud;
- umumiy til;
- umumiy iqtisodiy shart sharoit;
- umumiy ma'naviyat.

Yuqoridagi belgilarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar jamoasi millat deb ataladi. Ushbu millat aloqa vositasi sifatida foydalanadigan til shu millatning milliy tili sanaladi.

Milliy til va halq tili tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Milliy til o'zining adabiy yozuv shakliga egadir. Har bir millatning madaniy me'rosi ana shu tilda o'z aksini topadi. Milliy tilning rivojlanish tarihi jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liq.

Milliy tillar uch yo'l bilan paydo bo'lishi va rivojlanishi mumkin.

- milliy shevaga milliy til maqomi berilishi mumkin;
- tillarning chatishuvi orqali;
- ma'lum tilga oid shevalarga asoslanish va ularni mujassamlashtirish, hamda ma'lum qolipga solish orqali.

Tilning paydo bo'lishi haqida hozircha tilshunoslik fani quyidagi hulosalarga kelgan:

- Tilning paydo bo'lishini insoniyatning paydo bo'lishidan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas;
- Tilning paydo bo'lishini ilmiy jihatdan asoslash mumkin emas. Bu masalani faqat ilmiy faraz yo'li bilan hal qilish mumkin;
- Tilning paydo bo'lish masalasini tilshunoslik boshqa fanlar bilan hamkorlikdagina hal qilishi mumkin;
- Agar til insoniyat bilan bog'liq bo'lsa, tilsiz insoniyat bo'lmagan;
- Til kishilikning asosiy belgisidir;

- Agar til “eng muhim aloqa vositasi” bo’lsa, unda til aloqa qilish zarurati tug’ilgan paytda vujudga kelgan;
- Til fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi;
- Til tovushlar tili sifatida paydo bo’lgan;
- Til tilga xos bo’lgan barcha vazifalarni: axborot berish va olish, narsa hodisalarni atash, tushunchalarni ifodalash, hoxish – istakni bildirish va boshqalar uchun xizmat qilishi lozim.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOP SHIRIQLAR

“Praktikum”ning 59–60 sahifalarida berilgan savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

Yuqoridagi savollarning qaysi biri tilning paydo bo’lishi va rivojlanishiga ta’luqli emasligini aniqlang.

A D A B I Y O T

- | | | |
|---------------------|-----------|--------------------|
| 1. A.T.Irisqulov | T., 1991 | |
| 2. O.S.Ahmanova | M., 1996 | |
| 3. O.Azizov | T., 1996 | |
| 4. A.A.Reformatskiy | M., 1967 | 465–526 sahifalar. |
| 5. Sh.Karimov | Praktikum | 56–60 sahifalar. |

JAHON TILLARI KLASSIFIKATSIYASI

MA’RUZA BO’YICHA ASOSIY MASALALAR

- Jahon tillari haqida umumiy ma’lumot.
- Jahon tillarini klassifikatsiyalash.
- Tipologik yoki morfologik klassifikatsiya.
- Flektiv tillar.
- Agglutinativ tillar.
- O’zakli (qo’shimchasiz) tillar.
- Geniologik klassifikatsiya.

- Jahon tillari oilasi.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

KLASSIFIKATSIYA *ing.* classification, *nem.* Klassifikation, *rus.* klassifikatsiya. Narsa va hodisalarni ularning o'ziga va xususiyatlariga qarab tur, xil, turkum va shu kabilarga ajratish, tasnif qilish, turkumlash, klassifikatsiya qilish. Dunyo tillarini turlarga, oilalarga, guruhlarga ajratish.

TIPOLOGIYA *ing.* typology, *nem.* Typologie, *rus.* tipologiya.

1. Tillarni qarindoshligidan qat'iy nazar turlarga, guruhlarga, qatorlarga ajratish.

2. Tilshunoslikning tillarni turlarga, guruhlarga ajratish bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

TIPOLOGIK KLASSIFIKATSIYA *sin.* morfologik klassifikatsiya. *ing.* typological classification of languages, *nem.* typologische Klassifikation, *rus.* tipologicheskaya klassifikatsiya. Tillarni turlarga ajratish. Tillarni turlarga ajratish eng avvalo grammatik nuqtai nazardan qiyoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu klassifikatsiyada tillarni kelib chiqishi hisobga olinmaydi.

MORFOLOGIK KLASSIFIKATSIYA *sin.* tipologik klassifikatsiya. *ing.* morphological classification, *nem.* morphologische Klassifikation, *rus.* morfologicheskaya klassifikatsiya. Tillarni grammatik qurilishiga ko'ra turlarga ajratish.

FLEKTIV TILLAR *ing.* flexional languages, *nem.* flektierende Sprachen, *rus.* yaziki flektivniye, yaziki amalgamiruyushiye, yaziki organicheskiiye, yaziki formalniye, yaziki fuzionnie. So'z shakllarini fleksiya yo'li bilan yasaydigan tillar. Fleksiya-so'z o'zagidagi tovushlarning o'zgarishi.

AGGLUTINATIV TILLAR *ing.* agglutinating languages, *nem.* agglutinierende Sprachen, *rus.* yaziki agglutiniruyushie (yaziki agglutinativniye). Tildagi turulanish, tuslanish, so'z yasash va o'zgarish hodisalarining affikslarning o'zakka uning o'zgarmagani xolda qo'shilishi bilan birga amalga oshiriladigan tillar. (Turkiy tillar).

O'ZAKLI TILLAR *ing.* amorphous languages, *sin.* qo'shimchasiz tillar. (*rus.* izoliruyushiye, amorfniye). Bunday tillarda so'z tartibi qat'iy, yordamchi so'zlar keng ishlatiladi, har bir bo'g'in ma'noga ega, har bir

bo'g'in ohang bilan harakterlanadi, affikslar mavjud emas. (Xitoy, vetnam birma tillari).

KO'P SOSTAVLI TILLAR *ing.* polysyntetic languages, *rus.* yaziki polisintetich-eskiye, (yaziki mnogostavniye). So'zlar birga qo'shib talaffuz qilinadi. Gapda so'zlarning chegarasi sezilmaydi. Ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va xolni ifodalab kelgan so'zlar bilan fe'l birlashib bir butun gapni o'z ichiga oluvchi ko'p sostavli so'z yasaladi.

GENEALOGIK KLASSIFIKATSIYA *ing.* geneological (gedigree) classification, *nem.* geneologische Klassifikation, *rus.* geneologicheskaya klassifikatsiya, klassifikatsiya realnaya. Tillarni kelib chiqishi qarindoshligiga ko'ra tillarga ajratish. Ushbu klassifikatsiya uchun tillarning va xalqlarning tarixi muhimdir. Bu klassifikatsiya eng avvalo tillarni leksik va fonetik jihatdan va nihoyat grammatik jihatdan taqqoslashni talab etadi.

TIL OILASI *ing.* family of languages, linguistic family, *nem.* Sprachfamilie, *rus.* semeystvo yazikov. Kelib chiqishiga ko'ra qarindosh bo'lgan tillar guruhi, qatori, masalan: Xind-evropa tillari oilasi; semit tillari oilasi; Fin-ugor tillari oilasi; Turk tillari oilasi.

TIL GURUHI *ing.* groupeof languages, *nem.* Sprachgruppe, *rus.* gruppa yazikov. Ma'lum xususiyatiga ko'ra bir guruhga, qatorga kirgan tillar. Masalan: kelib chiqishi, grammatik tuzilishi va boshqalarga ko'ra.

JAHON TILLARI *ing.* international language, interlanguage, *nem.* Weltsprachen, Sprachen der Welt, *rus.* yaziki mira.

1. Jahonda mavjud bo'lgan tillar.
2. Xalqaro (umumbashar) tillar.

XALQARO TILLAR *ing.* international language, interlanguage, *nem.* Weltsprachen, Sprachen der Welt, *rus.* mejdunarodniye yaziki. Birlashgan millatlar tashkiloti hujatlari chop qilinadigan tillar. Bularga: ingliz, farang, ispan, rus, xitoy, *arab* tillari kiradi.

O'LIK TILLAR *ing.* dead language, *nem.* tote Sprachen, *rus.* myortviye yaziki. Muomala sifatida iste'moldan chiqib ketgan tillar. Masalan: qadimgi grek tili, lotin tili (cherkov va fan tili), klassik arab tili (Qur'on tili).

TABIY TILLAR *ing.* natural language, *nem.* lebendige Sprachen, *rus.* estestvenniye yaziki. Ma'lum millatning paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan va aloqa vositasi sifatida xizmat qilayotgan tillar.

SUN'IY TILLAR *ing.* artificial language, *nem.* kunstliche Sprache, *rus.* iskustvenniye yaziki. Ma'lum kishilar tamonidan ishlab chiqilgan tillar. Masalan: esperanto, 1887 yilda L.L.Zamengof tamonidan yaratilgan.

TILLARNING QARINDOSHLIGI *ing.* relationship of language, Sprachverwandschaft, *rus.* rodstvo yazikov. Bir bobo tildan kelib chiqqan tillarning barcha sohalarida umumiylik va o'xshashlikning mavjudligi.

BOBO TIL *sin.* asos til. *ing.* parent language, *nem.* Ursprache, Grundsprache, *rus.* proyazik, yazik osnovi. Tarixiy qiyosiy metod yordamida nazariy jihatdan tiklangan tilning lingvistik modeli. Taqqoslanayotgan til kelib chiqqan til.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Jahondagi tillar soni hali fanga aniq emas. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda jahonda ikki mingdan besh minggacha til mavjud ekanligi qayd qilinadi. Tillar sonini aniqlash juda murakkab masala. Tillar sonini aniqlashda tilda gapiruvchilarning soni ro'l o'ynamaydi.

Ma'lum tillar juda ham tor doiradagi kishilar uchun xizmat qiladi, masalan: afrika qabilalarining, amerika xindularining tillari.

Ikkinchilari faqat shu millat uchun xizmat qiladi, masalan: chex, bolgar, polyak tillari.

Uchunchilari bir necha millat uchun aloqa vositasi vazifasini bajaradi, masalan: ingliz tili- Angliya va Amerika Qo'shma Shtatlari va boshqalar uchun; nemis tili- Olmoniya, Avstriya, Lyuksemburg, Lichtenshtayn va boshqalar uchun xizmat qiladi.

Xalqaro tillar ham mavjud. Ingliz, farang, ispan, rus, xitoy va arab tillari xalqaro tillar hisoblanadi. Bu tillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlari chop etiladi.

Jahonda o'lik tillar ham mavjud: qadimgi grek, lotin va arab tillari shular jumlasidandir. Bu tillardan muomala vositasi sifatida foydalani olmaydi.

Tillar tabiiy va sun'iy tillarga bo'linadi. Tabiiy tillar xalqlar tarixi bilan bog'liq xolda paydo bo'ladi, sun'iy tillar esa ayrim kishilarning tashabbuslari bilan yaratiladi.

JAHON TILLARINI KLASSIFIKATSIYALASH

Tilshunoslik fanida tillarni ikki nuqtai nazardan klassifikatsiyalash barcha olimlar tomonidan tan olingan. Ulardan birinchisi **Geneologik** klassifikatsiyadir.

Ushbu klassifikatsiya tillarning tarixi hamda ushbu tillarda soʻzlovchi xalqlarning tarixi bilan uzviy boʻqliq. Tillar eng avvalo leksik va fonetik jihatdan va nihoyat grammatik tamondan taqqoslanadi.

Geneologik klassifikatsiya boʻyicha tillar oilalarga, oilalar guruhlariga, guruhlar esa guruhchalarga, guruhchalar qarindosh tillarga boʻlinadi. Zamonaviy tilshunoslarning maʼlumotlariga koʻra hozirgi kunda yigirmadan ortiq til oilalari mavjud.

Tillar oilasi deganda biror bobo tildan kelib chiqqan tillar yigʻindisi nazarda tutiladi, masalan: xind–evropa tillari oilasi.

Tilshunoslik tarixida tillarning geneologik klassifikatsiyasi bilan koʻplab olimlar shugʻunlanganlar. Bu uzoq tarixga ega.

1. 1538 yilda Gvilelm Pastellusning “Tillarning qarindoshligi haqida” nomli asari vujudga keldi.
2. Yuliy Tsezarning oʻgʻli Iosif Yustus Skaliger “Evropa tillari haqida mushohadalar” asarini yozdi.
3. Mihail Vasilyevich Lomonosov 1755 yilda “Rossiya grammatikasi” nomli asarini eʼlon qildi.

Tilshunoslikning tarixiy metod namoyondalari tillarni geneologik klassifikatsiya qilish borasida ulkan ishlar qildilar. Ularga:

- olmon olimi Frans Bopp (1791–1867);
- daniyalik olim Rasmus Kristian Rask (1787–1832);
- rus olimi Aleksandr Xristoforovich Vostokov (1781–1864);
- olmon tilshunosi Yakob Grimm (1785–1863);
- olmon olimi Avgust Shlayxer (1821–1868);
- yosh grammatiklar, Avgust Shlayxerning oʻquvchisi Gerhardt Paul;
- rus olimi Fyodor Filipovich Fortunatov (1848–1914);

- shvetsariyalik olim Ferdinand de Sosyur (1857–1913);
Geneologik klassifikatsiyaga ko'ra jahon tillari oila va guruhlariga bo'linadi.

I. Xind–evropa tillari oilasi

1. Xind tillari guruhi (xindi, panjob, bengal, sanskrit...jami 18 ta).
2. Eron tillari guruhi (fors, tojik... jami 24 ta).
3. Slavyan tillari guruhi (rus, ukrain, belorus... jami 15 ta).
4. Boltiq tillari guruhi (litva, latish).
5. German tillari guruhi (olmon, ingliz... jami 12 ta).
6. Roman tillari guruhi (farang, ispan, ital'yan, portugal, rumin, moldovan, lotin... jami 15 ta).
7. Kelt tillari guruhi (irland, shotland... jami 7 ta).
8. Grek tillari guruhi.
9. Alban tillari guruhi.
10. Arman tillari guruhi.
11. Anatol tillari guruhi.
12. Toxar tillari guruhi.

II. Semit– hamit tillari oilasi

1. Semit tillari guruhi (arab, amhar... jami 10 ta).
2. Egipt tillari guruhi.
3. Kushit tillari guruhi (samali).
4. Berber tillari guruhi (jami 9 ta).
5. Jado–hamit tillari guruhi (jami 3 ta).

III. Kavkaz tillari oilasi.

1. Abhaz tillari guruhi.
2. Nax (veynax) tillari guruhi (chechen, ingush).
3. Dog'iston tillari guruhi (avar, lezgin... jami 27 ta).
4. Kartvel tillari guruhi (guzin).

IV. Guruhdan tashqarida. (Bask tili).

V. Fin- ugor tillari.

VI. Samoy tillari.

VII. Turk tillari. (jami 32 ta).

VIII. Mug'il tillari.

Ro'yhatda jami 24 tillar guruhi qayd qilingan. Ushbu ro'yhat A.A.Reformatskiyning "Tilshunoslikka kirish", M., 1967, kitobidan qis-qartirib olindi. 382-464 sahifalar).

Tillarni klassifikatsiya qilishning ikkinchi ko'rinishi **TIPOLOGIK** yoki **MORFOLOGIK** klassifikatsiyadir.

Klassifikatsiyaning bu turi geneologik klassifikatsiyaga nisbatan ancha yoshdir. Bu klassifikatsiyaning ilk tarafdori Fridrix Shlegel (1772-1829) bo'lib, u sanskrit tilini grek, lotin va turk tillari bilan qiyoslab quyidagi hulosalarga kelgan:

1. Hamma mavjud tillarni ikki turga bo'lish mumkin:
 - a) flektiv tillar, b) affiksli (agglyutativ) tillar.
2. Har bir til ma'lum turga oid holda paydo bo'ladi va shundayligicha qoladi.
3. Flektiv tillar - "boy, sodda, umri boqiy", affiksli tillar esa - "qam-bag'al, sust rivojlanadi, kamchilikli va sun'iy".

Fridrix Shlegelning akasi Avgust Vilhelm Shlegel (1767-1845) ukasining klassifikatsiyasini qayta ishlab, barcha tillarni uch guruhga bo'ldi:

1. Flektiv tillar (olmon, slavyan va boshqalar).
2. Affiksli tillar (turk tillari).
3. Amorf tillar (xitoy, v'yetnam, birma).

Aka-uka Slegellarning kamchiliklari quyidagilar:

- Flektiv tillarda hamma grammatik hodisalar fleksiyadan iborat emas.

- Xitoy tiliga oʻhshagan tillarni amorf tillar deyish nooʻrin, chunki formadan tashqaridagi tillarni boʻlishi mumkin emas.
 - Tillarni boy yoki qambagʻalga boʻlish mumkin emas.
- Hozirgi kunda morfologik klassifikatsiya dalillariga muvofiq jahon tillari toʻrt turga ajratiladi:
1. Flektiv tillar.
 2. Agglutinativ tillar.
 3. Oʻzakli (qoʻshimchasiz) tillar.
 4. Koʻp sostavli tillar

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Shavkat Karimovning “Praktikum” qoʻllamasidagi 56–sahifaga joylashgan savollarga javob bering.
- Ushbu savollardan qaysi birlari “Jahon tillari klassifikatsiyasi” mavzusiga mos tushmasligini aniqlang.
- “Praktikum” ning 56–58 sahifalaridagi 205–222 mashqlarni yozma ravishda bajaring.

A D A B I Y O T

1. M.T. Irisqulov , 1992. 166–196 sahifalar.
2. O.S.Axmanova, 1966.
3. B.N.Golovin, 1977. 251–255 sahifalar.
4. A.A.Reformatskiy, 1967. 382–464 sahifalar.
5. Sh.Karimov, 1994. 56–58 sahifalar.
6. O.Azizov, 1996. 144–166 sahifalar.

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK (MUOMALA TILSHUNOSLIGI)

MAʼRUZA BOʻYICHA ASOSIY MASALALAR

- Kommunikatsiya va uning mohiyati.
- Kommunikatsiyaning koʻp qirralilik xususiyati.
- Kommunikatsiya va til birligi.
- Kommunikatsiya turlari:
 - a) Til vositasida muomala qilish-verbal kommunikatsiya.

- b) Tilsiz muomala qilish-noverbal kommunikatsiya.
- Kommunikativ tilshunoslikning tarmoqlari.
 - Kommunikativ tilshunoslik masalalari.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

KOMMUNIKATSIYA sin. muomala, muloqat, aloqa. In. communication, *nem.* Kommunikation, *rus.* kommunikatsiya. Kishilar o'rtasidagi hamkorlik zarurati tufayli sodir bo'ladigan ko'p qirrali aloqalar jarayoni.

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK *ing.* linguistics of kommunikation, *nem.* kommunikative Linguistik, *rus.* kommunikativnaya lingvistika. Tilshunoslikning sohasi. Tilning muomala jarayonidagi funksiyasini o'rganadi.

KOMMUNIKANT muomala jarayonining ishtirokchisi.

PRAGMATIKA *ing.* pragmatics, *nem.* Pragmatik. Til birliklari va ular anglatadigan ma'noning kishilarga ta'sirini o'rganuvchi soha.

TIL aloqa vositasi. Ishoralar yig'indisi.

NUTQ tildan amalda foydalanish jarayoni. Fikrni shakllantirish va ifodalash usuli.

NUTQ FAOLIYATI til vositasida axborotni qabul qilish va uzatish jarayoni.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Muomala kishilar o'rtasidagi axborot olish va berish jarayonidir. Muomala kishilarning bir-biriga o'zaro ta'sir qilish jarayonidir. Muomala vositasi til hisoblanadi. Muomala orqali kishilar amaliy va nazariy faoliyatlarini tashkillaydilar, axborot almashadilar, bir-birlarini tushunadilar, bir-birlari bilan kelishadilar, maqsadga qaratilgan harakat dasturlarini tuzadilar, bir-birlariga o'zaro ta'sir o'tkazadilar. Muomala jarayonida shaxslar o'rtasidagi munosabatlar shakllanadi, yuzaga chiqadi va amalga oshadi.

Muomala til vositasi bilan - verbal, yoki tilning ishtirokisiz-noverbal amalga oshirilishi mumkin. Verbal muomala jarayonida so'z muhim o'rin tutadi. So'z talaffuz qilinishi, ichki nutqda takrorlanishi, yozilishi, maxsus ishoralar yordamida ifodalanishi mumkin.

Nutq og'zaki yoki yozma bo'lishi, monolog yoki dialog shaklida ifodalanishi mumkin.

Muomala faqat kishilar o'rtasidagi axborot almashishdangina iborat bo'lmay, balki kishilarning his-hayajonlarini ham qamrab oladi. Muomalaning bu tamoni noverbal kommunikatsiyani tashkil qiladi. Noverbal muomala vositalari bo'lib imo-ishora, harakat, ohang, intonatsiya, pauza, kulgi, tabassum, ko'z yoshi va boshqalar xizmat qilishi mumkin. Noverbal vositalar verbal muomalani to'ldiradi. Noverbal vositalar yordamida bir s'ozga ko'plab ma'no berish mumkin.

Tillarni o'rgatishda shu til sohibiga hos bo'lgan noverbal vositalarni ham o'rgatish lozim. Aks holda chet tili to'la o'zlashtirilmaydi. Chunki turli tillardagi noverbal vositalar bir-biridan farq qiladi.

Gapirishni o'rgatish jarayonida talabalarni yuzma-yuz o'tqazish ijobiy samara beradi. Muomala jarayonida tilga hos bo'lgan noverbal vositalardan to'g'ri foydalanish muomala madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Muomala murakkab ko'p qirrali jarayondir. Muomala jarayonining quyidagi uch tomonini ta'kidlash lozim, ular:

1. Kommunikativ yoki axborot almashish.

2. Interaktiv yoki muomala jarayonida nafaqat so'z bilan, balki harakat bilan aloqada bo'lish.

3. Perseptiv yoki kishini kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va baholash, shu asosda muomalada bo'lish (ko'rinishini, bilimini, harakatlarini, u haqidagi fikrlarni...).

Muomala ishtirokchilariga ko'ra uning bir necha turlarini farqlash mumkin. Biz uchun eng muhimi ta'limiy muomaladir. Ta'limiy muomala deganda pedagog va talabaning o'zaro munosabati, muomalasi tushuniladi. Pedagog va o'quvchilar o'rtasida samimiy muomala jarayonini vujudga keltirmay turib ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni amalga oshirish mumkin emas. Ta'limiy muomalada pedagog tashabbuskor bo'lib, ushbu jarayonni tashkil qiladi va boshqaradi. Pedagog muomala jarayonida uch hil yo'l tutishi mumkin:

1. Demokratik yo'l- vazifalarni belgilash va bajarishda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Hamma teng huquqli hisoblanadi.

2. Avtoritar yo'l- barcha masalalarni pedagog hal qiladi, talabalar faqat bajaruvchi bo'lib qoladilar.

3. Liberal yo'l- pedagog faqat tushuntirish, ishontirish, ko'ndirish bilan chegaralanadi, talabchanlik qilmaydi. Hamma ish o'z holiga tashlab qo'yiladi.

Tajriba avtoritar va demokratik yo'llar uyg'unlashgan usul bilan ishlash ijobiy samara berishini ko'rsatadi.

Muomala a) rasmiy, b) norasmiy bo'lishi mumkin. Rasmiy muomalaga: o'qituvchi-o'quvchi, vrach-mijoz, sotuvchi-haridor, raxbar-hodim va boshqalar o'rtasidagi muomala kiradi. Norasmiy muomalaga shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslangan muomalani ko'rsatish mumkin. Norasmiy muomalaning oliy formasi sevgi va do'stlikdir.

Muomalada norasmiylikka intilish kishilikka hos bo'lgan hislatdir. Kishilar bilan norasmiy muomala qilish qobiliyati quyidagilarga bog'liq:

- shaxsiy hislatlarga (muomalaga intilish, ishonch, tortinmaslik va boshqalar);

- muomalaga ustalik (aloqa o'rnatish, suhbatdoshni tushuna bilish, uning hislatlarini o'ziga hos xususiyatlarini ko'ra bilish, vaziyatni yumshata bilish va boshqalar);

- muomala odobini, nazokatini saqlay bilish.

Muomala odobi deganda kishining muomala jarayonida undan kutilayotgan verbal va noverbal vositalarni ishlata bilish qobiliyati va mahorati tushuniladi. Od-o-

bli, hushmuomala, nazokatli kishi har doim vaziyatni to'g'ri baholay oladi va undan kutilayotgan muomalani qiladi.

Muomala me'zomlarini bilmaslik va ularni buzish odobsizlik hisoblanadi. Odobsizlik esa o'zaro kelishmovchiliklarga olib keladi. Natijada muomala madaniyati buziladi, munosabatlar taranglashadi, salbiy natijalar kelib chiqadi va ishga putur etadi.

Barcha faoliyatga o'rgatilgani kabi, muomalaga ham o'rgatiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilning be'vosita harakatdagi, muomaladagi ko'rinishi o'rganila boshlandi va unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlashga kirishildi. Tilning rivojlanishi kishilarning hayoti, ularning nutq faoliyatlari bilan bog'liq ravishda o'rganila boshlandi. Tilshunoslik fanida tilning ushbu tomoni uning kommunikativ aspekti deb nom oldi. Bu kommunikativ tilshunoslikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Kommunikativ tilshunoslikning quyidagi tarmoqlari mavjud:

1. Psixolingvistika.
2. Sotsiolingvistika.
3. Matn tilshunosligi.
4. Pragmatik tilshunoslik.

Kommunikativ tilshunoslik quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- Kommunikatsiya jarayoni, uning mohiyati, qonuniyatlari, tuzilishi, shart-sharoitlari, xususiyatlari, tarkibiy qismlari va boshqalar.
- Muomalaning axborot almashish jarayoni ekanligi.
- Muomalaning kishilarning o'zaro ta'sir qilish jarayoni ekanligi.
- Muomaladagi ijtimoiy nazorat masalalari.
- Muomaladagi me'zon va me'yor.
- Muomaladagi rollar masalasi.
- Muomala madaniyati va odobi.
- Muomala turlari.
- Tabiiy muomala.
- Muomala jarayonidagi qayta bog'lanish.
- Muomalaning milliy xususiyatlari.
- Muomala jarayonining shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri.
- Muomala treyningi (mashqi).

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Kommunikatsiya deganda nimani tushunasiz?
- Nima uchun muomala murakkab jarayon hisoblanadi?
- Muomala sodir bo'lishi uchun nimalar zarur?
- Muomala odobi nima?
- Muomala jarayonida qanday rollar bo'lishi mumkin?
- Tabiiy muomala deganda nimani tushunasiz?

- Muomalaning qanday milliy xususiyatlari mavjud?
- Muomalaga o'rgatish mumkinmi?
- Verbal muomala deganda nimani tushunasiz?
- Noverbal muomala deganda nimani tushunasiz?
- Kommunikativ tilshunoslikning qanday tarmoqlari mavjud?
- Kommunikativ tilshunoslik qanday masalalar bilan shug'ullanadi?

A D A B I Y O T

- A.V.Petrovskiy va boshqalar Umumiy psixologiya. M.1986 127-149 sahifalar.
 M.V.Gamezo, I.A.Domashenko Atlas po psixologii M.1986. 97-112 sahifalar.
 A.A.Bodalev Vospriyatiye cheloveka chelovekom M,1982.
 A.Dobrovich Obsheniye: nauka i iskusstvo M. 1978.
 Y.L.Kolominskiy Psixologiya obsheniya M.1974.
 A.A.Leont'yev Pedagogicheskoye obsheniye M.1979.
 M.T.Irisqulov T. 1992. 138-139 sahifalar.

PSIXOLINGVISTIKA

MA'RUZA BÖYICHA ASOSIY MASALALAR

= **PSIXOLOGIYA**ning asosiy masalalari:

- Psixika va ong;
- Shaxs, faoliyat va munosabat;
- Bilish jarayoni;
- Shaxsning xususiyatlari;
- Taniqli psixologlar.

= **TILSHUNOSLIK**ning asosiy masalalari:

- Tilning tabiati va mohiyati;
- Til va tafakkur;
- Til va nutq;
- Til strukturasi (fonetika, leksika, grammatika);
- Tilning rivojlanishi;
- Yozuv va yozuvning paydo b'lishi;
- Tillarning geneologik va tipologik klassifikatsiyasi.

= **PSIXOLINGVISTIKA**ning asosiy masalalari:

- Til, nutq va nutq faoliyati tushunchalari va ularning o'zaro munosabati;
- Nutq faoliyatining turlari;
- Nutq mexanizmlari;
- Retseptiv mexanizmlar;

- Reproduktiv mexanizmlar;
- Til örganish masalalari;
- Til örgatish masalalari;
- Zullisoniylik (bilingvizm);
- Til bilish va til bilish darajasini belgilash;
- Taniqli psixolingvistlar.

MA'RUZADAGI ASOSIY ATAMALAR IZOHI

- PSIXOLOGIYA** *ing.* psychology, *nem.* Psychologie, *rus.* psixologiya. Psixik faoliyatning qonuniyatlari, jarayoni va taraqqiyoti haqidagi fan.
- PSIXIKA** *ing.* psychics, mentality, *nem.* Psyche, *rus.* psixika. Ob'ektiv voqelikning ongda aks etishidan hosil bo'lgan ruhiy kechinmalar majmui, ruhiy holat.
- ONG** *ing.* conscionsness, thinking, *nem.* Denken, *rus.* soznaniye. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi.
- SHAXS** *ing.* personality, individual, *nem.* Person, *rus.* lichnost, litso. Jamiyatdagi alohida bir kishi, odam.
- FAOLIYAT** *ing.* activities, activity, *nem.* Tätigkeit, *rus.* deyatelnost. Kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (ruhiy) va tashqi (jismoniy) faolligi.
- MUOMALA** *ing.* communication, contacts, intercourse, *nem.* Kontakt, Kommunikation, *rus.* obsheniye. Kishilarning bir-birini tushunishi. Kishilar bilan munosabat, so'zlashuv. Odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat extiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni.
- JAMOA** *ing.* society, *nem.* Sozium, *rus.* obshestvo. Kishilarning ijtimoiy (sotsial) umumiyligi.
- GURUH** *ing.* group, *nem.* Gruppe, *rus.* gruppа. Muayyan belgiga, masalan: sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko'rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga va boshqalar asosida ajralib turadigan insoniy umumiylik.
- DIQQAT** *ing.* attention, *nem.* Aufmerksamkeit, Acht, *rus.* vnimaniye. Ongning muayyan narsaga yonaltirilishi, qaratilishi.
- SEZGILAR** *ing.* feeling, sensation, *nem.* Gefühl, *rus.* chuvstva. Narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aksi, moddiy qözg'atuvchilarning tegishli retseptorlarga bevosita ta'sir etishi bilan organizmda hosil böladigan ichki holat. Sezginging eshitish, körish, motor, hid bilish, tam bilish turlari mavjud.
- IDROK** *ing.* perception, *nem.* Wahrnehmung, *rus.* vospriyatiye. Narsa, hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta'sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishi.
- HOTIRA** *ing.* memory, *nem.* Gedächtnis, *rus.* pamyat. Individning öz tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushurishi.

- TAFAKKUR** *ing.* thinking, *nem.* Denken, *rus.* mishleniye. Ob'ektiv voqelikning tassavur, tushuncha va muhokamadagi aktiv in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash. Hissiy bilishning yuqori bosqichi. Mantiqiy bilish jarayoni.
- HAYOL** *ing.* imagination, *nem.* Einbildungskraft, Phantasie, *rus.* voobrajeniye. Fantaziya, öy, fikr. Ijodiy faoliyatning zarur elementi; Faoliyatni boshlamasdan turib, uning natijasini köz oldiga keltirish.
- SHAXSNING XUSUSIYATLARI** *ing.* quality of personality, *nem.* Eigenschaften der Personen, *rus.* svoystvo lichnosti. Shaxsning boshqalardan ajralib turishi uchun xizmat qiladigan belgilari, hislatlari.
- HIS-TUYG'ULAR** *ing.* emotion, *nem.* Emotion, *rus.* emotsiya. Kishining voqelikka bõlgan ichki munosabati.
- IRODA** *ing.* will, *nem.* Wille, *rus.* volya. Kishining oldiga qõyilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib õtishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorining ongli ravishda tashkil qilishi va õz-õzini boshqarishi.
- TEMPERAMENT** *ing.* temperament, *nem.* Temperament. Psixikaning individual jihatdan õziga hos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik kõrinishlari majmui.
- XARAKTER** *ing.* nature, *nem.* Charakter, *rus.* xarakter. Shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bõladigan barqaror individual xususiyatlari; Individ uchun tipik bõlgan xulq-atvor usullari.
- QOBILYAT** *ing.* ability, *nem.* Begabung, Vermõgen, *rus.* sposobnost. Shaxsning mazkur faoliyatni amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, kõnikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan individual-psixologik xususiyati.
- BELGI** *sin.* ishora, *ing.* mark, marker, *nem.* Merkmal, *rus.* znak. Bilish va muomala jarayonida predmet yoki hodisalar õrnida ishlatiladigan, fikmi, axborotni qabul qilish, saqlash, õzgartirish va berish uchun foydalanadigan moddiy, hissiy jihatdan idrok qilinadigan predmet, hodisa, xarakat.
- TILSHUNOSLIK**ka oid atamalar boshqa ma'ruzalarda berilgan.
- PSIXOLINGVISTIKA** *sin.* psixologik tilshunoslik, *ing.* psycholinguistics, *nem.* Psycholinguistik, *rus.* psixolingvistika. Nutq faoliyati haqidagi fan.
- TIL, NUTQ VA NUTQ FAOLIYATI** *ing.* language, speech and speaking activity, *nem.* Sprache, Rede und Sprechtaetigkeit, *rus.* yozik, rech i rechevaya deyatelnost.
- Til-fikr ifodalash va õzaro aloqa quroli bõlib xizmat qiladigan tovushlar, sõzlar va grammatik vositalar tizimi;
- Nutq-fikmi sõz orqali og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash qobiliyati, mahorati;
- Nutq faoliyati-tildan foydalanish jarayoni.
- NUTQ FAOLIYATI** kishining maqsadga yõnaltirilgan, til tizimidan foydalangan xolda muomala vaziyatini hisobga olib axborot olish va berishga qaratilgan

faoliyati; Axborotni qabul qilish va uzatish, kishilarga ta'sir o'tkazish jarayoni.

ICHKI NUTQ *ing.* inner speech, endophasy, *rus.* vnutrennyaya rech, endofaziya. Nutq faoliyatining ovozsiz turi. Grammatik struktura va mazmun jihatdan kengligi bilan xarakterlanadi. Ichki nutq tafakkurning asosiy quroli b'olib hisoblanadi.

NUTQ MEXANIZMLARI *ing.* mechanism of speech, *nem.* Mehanismen der Rede, Sprechmehanismen, *rus.* mexanizmi rechi. Nutqning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur b'olgan vositalar, asoslar, qismlar, ichki tuzilish. Nutqning fiziologik, psixologik, lingvistik mexanizmlari mavjud.

FIZIOLOGIK MEXANIZMLAR *ing.* physiological mechanisms, *nem.* Physiologische Mehanismen, *rus.* fiziologicheskiye mexanizmi. Nutqning shakllanishi va sodir b'olishida ishtirok etadigan a'zolar, nutq organlari.

PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR *ing.* psychological mechanisms, *nem.* Psychologische Mehanismen, *rus.* psixologicheskiye mexanizmi. Nutqning shakllanishi va sodir b'olishida ishtirok etadigan ruhiy holat va jarayonlar: diqqat, sezgi, idrok, hotira, tafakkur, oldindan faraz qilish va boshqalar.

LINGVISTIK MEXANIZMLAR *ing.* linguistic mechanisms, *nem.* Linguistische Mehanismen, *rus.* lingvisticheskiye mexanizmi. Nutqning shakllanishi va sodir b'olishida ishtirok etadigan lingvistik birliklar: tovush, b'og'in, s'oz, s'oz birikmalari va matn.

REISETIV MEXANIZMLAR axborotni idrok qilish jarayonida xizmat qiladigan mexanizmlar.

REPRODUKTIV MEXANIZMLAR axborotni uzatish jarayonida xizmat qiladigan mexanizmlar.

NUTQNI IDROK QILISH *ing.* perception of speech, *nem.* Wahrnehmung der Rede, *rus.* vospriyatiye rechi. Og'zaki yoki yozma shakldagi nutqni eshitish yoki k'orish a'zolari yordamida qabul qilish: tinglab tushunish va o'qish.

FIKRNI SHAKLLANTIRISH *ing.* formation of idea, *nem.* Formierung des Gedankens, der Idee, der Absicht; Gestaltung des Vorhabens, der Idee, *rus.* formirovaniye misli. Biror narsa, kimsa haqida o'yi, hayolni, taklif, maslahatni, niyat, maqsadni, tushuncha, dunyoqarashni, maslakni ma'lum shaklga keltirish, hosil qilish, vujudga keltirish.

FIKRNI BAYON QILISH *ing.* expression of idea, presentation of idea, *nem.* Äusserung des Gedankens, *rus.* formulirovaniye misli. Fikrni o'zgalarga og'zaki yoki yozma ravishda izhor qilish: gapirish (s'ozlash) va yozish.

TIL BILISH *ing.* knowledge of language, *nem.* Sprachkenntnisse, *rus.* znaniye yazika. O'rgangan tilda o'zgalar fikrini tinglab yoki o'qib tushuna olish va o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilaolish.

TILNI O'RGANISH *ing.* learning of language, *nem.* Spracherlernen, *rus.* izucheniye yazika. Muayyan tilga oid bilimlarni o'zlashtirish va shu tilda o'zgalar fikrini

yozma yoki og'zaki ravishda tushunish va öz fikrini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilishga oid kōnikma va malakalarni mashqlar yordamida egalash.

TIL ÖRGATISH *ing.* teaching of language, *nem.* Sprachunterricht, *rus.* obucheniye yazyku. Özgalarga til haqida ma'lumot berish, va ularda mashqlar yordamida özgalar fikrini og'zaki yoki yozma ravishda tushunish va öz fikrini og'zaki yoki yozma ravishda shakllantirish va izhor qilish malakalarini rivojlantirish.

ZULLISONIYLIK *sin.* bilingvizm, *ing* bilingualism, *nem.* Zweisprachigkeit, *rus.* dvuyazychiye. 1. Kōp tillarni bilish masalalari bilan shug'ullanadigan soha. 2. ikki tilni bilish.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Psixologiya ruxiyat haqidagi fandır. Psyhe - yunoncha rux demakdir. Psixologiya kishilar ruxiyati qonuniyatlari va mexanizmlarini Örganadi. Psixologiya shug'ullanadigan masalalarga umumiy tarzda quyidagilarni kiritish mumkin.

I. Psixika va ong.

II. Shaxs, faoliyat va munosabat:

Shaxs; faoliyat; muomala; jamoa.

III. Bilish jarayonlari:

Diqqat; sezgilar; idrok; hotira; tafakkur; hayol.

IV. Shaxsning hissiy-irodaviy xususiyatlari:

Xis-tuyg'ular; iroda.

V. Shaxsning individual-psixik xususiyatlari:

Temperament; xarakter; qobiliyat.

Psixologiya fanida quyidagi olimlar kōplab ilmiy asarlar yaratganlar:

Aleksey Nikolayevich Leont'yev,

Sergey Leonidovich Rubinshteyn,

Lev Grigoryevich Vigotskiy,

A.R. Luriya, B.G. Anan'yev,

Artur Vladimirovich Petrovskiy,

Muhammed Galimovich Davletshin.

TILSHUNOSLIK TIL HAQIDAGI FANDIR.

U quyidagi savollarga javob beradi:

- Til nima? - Qanday tillar mavjud?
- Til qanday funksiyalarni bajaradi?
- Til va tafakkur munosabatlari qanday?
- Til va nutqning Özaro aloqasi qanday?
- Til qanday tuzilgan?

- Fonetika nimani Örganadi?
- Leksika nimani Örganadi?
- Grammatika nimani Örganadi?
- Til qanday rivojlanadi?
- Yozuv nima va u qachon, qayerda va nima uchun paydo b'oldi?
- Jahon tillari qanday klassifikatsiya qilinadi?
- Geneologik klassifikatsiya nima?
- Morfologik klassifikatsiya qanday xususiyatlarga ega?

Tilshunoslik sohasida köplab ilmiy asarlar yaratgan olimlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

I. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vakillari:

- Fridrix Shlegel (1772-1829)
- Frans Bopp (1791-1867)
- Rasmus Rask (1787-1832)
- Jakob Grimm (1785-1863)
- Vilhelm fon Humboldt (1767-1835)
- Aleksandr Xristoforovich Vostokov (1781-1864)

II. Naturalizm vakillari:

- August Shlayher (1821-1868) (daraxt)

III. Psixologizm vakillari:

- Heymann Stayntall (1823-1899)
- Aleksandr Afanasevich Potebnya (1835-1891)

IV. Yosh grammatiklar:

- Avgus Leskin (1840-1916)
- Karl Brugmann (1849-1919)
- Gerermann Osthof (1847-1909)
- Gerhardt Paul (1846-1921)
- Bertoldt Delbruck (1842-1922)

V. Praga maktabi vakillari:

- Ferdinand de Sossyur (1857-1913)
- Nikolay Sergeevich Trubetskoy (1890-1938)

VI. Moskva maktabi vakillari:

- Filipp Fyodorovich Fortunatov (1848-1914)
- Aleksandr Aleksandrovich Reformatskiy

VII. Leningrad maktabi vakillari:

- Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtene (1845-1929)
- Lev Vladimirovich Sherba (1880-1944)
- Lev Romanovich Sinder
- Margarita Ivanovna Matusevich

VIII. Kopengagen strukturalizmi (glossematika) maktabi:

- Lui Yelmslev (1899-1965)

IX. Amerika strukturalizmi (deskriptiv) maktabi vakillari:

- Eduard Sepir (1884-1939)
- Leonard Blumfeld (1887-1949)

X. Ozbek tilshunoslari:

- Jamoliddin Bo'ronov
- Abduzohur Abduazizov

PSIXOLINGVISTIKAGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Psixolingvistika fan sifatida XIX asrning 50- yillarida paydo bo'ldi.

Hayotiy zarurat:

- fanning injiner psixologiyasi deb ataluvchi tarmog'ining vujudga kelishi;
- kishilarga nutq orqali ijtimoiy ta'sir qilish masalalariga e'tiborning kuchayishi;
- radio, televideniye va boshqa nutqiy ta'sir vositalarining hayotda keng qo'llanishi;
- tillarni muomala vositasi sifatida o'rganish va o'rgatishga e'tiborning kuchaishi;
- bilingvizmning rivojlanishi;
- bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishi masalalariga e'tiborning kuchaishi;
- kosmik psixologiyaning rivojlanishi va boshqalar.

PSIXOLOGni gapiruvchi, so'zlovchi, tinglovchi, kitobxon va yozuvchining nutqi va nutq faoliyati qiziqtiradi. Ush bu faoliyat inson psixikasi va ongi bilan uzviy bog'liq. Psixologni jarayon qiziqtiradi.

TILSHUNOSni shu jarayonning natijasi, yani tayyor matn qiziqtiradi.

PSIXOLINGVISTni tildan muomala vositasi sifatida foydalanish jarayoni va ushbu jarayonning natijasi qiziqtiradi. U nutqni yaratish va qabul qilish jarayonida inson bosh miyasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan shug'ullanishi lozim.

Psixolingvistika psixologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtadan boshlanadi. U fan sifatida nutqiy tafakkurning yuzaga kelishi va idrok etilishi qonuniyatlarini o'rganadi.

Til, nutq va nutq faoliyati o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib ular bir-birini taqazo qiladi. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Tadqiq qilish jarayonida ularni shartli ravishda ramziy ma'noda bir-biridan ajratish mumkin.

Til-ifoda vositasi, nutq-ifoda usuli, nutq faoliyati esa axborot almashish jarayonidir.

Nutqning yaratilishi murakkab jarayon bo'lib, bir necha bosqichdan iborat. **B i r i n c h i** bosqichda nutq rejalashtiriladi, programmalashtiriladi, yani kishi nima haqida gapirmoqchi bo'lganligini belgilaydi. Buning uchu axborot jamlanadi, muximlari qoldirilib, ikkinchi darajalilari tashlab yuboriladi. **I k k i n c h i** bosqichda jumlaning sintaktik tuzilisi quriladi. Gapning umumiy tuzilishi, uning grammatik shakli taxmin qilinadi, zarur so'z, tovushlar tanlanadi. Uchunchi bosqichda jumla talaffuz qilinadi.

Shu tariqa sözlash, gapirish jarayoni sodir b'oladi, yani axborot s'ozlovchi tomonidan kodlanadi.

Tinglash jarayonida ushbu kod- tovush signallari tinglovchi tomonidan s'oz ma'nolariga ajratiladi. Natijada s'ozlovchi uzatgan fikr tinglovchi tomonidan qabul qilinadi.

NUTQ FAOLIYATI
turlari

OG'ZAKI

YOZMA

tinglab tushunish
audirovaniye

gapirish
s'ozlash

o'qish

yo'zish

NUTQ FAOLIYATI
shakllari

MONOLOG
gapirish*
s'ozlash*
yakka nutq**

DIALOG
gaplashish*
s'ozlashish*
juft nutq**

* S.Saidaliev 1992. 88-177 sahifalar.

** J.Jalolov 1995. sahifalar.

Nutq faoliyati o'zining murakkab mexanizmlari vositasida reallashadi, yuzaga keladi.

NUTQ MEXANIZMLARINI:

1. Nutqning fiziologik mexanizmlari,
2. Nutqning lingvistik mexanizmlari,
3. Nutqning psixologik mexanizmlari tashkil qiladi.

FIZIOLOGIK mexanizmlar:

1. Nafas organlari,
2. Bög'iz,
3. Tovush hosil qiluvchi organlar.

LINGVISTIK mexanizmlar:

1. Fonetik mexanizmlar,
2. Grammatik mexanizmlar,
3. Leksik mexanizmlar.

PSIXOLOGIK mexanizmlar:

1. Retseptiv (idrok, qabul qilish) mexanizmlar,
2. Reproduktiv (uzatish) mexanizmlar.
 - I. Xotira a) uzoq muddatli, b) qisqa muddatli.
 - II. Oldindan faraz qilish.
 - III. Fikrlash.

Ushbu mexanizmlar nutq faoliyatining turlarida özüga hos xususiyatlarga ega. Ona tili va chet tillar uchun bir xil psixologik mexanizmlar xizmat qiladi. Psixologik mexanizmlarning bir tilda rivojlanganligi, ikkinchi tilni örganishga ijobiy ta'sir qiladi.

Zullisonayn - bilingvizm masalalari ham psixolingvistikaning muxim masalalaridan hisoblanadi. Ikki yoki undan köp tillarni bilishning inson kamolotiga ta'siri, tillarning özaro aloqasi, interferensiya va ijobiy köchirish, zullisoniylikning lingvistik va psixologik asoslari, milliy til, milliy madaniyat va boshqa bir qator masalalar bilingvizmning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Til bilish, til örganish, til örgatish, til bilish darajasini aniqlash masalalari baxli masalalar qatoridan örin olgan. Til bilish tushunchasi mavhum tushuncha bölib jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha tushunilgan. Til örgatishning turli metodi tarafdorlari ham ushbu tushunchani bir hil talqin qilmaganlar. Til bilish deganda:

- tilning tuzilishi haqida bilimga ega bölish;
- tilga oid qoidalarni bilish;
- tilda öqiy olish;
- tilda yoza olish;
- tilda suhbatlasha olish;
- tilda fikmi bayon qila olishni va boshqalarni tushuniladi.

Til örganish faoliyatga örganuvchi tomonidan turib baho berishdir. Til örganish jarayon bölib, ushbu jarayon örgatuvchi tomonidan tashkil qilinishi yoki örganuvchining öz tashabbusi bilan tashkil qilinishi mumkin. Örganuvchi maqsad va vazifalarni öz manfaatlaridan kelib chiqib belgilaydi.

Til o'rgatish o'rgatuvchi tomonidan tashkil qilinadi va tashabbus, qarorga kelish o'qituvchi tomonidan hal qilinadi. O'rgatuvchi ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanadi va usullarning samaradorligi qayta bog'lanish orqali aniqlab boriladi.

Til o'rgatishning ikki yo'li keng tarqalgan:

1. Til bilimidan nutq kōnikmalari va malakalariga o'tish.
2. Nutq kōnikma va malakalaridan til bilmiga o'tish.

Birinchi yo'l bilan ona tili, ikkinch yo'l bilan esa chet tillar o'rgatiladi.

Til o'rgatishning samarali bōlishi bir qator omillarga bog'liq. Ularni shartli ravishda:

- shaxsning individual-psixologik xususiyatlari;
- o'rgatuvchining mahorati, tajribasi, topqirligi;
- lingvistik omillar;
- psixologik omillar;
- ta'limning shart - sharoitlari bilan bog'liq bōlgan omillarga bōlish mumkin.

Til bilish darajasini aniqlash muhim masalalardan biridir. Biroq ushbu darajani aniqlash murakkab faoliyat bōlib, u birinchi navbatda tildan foydalanish maqsadini aniqlashdan boshlanishi lozim. Til bilish darajasini aniqlash, shu tilga oid bilim, kōnikma va malakalarning rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq. Bu borada kōplab usullardan foydalanish mumkin. Keyingi paytda ta'lim jarayonida test usulidan keng foydalanish urf bōlmoqda.

Quyidagi olimlar psixolingvistika sohasida tadqiqot ishlarini olib borganlar:

- Nikolay Ivanovich Jinkin.
- Boris Vasilyevich Belyayev .
- Vladimir Alekseevich Artyomov.
- Irina Alekseeva Zimnyaya.
- Zinaida Ivanovna Klichnikova.
- Aleksey Alekseevich Leontyev.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Psixolingvistika nimani o'rganadi?
- “Psixologik tilshunoslik” va “tilshunoslik psixologiyasi” sōz birikmalarini qanday izohlash mumkin?
- Psixologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
- Psixologlardan kimlarni bilasiz?
- Lingvistika nima bilan shug'ullanadi?
- Taniqli tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
- Psixolingvistika masalalari qaysilar?
- Psixolingvistikani paydo bōlish sabablarini izohlang?
- Psixolingvistika masalalari bilan qaysi olimlar shug'ulanganlar?

ADABIYOT

- A.A. Leontyev Psixolingvistika. L.1967.
Psixolingvistika za rubejom M. 1972.
Osnovi teorii rechevoy deyatelnosti M.1974.
Yazik, rech i rechevaya deyatelnost M. 1969.
Friedrich Kainz Psychologie der Sprache Wien. 1954.
N.I.Jinkin Mexanizmi rechi M.1958.
B.V.Belyayev Ocherki po psixologii obucheniya inostrannim yazikam M.1969.
V.A.Artyomov Psixologiya obucheniya inostrannim yazikam M. 1968.
Z.I.Klichnikova Psixologiya obucheniya chteniyu na inostrannom yazike M. 1977.
I.A.Zimnyaya Psixologiya obucheniya govoreniyu inostrannim yazikam. M. 1969.
Psixologiya obucheniya inostrannim yazikam v shkole M. 1991.
A.V.Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya M. 1986.
M.V.Gamezo, I.A.Domashenko. Atlas po psixologii M.1986.

SOTSIOLINGVISTIKA

(Ijtimoiy tilshunoslik)

MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR:

- Sotsiologiya (jamiyatshunoslik) ning asosiy masalalari.
- Sotsiolingvistikaning asosiy masalalari.
- Davlat tili masalasi.
- Tillarni sotsiolingvistik nuqtai nazardan turlarga ajratish.
- Tillar tavsifi.
- Sotsiolingvistik hulosalar.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

SOTSIOLINGVISTIKA sin. ijtimoiy tilshunoslik *ing.* sociolinguistics, *nem.* Soziolinguistik, *rus.* sotsiolingvistika. Tilning ijtimoiy mohiyati va funksiyalarini o'rganuvchi soha.

TILNING IJTIMOY FUNKSIYASI *ing.* social functional of language, *nem.* soziale Funktion der Sprache, *rus.* sotsialnaya funktsiya yazika. Tilning jamiyatda qo'llanish darajasi, maydoni. Bu soha keng yoki tor bo'lishi mumkin, masalan: rus va avar tillarini solishtiring. Ingliz tilining ijtimoiy funksiyasi o'zbek tilining ijtimoiy funksiyasiga qaraganda juda katta va keng.

SOTSILOGIYA sin. jamiyatshunoslik, *ing.* sociology, *nem.* Soziologie, *rus.* sotsiologiya. Jamiyatdagi turli hodisalar va ularning o'zaro aloqasini, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hamda kishilarning ijtimoiy hatti-

harakatlari umumiy qonuniyatlari va elementlari haqidagi fan.

TILLAR O'RTASIDAGI ALOQA *ing.* connection between languages, *nem.* Sprachkontakte, *rus* yazikoviyе svyazi. Tillarning bir-biriga munosabati, ta'siri. Bu ta'sir salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin.

IJTIMOY DIALEKTLAR *ing.* social dialectical, *nem.* soziale Dialekte, *rus.* sotsialniye dialekti. Til sohiblarining ma'lum guruhlari uchun xizmat qiladigan shevalar.

TIL SIYOSATI *ing.* politics of language, *nem.* Sprachpolitik, *rus.* yazikovaya politika. Davlatning til shakllanishi, yashashi, rivojlanishi, tillarning aloqasiga ongli ravishda aralashuvi. Til siyosati umumdavlat siyosatining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va u milliy siyosat bilan uzviy bog'liq.

TILLARNI IJTIMOY - TERRITORIAL differentsiatsiyalash, *rus.* sotsialno-territorialnaya differentsiatsiya yazika. Tillarni territorial jihatdan dialekt, shevalarga bo'lish. Bunga asos qilib til sohiblarining territorial bo'linishlari olinadi.

ADABIY TIL *ing.* literature language, *nem.* Literatursprache, Hochsprache, Standartsprache, *rus.* literaturniy yazik. Umumxalq tilining qayta ishlanib normalashtirilgan shakli.

MILLIY TIL *ing.* national language, *nem.* Nationalsprache, *rus.* natsionalniy yazik. Muayan millat aloqa vositasi sifatida foydalanadigan til.

DAVLAT TILI *ing.* state language, *nem.* Staatsprache, *rus.* gosudarstvenniy yazik. Qonun yo'li bilan tasdiqlangan, mamlakatning ichki va tashqi ishlari yuritiladigan til.

RASMIY TIL *ing.* official language, *nem.* offizielle Sprache, *rus.* ofitsialniy yazik. Muomala vositasi sifatida davlat, yoki davlatlar tomonidan qabul qilingan til.

XALQARO TIL *ing.* international language, *nem.* Internationale Sprache, *rus.* mejdunarodniy yazik. Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan tillardan biri: ingliz, farang, ispan, rus, xitoy, arab tillari.

MILLATLARARO muomala tili *rus.* yazik mejdunarodnogo obsheniya. Turli millat vakillari muloqot jarayonida foydalanadigan til, masalan: rus tili.

JAHON TILI *ing.* world language, *nem.* Weltsprache, *rus.* mirovoy yazik. Jahon xalqlari uchun aloqa vositasi bo'lib xizmat qiluvchi til.

SOTSIAL-professional til *rus.* sotsialno-professionalniy yazik. Jamiyatdagi muayyan kasbga oid bo'lgan til.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Sotsiologvistikaning asosiy masalalari quyidagilar:

- Davlat tili, adabiy til, milliy til, dialekt, sheva tushunchalarining mohiyatini ochib berish, ta'riflash va baholash;
- Adabiy til uchun xizmat qiladigan yozuv masalasini hal qilish;
- Axolini tillarni bilishiga ko'ra qatlamlarga ajratish;
- Tillarning ijtimoiy funksiyalarini belgilash;
- Tillarni sotsiologvistik nuqtai nazardan turlarga ajratish;

- Tillarning turlari: jahon tillari, tabiiy va sun'iy tillar, tabiiy va o'lik tillar, standart, klassik, milliy, mahalliy, kreol, pijin tillar tushunchalarini tavsiflash;
- Bilingvizm masalalarini hal qilish.

Davlat tili qonun yo'li bilan tasdiqlanadi. Mamlakatning ichki va tashqi ishlari davlat tilida olib boriladi. Mamlakatda bir yoki bir-necha til davlat tili sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan: O'zbekistonda davlat tili - o'zbek tili, rus tili esa millatlararo aloqa vositasi hisoblanadi. Luksemburg davlatida olmon va farang tillari davlat tili hisoblanadi. Davlat tili sifatida adabiy til qabul qilinadi.

Adabiy til umumhalq tilining qayta ishlanib normalashtirilgan shaklidir. Bu til mamlakatning ijtimoiy faoliyatida og'zaki va yozma tarzda xizmat qiladi. Adabiy tilga asos qilib shu millatga mansub bo'lgan dialektlar olinadi. Masalan: o'zbek tili uchun dastlab qorliq-chigil-uyg'ur shevasiga asoslangan eski o'zbek tili asos qilib olingan edi, biroq bu ko'pchilik tomonidan ijobiy qabul qilinmadi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tiliga fonetik jihatdan Toshkent shevasi, morfologik jihatdan esa Farg'ona shevasi asos qilib olindi.

Atamashunoslik sotsiolingvistikaning muhim masalalaridan biridir. Atamafan, texnika, kasb-xunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir.

Davlatning til siyosati umumdavlat siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham milliy siyosatning o'zgarishi bilan til siyosati ham o'zgaradi. Masalan: sobiq sovetlar tizimi davridagi til siyosati Istiqloldan keyingi (1990.1.09) til siyosatidan farq qiladi. O'zbekistonda "Davlat tili" haqidagi Qonunning (1989. 21.10) qabul qilinishi tarixiy voqea bo'di. Ushbu Qonunda o'zbek tili davlat tili deb, rus tili esa millatlararo aloqa vositasi deb e'lon qilindi. Ushbu Qonunda xorijiy tillarni o'rganishga ham alohida e'tibor berildi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 29 iyuldagi 197 - son Qaroriga asosan Respublika va viloyat Til o'rgatish markazlari tashkil qilindi.

Aholini tillarni bilishiga ko'ra guruhlariga ajratish ham sotsiolingvistikaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisini tillarni bilishiga ko'ra shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. O'zbek va rus tillarini bir xil darajada biladigan kishilar.
2. O'zbek tilini ona tili va rus tilini chet tili sifatida biladigan kishilar.
3. Rus tilini ona tili va o'zbek tilini chet tili sifatida biladigan kishilar.
4. O'zbek tilini ona tili sifatida biladigan va rus tilini bilmaydigan kishilar.

Tillarni sotsiolingvistik nuqtai nasardan tipologiyalash ham muhim masalalardan biridir. Sotsiolingvistik tipologiyaga asos qilib standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik va avtonomlik deb nomlanuvchi o'lchovlar qabul qilingan.

Standartlashtirish deganda tilni normaga solish, adabiy til sifatida qayta ishlash tushuniladi. Buning eng asosiy omili tilning grammatikasi va lug'atini tuzishdir.

H a y o t i y l i k mazkur tilda gapiruvchi jamiyatning mavjudligidir. Muayyan tildan kishilar aloqa vositasi sifatida foydalansalar ushbu til hayot hisoblanadi.

T a r i x i y l i k tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo'tadil rivojlanib borishidir.

A v t o n o m l i k muayyan ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilyotgan tilning boshqa tillardan farq qilishi tushuniladi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan tillar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Standart tillar (o'zbek, rus, olmon ...);
- Klassik tillar (yunon, grek, lotin, qadimgi arab tili);
- Mahalliy tillar (hindularning tillari);
- Kreol tillar (Gaiti orollarida, Lotin Amerikasidagi nauatlar);
- Pijin tillar (katta port shaharlarida);
- Sun'iy tillar (Esperanto).

Sotsiolingvistika til funksiyalarini ham o'rganadi. Tillar quyidagi funksiyalarni bajaradi: -kommunikativ (aloqa, muomala) funksiya;

- ijtimoiy (sotsial) funksiya;
- ekspressiv funksiya;
- estetik funksiya;
- gneseologik (bilish) funksiya;
- akkumulyativ funksiya;
- ideologik (mafkuraviy) funksiya.

Til jamiyatning quyidagi sohalarida foydalaniladi:

- Til sohiblarining kundalik muomalalarida;
- Til sohiblarining boshqa til vakillari bilan muloqatida;
- Davlat tashkilotlari o'rtasidagi yozishmalarda;
- Xalq ta'limi sohalarida;
- Fan va texnika sohalarida;
- Davlat va jamoa tashkilotlarida;
- Xuquq - tartibot va Sud idoralarida;
- Ish yuritish va rasmiy yozishmalarda;
- Ijtimoiy siyosiy hayotda;
- Badiiy adabiyotda;
- Vaqtli matbuotda;
- Radio, televideniye, kino, san'at, te'ater sohalarida;
- Madaniy hayotda... .

Sotsiolingvistika nuqtai nazardan tilga hos bo'lgan xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin:

- Til jamiyat maxsul, u ijtimoiy hodisa.
- Til jamiyatning barcha sohaları uchun xizmat qiladi.
- Til ijtimoiy ongini aks ettirish vositasidir.
- Til jamiyatning barcha sohalaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi.
- Tilni jamiyat yaratadi, shakllantiradi va rivojlantiradi.

- Til jamiyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi va yashamaydi.

Hozirgi kunda sotsiolingvistika erishgan yutuqlarga asoslanib quyidagicha hulosalar chiqarish mumkin:

1. Tillarning ijtimoiy vazifasi ortib boradi.

2. Ularning lug'at boyligi ko'payib boradi.

3. Jamiyatning rivojlanishi tilning rivojlanishida o'z aksini topadi.

4. Qo'shni tillarning o'zaro ta'siri ortib boradi.

5. Millatlararo aloqa vositasi funksiyasini bajaruvchi tilning ijtimoiy roli ortib boradi, uning boshqa tillarga ta'siri kuchayadi.

6. Ikki tillilik va ko'p tillilik kuchayib boradi.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Sotsiolingvistika nimani o'rganadi?

- Sotsiolingvistika qanday masalalar bilan shug'ullanadi?

- O'zbek adabiy tilining asosi bo'lib qaysi dialektlar hizmat qiladi?

- Sotsiolingvistik tipologiyaning qanday prinsiplari mavjud?

- Sotsiolingvistik nuqtai-nazardan tillar qaysi turlarga bolinadi?

- Til qanday funksiyalarni bajaradi?

- Til jamiyatning qaysi sohalarida hizmat qiladi?

- Til qanday xususiyatlarga ega?

- Sotsiolingvistikaning eng yangi hulosalari qanday?

ADABIYOT

- Yu.D.Desheriyev Sotsialnaya lingvistika M. Nauka. 1977.

- M.T.Irisqulov T. 1992. 152-166 sahifalar.

MATN TILSHUNOSLIGI

(Tekst lingvistikasi)

MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR

- Matn haqida tushuncha, uning mohiyati va xususiyatlari.

- Matn birligi.

- Matn tarkibi.

- Matn vositalari.

- Matn turlari.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

MATN sin. tekst, *ing* text, *nem.* Text, *rus.* tekst. 1. Har qanday uzunlikdagi og'zaki yoki yozma nutq namunasi. 2. Tugallangan fikrni ifodalovchi yozma shakldagi gapdan tortib toki badiiy asargacha bo'lgan til birligi.

MA'LUMOT kategoriyasi Matnning tabiat va jamiyat hodisalari haqida fikr ifodalashi, habar, belgi, ishora berishi.

INTEGRATSIYA kategoriyasi Matn birliklari o'rtasidagi bog'liqlik, uzviylik.

RETROSPEKTSIYA kategoriyasi Matnda bayon qilinayotgan fikrning ketma-ketligi, izchilligi.

EPIGRAFIK matn Tashkilot, korhona, bino va boshqalarning nomini ifodalovchi matn (epigraf- yunonlarda ibodatxona devorlariga, haykallarga, binolarga bitilgan yozuv).

SFRAGISTIK matn Muxrlardagi yozuv.

NUMIZMATIK matn Pullardagi yozuv (Numizmatika 1. Chaqa tanga va medallar tarixini o'rganuvchi fan. 2. Qadimgi chaqa tanga va medallarni yig'ish).

POLEOGRAFIK matn Tarixiy matn (Poleografika - Qadimiy yozuvlarni o'rganadigan fan).

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

XX asrning 60 - yillaridan boshlab tilshunoslar gap va gaplar yig'indisi, sintaktik butunlik, hat boshi va matn masalalari bilan shug'ullana boshladilar.

Tilning eng katta birligi matn deb topildi. Biroq matn tushunchasini ta'riflashda olimlar bir qarorga kela olganlaricha yo'q. Olimlar o'zlari ishlayotgan sohaning xususiyatidan kelib chiqib matn tushunchasini ta'riflaydilar.

Har bir matn ma'lum talablarga javob berishi lozim. Bu talablar quyidagilar:

- ma'lumotni bayon qilishi, yani tabiat, jamiyat hodisalari va ish harakatni ifodalashi, ular yuzasidan fikrni to'plash va uzatish vositasi bo'lishi;

- matn birliklari o'rtasida bog'liqlik, uzviylik, ergashish kabi munosabatlarni ta'minlashi;

- ma'lum qilinayotgan voqea, hodisa ketma-ket, izchil bayon qilinishi;

- matn uzil-kesil, tugal fikr anglatishi;

- matnning qabul qiluvchisida kim, qachon, qayerda, qanday kabi savollarga o'rin qolmasligi;

- har qanday matn fikrlar yig'indisi bo'lib, o'zaro bog'langan mulohazalarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Matnning chegarasini uning yaratuvchisi belgilaydi.

Matn birligi bo'lib gap hisoblanadi. Gaplar yig'indisi matnni tashkil qiladi.

Har qanday matn tarkibiga ko'ra:


a) ifoda qobig'iga (shakliga),

b) mazmuniga (semantikasiga),

c) tuzilishiga (grammatikasiga) ega.

Tovushlar va ohang matning ifoda qobig'ini tashkil qiladi. Matn ifodalaydigan axborot, uning mazmunini tashkil qiladi. Matn tarkibidagi o'zaro bog'lanish vositalari matnning grammatikasini tashkil qiladi. Matn butunligini ta'minlab turgan narsa, uning asosida yotgan g'oyadir.

Matndagi har bir jumla o'zidan keyingi jumлага zamin tayyorlab kelishi va har bir ikkinchi jumla o'zidan oldingi jumlanı to'ldirib, aniqlab va izohlab kelishi lozim. Matndagi jumlarlar bir-biriga zanjirsimon bog'lanib ketaveradi. Bu bog'lanish fonetik, leksik, grammatik va stilistik vositalar orqali ifoda qilinadi. Matnlar yaratilishidan ko'zlangan maqsadga, tuzulishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.



Matnning har bir turi o'ziga hos xususiyatga ega bo'lib, o'z tarkibi va mazmuni bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan: quyidagi matnlarnı darhol farqlash mumkin.

- Bir bor ekan, bir yo'q ekan...
- Ushbu salomim etib ma'lum bo'lsinki, ...
- Berildi usbu ma'lumotnoma...

Ilmiy matnda masala to'g'risida avval ma'lum bo'lgan fikrlar muhokamasi-dan boshlanib, masalaning hal qilinmagan tomonlari muhokamaga tashlanadi, nihoyat yangi fikr bayon qilinib, uning amaliy qo'llanilishiga oid tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Yozma matnning quyidagi turlari mavjud:

1. Epigrafik (ko'rsatgichlar: A. Navoiy teatri; Vokzal, Aeroport, Dehqon bozori, Namangan davlat universiteti).
2. Sfragistik (muxrlardagi matnlar).
3. Numizmatik (pullarga bitilgan matnlar).
4. Poleografik. Matnning bu turi keng tarqalgan bo'lib jamiyatning madaniy normativlarini belgilaydi. Ularga: a) maktublar, b) hujjatlar, c) ijodiy asarlar kiradi.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Tilning eng katta birligi nima?
- Matnga qanday talablar qo'yiladi?
- Matn tarkibiga nimalar kiradi?
- Matnning butunligini nima ta'minlaydi?
- Matnning qanday turlari mavjud?
- Matn turlaridan na'munalar keltiring.
- Ilmiy matn uchun qanday xususiyat hos?
- Yozma matnning qanday turlarini bilasiz?

ADABIYOT

M.T.Irisqulov T. 1992. 138-139 sahifalar.

LINGVISTIK TAHLIL METODLARI

MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR

- Tadqiqot metodlari haqida tushuncha.
- Tarixiy-qiyosiy metod.
- Gap bo'laklari metodi.
- Substitutsiya metodi.
- Distributiv metod.
- Transformatsion metod.
- Statistik tahlil metodi.
- Ma'no kamponentalarini tahlil qilish metodi.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

METOD *ing.* method, *nem.* Methode, *rus.* metod. Haqiqatni bilish yo'li. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

TILSHUNOSLIK METODLARI *ing.* linguistic method, *nem.* linguistische Methode, *rus.* lingvisticheskiy metod. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda qo'llanadigan usullar.

UMUMFALSAFIY METOD hayotdagi istalgan narsa yoki hodisani bilish va tushunish yo'li. Bunday metodlar barcha maxsus fanlar uchun bir xil dir. Uni metodologiya, yani ilmiy tadqiqot usuli bo'lgan metodlar haqidagi ta'limot deb yuritiladi.

MAXSUS ILMIY METOD ayrim fanga oid hodisani bilish va izohlash usuli yoki yo'li. Bu metod falsafiy metodga ma'lum darajada tobe bo'ladi va falsafiy metod ta'siri ostida o'zgaradi.

METODIKA *ing.* methods, *nem.* Methodik. Biror ishni bajarish, amalga oshirish, adonetish usullarining eg'indisi. U olimning amaliy ravishda ishlash tizimi bo'lib, dalillarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish usullarini nazarda tutadi.

TASVIRIY METOD *ing.* method of linguistic description, *nem.* Descriptions methode, Beschreibungsmethode, *rus.* metod lingvisticheskogo opisaniya. Bu metod yordamida til sistemasiga kiruvchi birliklar tasvirlab, ko'rsatib berilishi bilan birga, o'sha birliklar tahlil qilinadi va ularning funksiyalari o'rganiladi.

QIYOSIY-TARIXIY METOD *ing.* comparative-historical method, *nem.* historisch-vergleichende Methode, *rus.* metod sravnitelno-istoricheskiiy, metod komporativniy, metod sravnitelno-grammatischenkiy. Konkret tillardagi bir-biriga teng bo'lgan lingvis-

tik hodisalarni solishtirib ko'rib, yozma yodgorliklarda qayd qilinmagan til hodisalarini qayta tiklash usuli.

CHOQ'ISHIRISH METODI *ing.* method of analytical comparison, *nem.* vergleichende Methode, *komporative Methode, rus.* metod sopostavitelny. Ikki yoki undan ortiq tillarning strukturasi va birliklarini bir-biriga o'xshash va noo'xshash tomonlarini bilish maqsadida tasvirlash. Ushbu metod yordamida bir tilda tasvirlash jarayonida payqalmagan xususiyatlar ochiladi.

STRUKTURAL ANALIZ METODI *ing.* structural method, *nem.* strukturelle Methode, *rus.* metod strukturniy. Ushbu metod til birliklari orasidagi munosabatlarni, tobeliklarni tasvirlaydi. Struktural analiz metodi til va nutqni ajratish, til birliklari orasidagi o'xshashlik va noo'xshashliklarni, joylashish tartibi va boshqa nisbiy aloqalarni aniqlash uchun xizmat qiladi.

PRAGA FUNKSIONALISTLARI METODI Ushbu metodga ko'ra til funksionaldir, yani ma'lum maqsadga qaratilgan sistemadir. Tilning butun birliklari fikr ifodalash va aloqa qilish uchun xizmat qiladi. Til sistemasini har taraflama- fonologik, morfologik, sintaktik va leksik jihatdan tahlil qilish lozim. Praga funksionalistlari tildagi tovushlar funksiyasini tekshirib, taxlil qilib, tadqiq qilib, fonologiya ilmini vujudga keltirdilar.

KOPENGAGEN GLOSSEMATIKACHILARI METODI Ushbu metod tilning tovush tomonini ham, ma'no tomonini ham inkor etadi. Uning tarafdorlari til sof munosabatlardan iborat deb hisoblaydilar. Glossematikaning vazifasi matnni tahlil qilishdan iboratdir. Bu tahlil yordamida tilning sistemasini aniqlanadi. Tahlilning birinchi bosqichida til birliklarining ifoda darajasi mazmun darajasidan ajratiladi, so'ngra bu darajalarning har biri mayda qismlarga bo'linadi. Qismlarga ajratish abzatslar, qo'shma gaplar, soddaga gaplar va boshqalar orasidagi chegaralarga ko'ra olib boriladi.

AMERIKA DESKREPTIV ANALIZ METODI *ing.* descriptive method, *nem.* deskreptive Methode, *rus.* deskriptivny metod. Lingvistik birliklar va ular o'rtasidagi distributsiyani aniqlash. Distributsiya til elementlarining nutqdagi hamma holatini, uning nimalar bilan yondoshligi va nimalar o'rni kelishini hisobga olgan holda tavsif qilishdan iborat. Nutqdagi gaplar chegaralanadi. Gaplar segmentlarga (tovushlarga) ajratiladi. Segmentlar bir fonemaga, bir necha fonemaga yoki morfemaga teng kelishi mumkin. Bundan maqsad segmentlarning qaysi birini boshqasi bilan erkin almashtirish mumkinligini aniqlash. Segmentlarni erkin almashtirish uchun lingvistik birliklar distributiv tahlil qilinadi.

STATISTIKA METODI *ing.* lexicostatistic method, *nem.* Statistikmethode, *rus.* metod leksikostatisticheskoye. Til va nutq birliklarining qo'llanish miqdorini matematik yo'l bilan hisoblash usuli.

MINIMAL JUFTLIK METODI *ing.* method of minimal pairs, *nem.* Minimalpaar-methode, *rus.* metod minimalnix par. Fonologiyaning tadqiqot metodi. Faqat bir tovush bilan farq qiladigan ikki so'zni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan, ularning o'xshash yoki o'xshash emasligini aniqlash usuli. Bu usul bilan fonemalarning ma'no ajratuvchi (diferensial, distinktiv) xususiyatlari aniqlanadi.

EKSPERIMENTAL FONETIK METOD *ing* experimental fonetic method, *nem.* experimentell-phonetische Methode, *rus.* metod eksperimentalno-foneticheskiy. Ob'ektiv metod. nutq tovushlarini ovoz yozib oluvchi va tahlil qiluvchi apparatlar yordamida tadqiq qilish usuli.

ELEKTRO-AKUSTIK METOD *ing.* electro-acoustic methods, *nem.* elektro-akustische Methode, *rus.* metodi elektro-akusticheskiye. Nutq tovushlarining akustik komponentalarini turli asbblar yordamida tadqiq qilish usuli. Eksperimental fonetikaning tadqiqot metodi.

SUBSTITUTSIYA METODI *ing.* substitution, *nem.* Substitution, *rus.* substitutsiya, zamesheniye, podstanovka. Til birliklarini almashtirish yo'li bilan ularning o'xshash yoki o'xshash emasliklarini aniqlash usuli.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Har bir fanning o'z tadqiqot metodlari mavjud. Metod quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Metod **o b' y e k t i v** bo'lishi, yani qachon, qaerda, kim tomonidan qo'llanilmasin, tahlil qilinayotgan material bir hil bo'lsa, natija ham bir hil bo'lishi kerak.

- Metod **i z c h i l** bo'lishi, yani zarur atamalar tizimini qamrab olishi va qo'shimcha tushunchalarni talab etmasligi lozim.

- Metod **u n i v e r s a l** bo'lishi, yani tilning har bir qatlamlarini (fonetika, leksika, grammatika) tadqiq qilishga yaroqli bo'lishi kerak.

- Metod **s o d d a** bo'lishi lozim.

Hozirgi zamon tilshunosligida quyidagi metodlar keng qo'llaniladi:

- Tarixiy-qiyosiy metod.

- Gap bo'laklariga ajratish metodi.

- Substitutsiya metodi.

- Distributiv metod.

- Transformatsion metod.

- Statistik metod.

- Ma'no komponentlarini tahlil qilish metodi.

Tarixiy-qiyosiy metod.

Ushbu metod uzoq tarixga ega. 1599 yilda Gollandiyalik olim Yu. Skaliger dunyoda 11 ta til oilasi borligini va har bir oila o'z bobo tiliga ega ekanligini bildirgan edi.

1767 yilda farang ruxoniysi Kerdu, 1786 yilda ingliz sharqshunos olimi V.Jouns o'vro-puro tillari bilan qadimgi xind tili- sanskrit o'rtasida qarindoshlik munosabatlari borligi haqida ma'lumot berganlar.

Ushbu masala Rasmus Raskning "Qadimgi island tilining paydo bo'lishi" (1814), Frans Boppning "Sanskrit tilining tuslanish sistemasini grek, slavyan, lotin, fors va german tillri bilan qiyosiy o'rganish" (1816), olmon olimi Yakob Grimmning "Nemis tili grammatikasi" (1819) va rus olimi Aleksandr Vostokovning "Slavyan tili haqida mu-

lohazalar” (1920) asarlarida ilmiy jihatdan asoslangan. Ular xind-ovrupo tillari bir bobo tildan kelib chiqqan va ular qarindosh tillardir, shuning uchun ham bu tillar bir oilaga mansub degan hulosaga kelganlar.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida quyidagi masalalarni hal qilish mumkin:

1. Tillarni qiyosiy o’rganish va ularning bir-biriga qarindosh yoki qarindosh emasligini aniqlash.
2. Qarindosh tillar asosida yotgan bobo tilni tiklash.
3. Tillarning rivojlanish yo’lini aniqlash (qiyoslash).

Gap bo’laklariga ajratish metodi.

Ushbu metod orqali gapning bosh va ikkinchi darajali bo’laklari aniqlanadi va tahlil qilinadi. Tahlil quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

1. Gap bo’laklari aniqlanadi.
2. Gap bo’laklarining qaysi so’z turkumiga mansub ekanligi aniqlanadi.
3. So’zlarning grammatik formalari va ularning morfologik kategoriyalari belgilanadi.

Ushbu metod universal xarakterga ega bo’lmaganligi uchun ham faqat tilning sintaksis qatlamini tadqiq qilishda foydalaniladi.

Substitutsiya metodi.

Nutqdagi ma’lum bir pozitsiyada turgan til birliklarini boshqasi bilan almashtirib sodir bo’ladigan funksional o’zgarishlarni aniqlash substitutsiya metodining vazifasiga kiradi. Ushbu metod yordamida sinonim, omonim va antonim so’zlarning tilda tutgan o’rmini aniqlash yaxshi samara beradi. Substitutsiya metodi tilning barcha qatlamlariga hizmat qila oladi.

Distributiv metod.

Distributsiya til birligining nutqdagi hamma holatini, uning nimalar bilan yondoshligi va nimalar o’rnida kela olishini hisobga olgan holda tavsif qilishdan iborat. Distributsiya til birliklarining bir-biri bilan birika olish qobiliyatidir. Distributsiyaning morfologik, sintaktik, leksik va semantik turlari mavjud.

Morfologik distributsiya deganda bir soʻz tukumining boshqa soʻz turkimi bilan munosabatga kirisha olish, birika olish, qoʻshila olish qobiliyati tushuniladi. Masalan: yashil barg (sifat+ ot), tez gapirmoq (ravish+feʼl) va boshqalar.

Sintaktik distributsiya gap boʻlaklarining bir-birini taqozo etishidir. Masalan: Men qiziqarli kitob oʻqidim.

Leksik-simantik distributsiya deganda til birliklarining maʼno jihatdan biri-biri bilan birika olish qobiliyati tushuniladi.

Nutq birliklarini distributsiya metodi bilan tasnif qilish L.Blumfeld maktabiga hos xususiyatdir.

Transformatsion metod.

Ushbu metod tilshunoslikdagi strukturalizm oqimi vakillari (I.A.Boduyen de Kurtene, F. de Sosyur, N.S.Trubetskoy) tomonidan qoʻllanilgan.

Transformatsiya deganda tahlil qilinayotgan til birligini boshqasi bilan almashtirish tushuniladi. Ikkinchi birlik birinchi birlikka shaklan emas, mazmunan yaqin bōlishi lozim. Masalan:

Insho talabalar tamonidan yozildi. Talabalar insho yozdilar. Ushbu jumlar shakl jihatdan bir-biridan farq qilsa ham, mazmun jihatdan bir-biriga yaqin.

Transformatsion metod tilshunoslikka quyidagilarni aniqlash imkoniyatini beradi:

- soʻzlarning maʼnolarini va ularning maʼno chegaralarini aniqlash;
- soʻzlarning grammatik formasini aniqlash;
- soʻzlarning soʻz yasashning qaysi tipiga tegishli ekanligini aniqlash;
- grammatik kategoriyalarning chegarasini aniqlash;
- tarjima nazariyasi va amaliyoti metodikasiga aniqlik kiritish;
- til oʻrgatish va oʻrganish nazariyasi va amaliyotiga aniqlik kiritish va boshqalar.

Amalda transformatsiyaning turli koʻrinishlari mavjud, jumladan:

- aniqlik darajasini majhul daraja bilan almashtirish, masalan: *Talaba kitob o'qidi-kitob talaba tomonidan o'qildi.*

- jumlaning fe'l strukturasi ot bilan almashtirish, masalan: *Talabalar tilshunoslik masalalari bo'yicha baxslashdilar- talabalarning tilshunoslik masalalari bo'yicha baxslashuvi.*

- tasdiq gapni inkor gap bilan almashtirish, masalan: *Referat qunt bilan yozilgan-referat qunt bilan yozilMAgan.*

- darak gapni s'oroq gap bilan almashtirish, masalan: *Ko'p o'qigan, ko'p biladi- ko'p o'qigan ko'p biladimi?*

- qo'shma gapni bir nech sodda gap bilan almashtirish, masalan: *Kechalari uxlamay, jon kuydirib, doimiy ravishda uqib o'qigan kishigina ilimli bo'ladi- Kechalari uxlamay o'qigan kishi ilimli bo'ladi. Jon kuydirgan kishi ilimli bo'ladi. Doimiy ravishda uqib o'qigan kishi ilimli bo'ladi.*

- bir necha sodda gaplarni bir qo'shma gap bilan almashtirish, masalan: *Har bir kishi hayotdan ta'lim olishi lozim. o'qituvchi unga o'rgatadi. Kimki hayotdan o'lmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim.*

Transformatsion metoddan tilning fonetik, leksik, stilistik sohalarida ham foydalanish mumkin.

S t a t i s t i k metod. Ushbu metodni tilning barcha qatlamlari uchun qo'llash mumkin. Statistik metod yordamida til birliklarining ishlatilish miqdori aniqlanadi. Masalan, ushbu metod yordamida tillardagi so'z turkumi miqdor jihatdan o'rganilganda otlar lug'at tarkibining 50-60 foizini, fe'l- 20-25 foizini, qolgan so'z turkumlari esa 15-20 foizini tashkil qiladi.

Olmon tilidagi otlarning roddlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Jenskiy roddagi otlar: 45 foiz.

- Mujskoy roddagi otlar: 38 foiz.

- Sredniy roddagi otlar: 17 foiz.

Tildagi birliklar nutqda bir hil qo'llanilmaydi. Masalan: olmon, ingliz, farang tillaridagi artikl va predloglar taxminan 20-30 so'zdan iborat bo'lgani holda, nutqdagi so'zlarning 50 foizini tashkil qiladi.

Statistik metod matematikaga va ehtimollar nazariyasiga oid dalillardan unumli foydalanish holda ish yuritishni taqozo qiladi. Ushbu metod tarjimada kompyuterdan foydalanish, lug'at, bibliografiya tuzish, axborotlar tizimini tuzish, programmalashtirilgan darsliklar tuzish, chet tillarni o'qitish jarayonida ta'lim mazmuninig hajmini belgilash borasida katta ahamiyatga ega.

Ma'no komponentlarini tahlil qilish metodi. Keyingi 20-25 yillar ichida so'zlarning ma'no anglatish jihatlarini o'rganishga e'tibor kuchaydi.

So'zlarning ma'nosi ularni farqlovchi **s e m a l a r** yig'indisidan iborat. Sema so'zning eng kichik ma'no birligidir.

Masalan: meva- taom;	olma- taom;
-ovqat;	-ovqat;
- umumiy;	- konkret.

Hozirgi kunda tilshunoslikda ma'no komponenti tahlili metodining ikki ko'rinishi mavjud:

1. So'zning lug'aviy ma'nosini tahlil qilish.
2. Ko'p pog'onali tahlil.

Agar so'zning ma'nosi ochiq, aniq (eksplitsit) ifodalangan bo'lsa tahlilning birinchi turidan, agar so'zning ma'nosi yashirin (implitsit) tarzda ifodalangan bo'lsa ko'p pog'onali metoddan foydalangan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Lingvistik tahlil nima?
- Lingvistik tahlil metodlari qanday talablarga javob berishi kerak?
- Qanday lingvistik tahlil metodlarini bilasi?
- Gaplarni qaysi jihatdan tahlil qilish mumkin?
- Tillarning qarindoshligini aniqlash uchun qaysi metoddan foydalanish mumkin?
- Substitutsia metodi qanday vazifani bajaradi?
- Distributiv metodning vazifasi nimadan iborat?
- Transformatsion metod qanday atama va tushunchalarni o'z ichiga oladi?
- Statistik tahlil metodi qaysi soholar uchun ahamiyatli?

-Tilshunoslikning tadqiqot metodlaridan qaysilarini siz amalda qo'llash imkoniyatiga egasiz?

- Yuz, bet, aft, bashara, turq, tarofat, oraz, chehra so'zlarining ma'no jihatdan yaqinlik darajasini aniqlang.

ADABIYOT

M.T.Irisqulov T. 1992. 188-200 sahifalar.

B.N.Golovin M. 1977. 259-280 sahifalar.

YOZUV

MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR

- Yozuv va uning mohiyati.
 - a) yozuv haqida tushuncha
 - b) yozish yoki fikrni yozma ravishda bayon qilish
 - c) yozma nutq
- Yozuvning paydo bo'lishi.
- Yozuv turlari.
- Grafika.
- Orfografiya.
- Orfografiya prinsiplari.
- Jahon tillarida yozuvdan foydalanish.
- O'zbek tili orfografiyasi.
- Yozuvning maxsus turlari.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

YOZUV 1. Kishilar muomala jarayonida foydalanadigan barcha turdagi ko'rish (grafik) belgilari.

2. Harflar yordamida ifodalangan matn.

YOZISH fikrni yozma ravishda bayon qilish.

YOZMA NUTQ 1. Nutq faoliyatining turi: o'qish va yozish jarayoni. 2. Kitobiy nutq.

GRAFIKA *grek.* grafikos- yozilgan, ifodalangan. Harflarning yozilish shakllari, xarf-tovush munosabatlari bilan shug'ullanuvchi soha.

ORFOGRAFIYA *grek.* orthos-to'g'ri, grapho- yozaman. Alifboning yozuvdagi qo'llanish qoidalari, so'zlarning yozilishi va bo'g'in ko'chirish masalalari bilan shug'ullanuvchi soha.

PIKTOGRAFIK yozuv *lot.* piktus-chizilgan, *grek.* grapho- yozaman. Jonli va jonsiz narsalarning surati orqali fikr bayon qilish.

LOGOGRAFIK yozuv sin. Ideografik yozuv, *lot.* logos- soʻz, *grek.* Idea- tushuncha; Grapho- yozaman. Har bir belgi soʻz va tushunchani ifodalovchi yozuv.

IEROGRAFIK yozuv *grek.* hieroglyphoi- muqaddas yozuv. Qadimgi Arabiston va hozirgi Xitoyga hos boʻlgan yozuv.

MIXSIMON yozuv Mixsimon belgilar yordamida fikrni yozma ravishda ifodalash vositasi.

FONOGRAFIK yozuv *lot.* phone-tovush, grapho- yozaman.

TRANSKRIPSIYA *lot.* transkription-koʻchirib yozish. Soʻzlarning talaffuzini yozuvda ifodalash.

TRANSLITERATSIYA *lot.* trans - orqali, litera - harf. Bir tilning belgilarini boshqa til alifbosi orqali ifodalash.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Yozuv insoniyat oʻylab topgan eng buyuk kashfiyotlardan biri hisoblanadi. Yozuv voqea va hodisalarni abadiylashtirish, ular haqidagi maʼlumotlarni saqlash imkonini beradi. U ovoz yordamida muomala qilish imkoniyati yoʻq boʻlgan taqdirda qoʻl keladi. Yozuv uchun vaqt va masofa toʻsiq boʻla olmaydi.

Insoniyat yozuv tufayli oʻz tarixini oʻrganish imkoniyatiga ega. Yozuv tufayli kishilar til evolutsiyasi toʻgʻrisida maʼlumotga egadirlar. Yozuv borligi uchungina biz tilning taraqqiyotini kuzatish, rivojlanishini qayd qilish, ajdodlarimiz tilini oʻrganish, qiyoslash, tilga kirib kelayotgan yangiliklar va ularning sabablarini aniqlash imkoniyatiga egamiz.

Yozuvning paydo boʻlganiga koʻp vaqt boʻlgani yoʻq. Hanuzgacha baʼzi xalqlar oʻz yozuvlariga ega emaslar.

Yozuvning rivojlanish tarixini quyidagi chizma yordamida koʻrsatish mumkin:

VOQELIK NARSA SOʻZ BOʻGʻIN TOVUSH TOVUSH ELEMENTLARI

Insoniyat oʻz hayotida yozuvning bir necha turlaridan foydalangan. Ular quyidagilar:

1. Piktografik yozuv.
2. Ideografik (logografik) yozuv.
3. Boʻgʻinli (sillabik) yozuv.
4. Undosh harflarga asoslangan yozuv.
5. Tovushlarga asoslangan yozuv.

P i k t o g r a f i k yozuv deganda jonli va jonsiz narsalarning suratini chizish tushuniladi. Bu yozuv birliklari piktogrammalardir. Piktogrammalar daraxt poʻstlogʻiga, suyaklarga, metalga, kiyimlarga, toshlarga bitilgan. Yozuvning bu turi mukammal boʻlmay suratlar orasidagi munosabatlarni koʻrsata olmaydi. Shuning uchun ham bir maktubni bir necha xil oʻqish mumkin. Bu yozuv orqali mavjud tushunchalarning barchasini aks ettirish imkoni yoʻq.

Piktografik yozuv rivojlanib **ideografik** (logografik) yozuv paydo bo'ldi. Yozuvning bu turiga ko'ra tildagi har bir so'z o'z simvoliga ega. Agar piktogramma be'vosita predmetni aks ettirgan bo'lsa, logogramma so'z ma'nosini aks ettiruvchi shartli belgidir. Masalan: qadimgi Arablar "100 ming" sonini it baliqning shakli orqali ifodalaganlar. Xitoyliklar esa "yaxshi" so'zini ayol kishi bilan bola orqali ko'rsatganlar.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi quyidagilar:

1. Logografik yozuv fikrni mufassalroq aks ettira oladi.
2. Piktografik yozuvda so'z tartibi, so'z shakllari noaniq bo'lsa, logografik yozuvda bu masalalar butunlay hal qilingan.
3. Piktografik yozuv sub'yektivlikka, ixtiyoriylikka yo'l qo'ysa, logografik yozuv barqaror logogrammalardan tashkil topgan.
4. Logografik yozuv so'zlarning tovush tamoni bilan bog'liq emas. Shuning uchun ham ushbu yozuvdan bir necha tillarda foydalanish mumkin.

Logografik (ideografik) yozuvning ko'p tarqalgan turlari quyidagilar:

- Qadimgi Misr yozuvi;
- Mesopatamiya mixsimon yozuvi (mixxat);
- Hozirgi zamon Xitoy yozuvi (ieroglifik yozuv).

Ieroglifik yozuv logografik yozuvning mukammallashgan shaklidir. Bu yozuvning shartli belgisi sifatida ierogliflar xizmat qiladi. Ieroglif deganda biron ma'noni ifodalovchi tasviriy belgi tushuniladi. Bunday yozuv qadimgi Arabiston va hozirgi Xitoyga xosdir.

Yozuvning yana bir turi **bo'g'inli** yozuv hisoblanadi. Yozuvning bu turini sillabik yozuv deb ham yuritiladi. Sillabil yozuvning shartli belgilari bo'g'in bo'lib, u Hindistonda keng tarqalgan. Sanskrit tili uchun ham sillabik yozuv hizmat qilgan. Bo'ginli yozuvning bir necha turlari mavjud bo'lib ulardan keng tarqalgani **devonagari** dir. Hindi, Maratqi, Nevar, Nepal tillarida bo'g'inli yozuvning ushbu turidan foydalaniladi.

Jahon tillarida keng tarqalgan yozuv turlaridan yana biri **undosh** harflarga asoslangan yozuvdir. Bu yozuvda faqat undosh harflar ifodalanadi. Unli tovushlar esa turli belgilar yordamida undoshning ustiga, ostiga yoki yoniga qo'yish bilan ifodalanadi. Undoshli yozuv asosan semit xalqlari tamonidan foydalanilgan, jumladan: yevrey, finikiy, arab va boshqa tillar ushbu yozuvga asoslangan. Masalan: arab tilida 28 ta undosh bo'lgani holda, faqat 3 ta a, i, u unililari bor.

Undoshli yozuv sillabik yozuvdan harf-tovush yoki fonetik yozuvga o'tish pog'onasi hisoblanadi. Undoshli yozuv nafaqat tejamlil, qulay, o'zlashtirishga oson (albatta oldingi yozuvlarga nisbatan) bo'libgina qolmay, balki deyarli fonetik yozuv hisoblanadi.

Yozuv to'liq fonetik qonuniyat asosida bo'lishi uchun hamma undosh va unililar alohida xarflar bilan ifodalanishi lozim. Bunday yozuvni qadimgi greklar yaratganlar.

Yozuvning zamonaviy turi **t o v u s h** ga asoslangan yozuvdir. Bunday yozuvda belgilar tildagi fonemalarni ifodalaydi. Ularning alifbolari fonetik alifbo deb yuritiladi. Tovushga asoslangan yozuvning turli ko'rinishlari mavjud, jumladan: grek yozuvi, lotin yozuvi, arab yozuvi, slavyan yozuvi va boshqalar.

G r a f i k a - alifbodagi harflarning yozilishi, shakllari, xarf-tovush munosabatlari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari u yozuvning boshqa turlari bilan ham shug'ullanadi, chunki kundalik turmushda yozuvning boshqa turlari ham keng qo'llaniladi, masalan: reklamalar uchun piktografik yozuvdan (sartaroshxona - taroq, tualet-bosh, oshxona-pichoq, qoshiq). Ideografik yozuv namunalariga: undov belgisi-ehtiyot bo'ling, plus-shifoxona, matematik son va belgilar, kimyoviy formulalar va boshqalar misol bo'la oladi.

Piktogramma va ideogrammalarni qo'llash tejamkorlik, qisqalik va aniqlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari ular baynalminal hususiyatga ega.

O r f o g r a f i y a alifboning yozuvdagi qo'llanish qoidalari, so'zlarning yozilishi va bo'g'in ko'chirish masalalari bilan shug'ullanadi. Alifbolarning tuzilishi ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu qonuniyatlar tilshunoslik fanida alifbolarning tuzilish prinsiplari deb yuritiladi. Alifbolar quyidagi prinsiplar asosida tuziladi:

- Fonetik prinsip.
- Tarixiy (an'anaviy) prinsip.
- Morfologik prinsip.
- Simvolik prinsip.

F o n e t i k prinsipga ko'ra talaffuzda qanday tovush eshitilsa, alifboda shunga mos keladigan xarf yoziladi. O'zbek tilidagi *-ga*, *-ka*, *-qa* qo'shimchalari bunga misol bo'la oladi.

T a r i x i y prinsip so'zlarning avvalgi yozilishi o'zgartmay qolishini taqozo qiladi. Hozirgi ingliz va farang tili alifbolari ushbu prinsip asosida tuzilgan.

M o r f o l o g i k prinsipga ko'ra so'zlarning yozilishi grammatik nuqtai nazardan amalga oshiriladi. Bir morfema turli so'zlarda turlicha talaffuz qilinishidan qat'iy nazar bir hil yoziladi. Masalan: rus tilidagi ayrim so'zlarda yumshatish belgisi "Б" undoshni yumshatish uchun emas, balki so'zning qaysi grammatik roldga tegishli ekanligini ifodalash uchun qo'llaniladi: *мышь, фальш, ночь, тушь*.

Nemis tilidagi otlarning bosh xarf bilan yozilishi ham bunga misol bo'la oladi.

S i m v o l i k prinsip yozuvda omonimlarni farqlash uchun qo'llaniladi. Masalan: *rus* tilida *компания-компания, поджёр- поджог, роза- Роза* va boshqalar. Ingliz tilida "tun" va "suvoriy" so'zlari bir hil talaffuz qilinadi, yozuvda esa biri "night", ikkinchisi "knight" tarzida yoziladi.

Nemis tilidagi "viel" va "fiel" so'zlari ham bir xil talaffuz qilinadi.

Jahonda quyidagi yozuv tizimlari asosida tuzilgan alifbolar keng tarqalgan:

1. Lotin yozuvi. Undan dunyo axolisining 30 % foydalanadi.
2. Fonetik arab yozuvi. 10 %
3. Slavyan-krill yozuvi. 10 %
4. Grafik xitoy yozuvi. 25 %

5. Bo'g'inli xind yozuvi. 20 %

6. Yunon, yahudiy, efiopiya, gruzin, arman

va boshqa yozuvlardan dunyo axolisining 5 % foydalanadi. Misr, xitoy, shumer-vavilon, xett yozuvi qadimgi yunon yozuviga asoslangan bo'lib, ular xarftovush yozuvining eng qadimgi turlaridir. Ular qatoriga qadimgi uyg'ur va urxun-yenisey yozuvlari ham kiradi.

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar. Ular yozuvning eng qadimgi shakillari **“SO'G'D”** va **“HORAZMIY”** turlaridan foydalanganlar. Ushbu yozuvlar **“OROMIY”** alifbosi asosida yuzaga kelgan. **“So'g'd”** yozuvining qayta ishlanishi natijasida qadimgi turk **“urhun-yenisey”** yoki **“run“** yozuvi yaratilgan.

Uyg'ur yozuvi be'vosita so'g'd yozuvining davomi hisoblanadi.

VIII asrdan boshlab arab yozuvi O'rta Osiyo mahalliy xalqlarining yozuvini siqib chiqara boshlagan. Natijada arab alifbosidagi 28 ta xarfga yana 4 ta (p, ch, j, g) xarf kiritilib o'zbek tiliga moslab olingan.

O'ZBEK TILI orfografiyasi uzoq tarixga ega. Bu tarix qariyb 25 asrga teng. Qadimgi turkiy yozuv miloddan avvalgi bir ming yillik o'rtalaridan milodiy 10 asrgacha o'tgan 1500 yil davomida saqlanib, sayqal topib, ichki takomil yo'lida rivojlangan. Urhun-yenisey, talas va boshqa yodgorliklar turkiy yozuvning yuksak va aniq fonetik alifboga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

O'zbek tili yozuvi 1929 yilda arab alifbosidan lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko'chirilgan.

1940 yil, 8 mayda o'zbek tili yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan slavyan-krill grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Krill alifbosiga **Ў, Ш, F, □** xarflari qo'shildi.

1993 yilning 2 sentyabrida **“Lotin yozuviga asoslangan 31 xarf va bir tutuq belgidan iborat o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”** qonun qabul qilindi.

Turmushda yozuvning maxsus turlaridan ham keng foydalaniladi. Ularning ko'p tarqalgan turlari: stenografiya, transkripsiya va transliteratsiyadir.

Stenografiyadan tarixiy voqealar, uchrashuvlar, yigilish va majlislarning qaydnomalarini yozib berishda keng foydalaniladi. Yozuvning bu turi og'zaki nutqni yozib olishni bir necha marta osonlashtiradi va tejamkorlikni taminlaydi. U maxsus tayorgarlikni talab qiladi va mutaxassislar tomonidan qo'llaniladi.

Transkripsiya so'zlarning talaffuzini yozuvda ifodalashdir. Undan lug'atlarda, chet tillarni o'rgatish va o'rganishda keng foydalaniladi. Til hodisalarini tahlil va tadqiq qilishda transkripsiyaning roli katta. Chet tili ta'limida Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya tomonidan tavsiya qilingan lotin tili alifbosiga asoslangan transkripsiya belgilaridan foydalaniladi.

Transliteratsiya bir tilning grafik belgilarini ikkinchi til belgilari orqali ifodalashdir. Chet tillarni muomala vositasi sifatida o'rganmoqchi bo'lgan kishilar, Qur'oni Karim suralarini yod olish niyatida bo'lganlar transliteratsiyadan unumli

foydalanishlari mumkin. Transliteratsiya tilni ma'lum tizim asosida o'zlashtirib o'lmasdan turib shu tilda muomala qila olish imkonini beradi.

Jahon xalqlari yozuvlarining yo'nalishlari ham bir-biridan farq qiladi.

1. O'zbeklar, Ruslar, olmonlar, inglizlar va boshqalar chapdan o'ngga qarab yozadilar va o'qiydilar.

2. Arablar o'ngdan chapga qarab yozadilar va o'qiydilar.

3. Yaponlar yuqoridan pastga qarab yozadilar va o'qiydilar.

4. Xitoylar oxiridan oldinga qarab yozadilar va o'qiydilar.

5. Qadimgi greklar xarflarni teskari kilib yozganlar va o'qiganlar.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Yozuvning ahamiyati haqida nimalarni ayta olasiz?
- Yozuv, yozish va yozma nutq atamalarining ma'nolarini tushuntirib bering.
- Yozuvning paydo bo'lishi haqida qanday fikrlar mavjud?
- Yozuvning qanday turlarini bilasiz?
- Yozuv turlarini tavsiflab bering.
- Grafika nima bilan shug'ullanadi?
- Orfografiya nima?
- Orfografiyaning qanday prinsiplari mavjud?
- Jahon xalqlari qaysi yozuvlardan foydalanadilar?
- O'zbek tili orfografiyasi haqida nimalarni bilasiz?
- Yozuvning maxsus turlari haqida nimalarni bilasiz?
- Yozuvning qanday yo'nalishlari mavjud?

A D A B I Y O T

M.T.Irisqulov T. 1992. 217-229 sahifalar.

G.A.Nechayev Kratkiy lingvisticheskiy slovar. Rostov 1976.

B.N.Golovin M. 1977. 231-250 sahifalar.

A.A.Reformatskiy M. 1967. 348-381 sahifalar.

TILNING ICHKI QURILISHI MARUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR

- Tilning ichki qurilishi haqida tushuncha;
- Til qatlamlari:
 - Fonetik qatlam,
 - Leksik qatlam.
 - Grammatik qatlam.
- Fonetika va uning asosiy masalalari;

- Fonologiya va uning asosiy masalalari;
- Leksikologiya va uning asosiy masalalari;
- Grammatika va uning asosiy masalalari;

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Tilshunoslik fanining asosiy masalalaridan biri tilning ichki qurilishini, uning ichki mexanizmlarining ishlash qonuniyatlarini mavjud. Bunga shu tilning tovushlar tizimi, lug'at sostavi, grammatik qurilishi kiradi. Ular sistemaning qatlamlarini tashkil qiladi.

Til sistemasini tashkil etgan asosiy qatlamlari quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik qatlam.
2. Leksik qatlam.
3. Grammatik qatlam.

F o n e t i k - fonologik qatlam tilning tovushlar tizimi - nutq tovushlaridan tashkil topadi. Ulardan tashqari fonetik bo'gin, urg'u, pauza' ohang, melodiya, intonatsiya, temp, ovoz kuchi, ovoz balandligi kabi tushunchalar ham ushbu qatlamning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Nutq tovushlarini turli nuqtai nazardan tadqiq qilish mumkin. Nutq tovushlari ham tabiatda hosil bo'ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun ham ularni fizikaning **a k u s t i k a** deb nomlanuvchi bo'limi o'rganadi. Nutq tovushlari kishilar nerv sistemasini tomonidan boshqarilib turuvchi nutq organlari faoliyatining maxsulidir. Shuning uchun nutq tovushlari **f i z i o l o g i k** nazardan ham o'rganiladi. Nihoyat nutq tovushlari til tizimida bajaradigan funksiyasi jihatdan ham o'rganiladi. Tovushlarning akustik (fizik) va fiziologik (biologik) hususiyatlarini **FONETIKA** fani o'rganadi. Tovushning til tizimida muomala jarayonida bajaradigan funksiyalarini esa **FONOLOGIYA** o'rganadi.

Fonetikaning quyidagi sohalari mavjud:

1. Fiziologik fonetika.
2. Akustik fonetika.
3. Auditiv fonetika.
4. Lingvistik fonetika.

F i z i o l o g i k fonetika quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- Nafas olish va uning turlari.
- Nutq apparati va uning qurilishi.
- Nutq organlarining vazifalari.
- Tovushning hosil bo'lishi.
- Tovush artikulyatsiyasi.
- Fonetik baza.
- Artikulyatsion baza.

- Ritmik baza.
- Tovushlarning fiziologik xususiyatlari.
- Nutqning supra-segment elementlari (bo'g'in, urg'u, ohang, pauza, temp...).
- Supra-segment elementlarining fiziologik xususiyatlari.

Akustik fonetika quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- Akustika haqida tushuncha.
- Akustikaning fonetika bilan bog'liqligi.
- Ton va shovqin haqida tushuncha.
- Asosiy va oberton tushunchalari.
- Ovoz kuchi (Amplituda= tebranish uzunligi).
- Ovoz balandligi (Gerts= tebranishlar soni).
- Ovoz jarangi (Tembr).
- Ovoz davomiyligi (Tebranishlar vaqti).
- Rezonans, rezonator.
- Tovushlarning akustik xususiyatlari.

Auditiv fonetikaning asosiy masalalari quyidagilar:

- Tovushni idrok qilish.
- Nutqni idrok qilish qobiliyati.
 - fonetik
 - fonematik } qobiliyat.
 - intonatsion
- U nllarni idrok qilish.
- Undoshlarni idrok qilish.
- Supra- segment elementlarini idrok qilish.
- Tovush manbalarining tovush idrokiga ta'siri.
- Idrok shart- sharoitlarining tovush idrokiga ta'siri.
- Tovushlarning auditiv xususiyatlari.

Lingvistik fonetikaning asosiy masalalari:

- Fonema haqida tushuncha.
- Fonema variantlari.
- Fonemalarning ma'no ajratuvchi (fonologik, fonematik, differensial) xususiyatlari.
- Fonemalarning ma'no ajratmaydigan (fonetik) xususiyatlari.
- Fonologik oppozitsiya haqida tushuncha.
- Fonologik oppozitsiya turlari.
- Fonemalarning pozitsiyalari.

Tilning lug'at qatlami tilda mavjud bo'lgan so'zlarning yig'indisidan iborat. U fonetik-fonologik va grammatik qatlamlardan o'zgarib turishi bilan farq qiladi. Lug'at qatlamining asosiy birligi so'zdir. So'z yordamida predmet va tushunchalar ataladi, voqea-hodisalar ifodalanadi. Tilning lug'at qatlamini leksikologiya tadqiq

qiladi. Leksikologiya soʻz haqidagi fandır. Leksikologiya quyidagi masalalar bilan shugʻullanadi:

- Soʻz, soʻzning mohiyati va taʼrifi;
- Soʻz va predmet; Soʻz va tushuncha;
- Lugʻat tarkibining oʻzgarishi;
- Soʻzlarning bir- biriga munosabati;
- Lugʻat sostavining qatlamlari;
- Soʻz tiplari; Soʻz va maʼno;
- Koʻpmaʼnolilik: Metonimiya, metafora, snekdoxa
- Omonim, sinonim, antonim soʻzlar;
- Soʻz etimologiyasi;
- Atamashunoslik (terminologiya);
- Frazologiya; Tilning lugʻat boyligi;
- Leksikografiya; Lugʻat haqida tushuncha;
- Lugat turlari; Lugʻat tuzish masalalari.

Tilning grammatik qatlami soʻzlarning grammatik shakli, soʻz birikmalari va gaplardan tashkil topgan. Eng kichik grammatik birlik morfemadir. Morfemalardan soʻzlar, soʻzlardan soʻz birikmalari, soʻz birikmalaridan gaplar tuziladi. Tilning grammatik tuzilishini morfologiya va sintaksis tadqiq qiladi.

Morfologiya (morphe- shakl, forma, logos- bilim, ilm) soʻz qurilishi, soʻz oʻzgarishi va soʻz yasalishi qoidalari va qonuniyatlari, soʻzlarni turkumlarga ajratish haqidagi fandır. Morfologiyaning asosiy tushunchalari- morfema, grammatik maʼno, grammatik forma, grammatik kategoriya, grammatik maʼnoni ifodalash usullari va boshqalardir.

Sintaksis (sintaxis- tuzish, qurish) nutqning grammatik qurilishini oʻrganadi. Sintaksisda gap asosiy birlik hisoblanadi. Sintaksis gap, gapning maʼnosi, gap turlari, soʻz birikmalari, soʻz birikmalarining turlari, soʻz birikmalarining maʼnosi, soʻz birikmalarining tuzilishini tadqiq qiladi.

Grammatikaning asosiy masalalari quyidagilar:

- Grammatika tushunchasi va uning mohiyati;
- Grammatika va uning qismlari:
 - a) morfologiya
 - b) sintaksis
- Grammatik shakl va soʻz;
- Soʻz turkumlari: 1. Mustaqil soʻz turkumlari:
 - ot, sifat, son, feʼl, ravish, olmosh;

2. Yordamchi soʻz turkumlari:

artikl, predlog, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, undov soʻzlar, taqlid soʻzlar.

- Grammatik kategoriyalar: jins, son, kelishik, zamon, daraja, mayl... .
- Gap sintaksisning tadqiqot obʼyektidir.
- Gap boʻlaklari: 1. Bosh boʻlaklar: ega va kesim.
- 2. Ikkinchi darajali boʻlaklar: toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol.

- Gap turlari: darak, so'roq, undov gap.
- Tuzilishiga ko'ra: sodda gap, qo'shma gap.
- So'z tartibi.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Tilning ichki qurilishi deganda nimani tushunasiz?
- Fonetika nima bilan shug'ullanadi?
- Fonetikaning qanday sohaları mavjud?
- Fonologiya nima bilan shug'ullanadi?
- Leksikologiyaning asosiy masalalarini ayting.
- Grammatika qanday masalalar bilan shugullanadi?
- Morfologiyaning asosiy masalalarini ayting.
- Sintaksisning asosiy masalalarini ayting.

ADABIYOT

- | | |
|------------------|----------------------------|
| M.T.Irisqulov | T. 1992. 22-118 sahifalar. |
| O.Azizov | T. 1996. 13-125 sahifalar. |
| B.N. Golovin | M. 1977. 30-215 sahifalar. |
| A.A.Reformatskiy | M.1967. 54-346 sahifalar. |

FONETIKA

MA'RUZA BO'YICH ASOSIY MASALALAR

- Fonetika nima?
- Fiziologik fonetika.
- Akustik fonetika.
- Unlilar klassifikatsiyasi.
- Fonologiya yoki fonematika.
- Nutq tovushlari.
- Undoshlar klassifikatsiyasi.
- Nutqning fonetik jihatdan bo'linishi.
- Nutq tovushlarining o'zgarishi.
- Nutqning supra-segment elementlari.

MARUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

FONETIKA *ing.* phonetics, *nem.* Phonetik, Lautlehre. 1. Tilshunoslikning tilning tovush sostavini o'rganuvchi bo'limi. 2. Tilning tovush sostavi.

FONOLOGIYA *ing.* phonology, *nem.* Phonologie, *rus.* Fonologiya, fonematika, fonemika, fonemologiya. 1. Fonetikaning fonemalar tizimi va ularning o'zgarishini o'rganuvchi bo'limi. 2. Tildagi fonemalar sistemasi.

AKUSTIKA *ing.* akoustics, *nem.* Akustik. 1. Fizikaning tovushlar haqidagi bo'limi. 2. Biror binoda tovushlarning eshitisilish sharoiti va xususiyatlari, tovushlarning yaxshi eshitisilishi yoki eshitisilmasligi.

FIZIOLOGIYA *ing.* fizioology, *nem.* Physiologie. 1. Tirik organizmda yuz berib turadigan jarayonlar hamda uning hayotiy funksiyalari haqidagi fan. 2. Organizmning funksiyalari, xizmati va ularni idora qiluvchi qonuniyatlar.

NUTQ ORGANI *nem.* Sprechorgane, *rus.* organi rechi. Nutq tovushlarini talaffuz qilishda ishtirok etadigan a'zolar.

NUTQ APPARATI *nem.* Sprechapparat, *rus.* recheviy apparat. Sin. Nutq apparati.

ARTIKULYATSIYA *ing.* articulation, *nem.* Artikulation, *rus.* artikulyatsia. Nutq organlarining biror tovushni talaffuz qilishdagi harakati va holati.

NUTQ TOVUSHLARI KLASSIFIKATSIYASI *ing.* classification, *nem.* Klassifikatsion der Sprechlaute, *rus.* klassifikatsiya rechevix zvukov. Nutq tovushlarini belgi va xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratish.

UNDOSH TOVUSH *ing.* consonant, *nem.* Konsonant, *rus.* soglasniy. Og'iz bo'shlig'ida turli to'siqqa uchrab, shovqin bilan hosil bo'ladigan tovush.

UNLI TOVUSH *ing.* vowel, *nem.* Vokal, *rus.* glasniy. Un (ton) dan tarkib topgan tovush. Og'iz bo'shligida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan tovush.

AFFRIKAT *ing.* affricate, *nem.* Affrikata, *rus.* affrikata (polusmichniy, smichno-shelevoy, smichno-frikativniy soglasniy). Ikki turdosh tovushning qo'shilishidan hosil bo'lgan undosh.

DIFTONG *ing.* diphthong, *nem.* Diphthong, *rus.* dvuglasniy, slojniy glasniy. Ikki unlining qo'shilishidan hosil bo'lgan unli tovush.

URG'U *ing.* stress, accent, *nem.* Betonung, Akzent, *rus.* udareniye, aktsent. So'z tarkibidagi tovushlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi.

REDUKTSIYA *ing.* reduction, *nem.* Reduktion, *rus.* reduktsiya. Tovushning nutq jarayonida miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi; tovushning nutqdagi qorishuvi.

AKKOMODATSIYA *ing.* accommodation, *nem.* Anpassung, Anahnlichung, *rus.* adaptatsiya foneticheskaya. Ikki tur tovushlar - unli va undoshlarning artikulyatsion jihatdan bir-biriga qisman o'xshab ketishi.

ASSIMILYATSIYA *ing.* assimilation, *nem.* Assimilation, Angleichung, *rus.* upodobleniye. Bir turdagi tovushlarning-undoshlarning bir-biriga o'xshab ketishi.

DISSIMILYATSIYA *ing.* dissimilation, *nem.* Dissimilation, Entahnlichung. Ikki bir xil yoki bir-biriga o'xshash bo'lgan tovushlardan birining boshqa tovushga o'zgarib ketishi. Masalan: fevral - fevral.

FONEMA *ing.* phoneme, *nem.* Phonem. So'z va morfemalarni farqlash uchun xizmat qiladigan tovush tipi.

FONEMA VARIANTI *ing.* phoneme variant, *nem.* Variante eines Phonems. Bir fonemaning boshqa ko'rinishi. So'z ma'nosini o'zgartirmaydi. Masalan: [R] [r] .

SINGORMONIZM *ing.* vowel harmony, vocalic harmony, *nem.* Vokalharmonie, Harmonisierung, assimilatorische Umfarbung, *rus.* garmoniya glasnix. Affiksardagi unilarning o'zakkagi unilar bilan moslashuvi, ohangdoshligi, o'xshab ketishi.

KOMBINATOR O'ZGARISHLAR *ing.* combinative change, *nem.* kombinatorische Veränderungen. Tovushlarning kombinatsiyasi (qaysi tovush bilan yonma-yon kelishiga) ko'ra o'zgarishi.

POZITSION O'ZGARISHLAR *ing.* positional change, *nem.* positionelle Veränderungen. Tovushlarning joylashuviga ko'ra o'zgarishi: Anlaut, Inlaut, Auslaut.

METATEZA Tovushlarning so'z ichida o'rin almashuvi. Masalan: daryo-dayro, yomg'ir-yog'mir, ahvol-avhol, tuproq-turpoq, to'g'ramoq-to'rg'amoq.

PROTEZA So'z boshida bitta unlining orttirilishi. Stol-istol, stul-istul, Stambul-Istambul.

EPENTEZA Ikki undosh orasiga unli qo'shish. Fikr-fikir, hukm-hukum, nutq-nutiq, matn-matin, ilm-ilim.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Fonetika grekcha "phone" so'zidan kelib chiqqan. Tilshunoslikda tilning tovushlar tizimi haqidagi fan FONETIKA deb yuritiladi.

Nutq tovushlari inson a'zolarining harakati natijasida vujudga keladi, yani o'pkadan chiqayotgan havo tovush paychalarini tebratib, bo'g'iz, og'iz yoki burun bo'shlig'ida turli shaklga kiradi, havoda to'lqin hosil qiladi. Agar ushbu to'lqin qulog'imizga yetib borsa biz uni nutq tovushi sifatida eshitamiz.

Tovushlarning nutq organlari vositasida hosil qilinishi masalasi bilan FISILOGIYA shug'ullanadi. Nutq organlarining faoliyati natijasida hosil bo'lgan to'lqinlarning xususiyatlari masalasi bilan fizika fanining tarmog'i AKUSTIKA shug'ullanadi. Hosil bo'lgan tovushlar lingvistik ma'noga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Tovushning ma'no ajratish funksiyasini tilshunoslikning tarmog'i bo'lgan FONOLOGIYA o'rganadi.

FONETIKA

Fiziologik fonetika Akustik fonetika Fonologiya

F i z i o l o g i k fonetika tovushning paydo bo'lishidagi fiziologik asoslar, nutq apparati, aktiv va passiv organlar, artikulyatsiya, artikulyatsiya bazasi, tovushlarni talaffuz organlarining ishtirokiga ko'ra klassifikatsiya qilish masalalari bilan shug'ullanadi.

A k u s t i k (Akustikos-eshitish) fonetika tovush paydo bo'lishining fizik asoslari, tovushning fizik hususiyati, tovushning balandligi (tebranishlar soni), tovushning kuchi (tebranishlar kuchi), davomiyligi (tebranishlar vaqti), tovush tembr (fr.: tembre-qo'ng'iroq), rezonans (fr.: resonanse-aks-sado) rezonator, ton, oberton, formant (lot. formantis-tashkil qiluvchi) kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

F o n o l o g i y a n i n g asosiy masalalari deganda: fonema nima? tillardagi fonemalar soni, fonologik oppozitsiya, fonemalarning ma'no ajratuvchi xususiyatlari, fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari va boshqalar nazarda tutiladi.

Nutq tovushlari ikki guruhga bo'linadi:

a) unililar,

b) undoshlar.

Unli tovushlar hosil bo'lish usuliga ko'ra o'pkadan chiqayotgan havoning hech qanday to'siqqa uchramasdan bo'g'iz, og'iz yoki burun bo'shlig'ida modifikatsiya bo'lishi bilan hosil bo'lish jihati bilan undoshlardan ajralib turadi. Unlilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Og'izning ochilishiga ko'ra: keng, o'rta, tor unililar.
2. Hosil bo'lish o'miga ko'ra: old qator, o'rta qator, orqa qator unililar.
3. Tilning ko'tarilishiga ko'ra: quyi ko'tarilish, o'rta ko'tarilish, yuqori ko'tarilish unililari.
4. Lablarning ishtirokiga ko'ra: lablangan, lablanmagan.
5. Artikulyatsiyaning davomiyligiga ko'ra: cho'ziq, yarim cho'ziq, qisqa unililar.
6. Artikulyatsiyaning turg'unligi (bir holatdan ikkinchisiga) o'tishiga ko'ra: monof-
tong, diftong.

UNDOSHLAR quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

I. Hosil bo'lish o'miga ko'ra:

- 1) lab tovushlari: lab-lab, lab-tish tovushlari.
- 2) til oldi tovushlari: tish-tish, tish, tanglay.
- 3) til o'rta tovushlari.
- 4) til orqa tovushlari: o'rta tanglay, orqa tanglay, chuqur tanglay tovushlari.
- 5) kichik til tovushlari.
- 6) bo'g'iz tovushlari.

II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

- | | |
|------------------------|----------------------|
| 1. sirg'aluvchi | 2. portlovchi |
| 3. affrikat (qorishiq) | 4. burun tovushlari |
| 5. yon tovushlar | 6. titroq tovushlar. |

III. Ovozning ishtirokiga ko'ra: jarangli, jarangsiz.

Artikulyatsion klassifikatsiya hayotning quyidagi sohalarida muhim ahamiyatga ega:

1. Kar-saqovlarni nutqni labdan o'qishga o'rgatishga.
2. Filmlarni dublyaj qilishda.
3. Sheriyatda qofiya keltirishda.
4. Til o'rgatishda.
5. Be'morlarning dardini aniqlashda.
6. Logoped faoliyatida.

Tovushlar akustik jihatdan ham klassifikatsiya qilinadi. Akustik klassifikatsiya nutq tovushlarining belgilarini harakterlaydi. Bunday klassifikatsiyaning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Akustik klassifikatsiya tovushni be'vosita harakterlaydi, uning paydo bo'lishi haqida ma'lumot bermaydi.
2. Tovushga juft holatda baho beriladi, harakteristika " ha" yoki "yo'q" javobi bilan belgilanadi.
3. Bu harakteristika faqat mashina yordamida berilmasdan, balki kishilar ham tovushlarning akustik hususiyatlarini aniqlashlari mumkin.
4. Akustik klassifikatsiya artikulyatsion klassifikatsiya bilan oson kelishadi, mos tushadi.
5. Akustik klassifikatsiya unli va undosh o'rtasidagi "devor" ni olib tashlaydi.
6. Akustik klassifikatsiya fonema nazariyasi masalalarini hal qilishga aniqlik kiritadi.

Tilshunoslikda fonema nazariyasi masalasi bilan fonologiya, fonematika yoki funksional fonetika shug'ullanadi. Tilda mavjud bo'lgan tovushlar bir-biriga o'xshashligiga qarab guruhlariga birlashtiriladi. Bunday til tovushlari so'zlarni bir-biridan farqlash yoki bir-biriga o'xshatish uchun xizmat qiladi. Agar ikki xil tovush ikki so'z yoki morfemani bir-biridan ajratish, farqlash va bir-biridga o'xshatish uchun xizmat qilsa bunday til tovushlari ikki bir-biridan farq qiluvchi fonemalardir.

Nutq fonetik jihatdan frazaga, fraza sintagmaga, sintagma ritmik guruhga, ritmik guruhlar esa bo'g'inlarga, bo'g'inlar esa tovushlarga bo'linadi. Fraza- jumla eng katta fonetik birlik hisoblanadi. Nutqda frazalar bir-biridan pauzalar bilan ajratiladi. Har bir fraza ma'lum ohang bilan talaffuz qilinadi.

Intonatsiya murakkab prosodik hodisa bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat.

- nutq ohangi-ovozning pasayishi va ko'tarilishi- melaliya.
 - kuchli va kuchsiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning o'zaro almashinuvi- ritm.
 - fraza- jumla urg'usi.
 - nutq tezligi (salmoqlab yoki shoshib gapirish).
 - nutq kuchi (kuchli yoki kuchsiz nafas chiqarish, kuchli yoki kuchsiz talaffuz qilish).
 - nutqning uzilishi - pauza:
- lingvistik, psixologik, biologik pauza.
- nutq tembri (quvnoq, xafa, tashvishli, be'g'amlik, vaximali ... gapirish).

Ritmik guruh jumlaning bir qismi bo'lib, so'zlarning bir urg'u atrofida birlashgan qismidir. Ritmik guruhning ikki turi mavjud: a) proklitika b) entklitika.

Bo'gin bir yoki bir necha tovushdan tashkil topgan, bir nafas bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo'gin ochiq, yopiq va shartli yopiq bo'lishi mumkin.

Nutq jarayonida tovushlar qatorida turli o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlarga: assilyatsiya, akkomodatsiya, reduksiya va boshqalar kiradi. Assilyatsiya bir turdagi tovushlarning, undoshlarning bir-biriga o'xshab ketishidir. Masalan: fragt, zagt; kepti, o'tti, yozipti; Akkomodatsiya ikki tur tovushlar o'rtasidagi o'xshab ketishlikdir, yani unli va undoshlarning bir-biriga moslashuvidir. Masalan: tut, Kind, Kunde, kennen. Reduksiya tovushlarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishidir. Masalan: bes uchen, lesen, gegangen; borib, kelib, olib, o'qib, uqib, bilan.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Fonetika nimani o'rganadi?
- Fonetikaning qaysi sohaları mavjud?
- Nutq tovushlari haqida nimalarni bilasiz?
- Unlilar qanday klassifikatsiya qilinadi?
- Undoshlar qanday klassifikatsiya qilinadi?
- Artikulyatsion klassifikatsiya hayotning qaysi sohalarida zarur?
- Akustik klassifikatsiya qanday xususiyatlarga ega?
- Fonema nima?
- Nutq qanday fonetik birliklarga bo'linadi?
- Sh. Karimovning "Praktikum" idagi savollarga javob bering: 6-11 sahifalar.
- "Praktikum" ning 6-11 sahifalaridagi mashqlarni bajaring.

ADABIYOT

- | | |
|------------------|--------------------------------------|
| M.T.Irisqulov | T. 1992. 22-42 sahifalar. |
| O.Azizov | T. 1996. 14-37 sahifalar. |
| A.A.Reformatskiy | M.1967. 153-242 sahifalar. |
| B.N.Golovin | M. 1977. 30-68 sahifalar. |
| O.S.Axmanova | M. 1966. |
| Sh. Karimov | "Praktikum" T. 1987. 6-11 sahifalar. |

GRAMMATIKA

MA'RUZA BO'YICHA ASOSIY MASALALAR:

- Grammatika haqida tushuncha.
- Grammatikaning tarmoqlari.
- grammatik kategoriyalar: kelishik, son, rod, zamon, mayl, shaxs va boshqalar.
- Grammatik ma'no haqida tushuncha.
- grammatik ma'noning ifoda vositalari: affikslar, yordamchi so'slar, so'z tartibi, intonatsiya, urg'u, takror, tovush almashinuvi, sintaktik bog'lanish.

MA'RUZADAGI ASOSIY LINGVISTIK ATAMALAR IZOHI

GRAMMATIKA *ing.* grammar, *nem.* Grammatik

1. Tilshunoslik bo'limlaridan biri, tilning grammatik qurilishi haqidagi fan.
2. Tilning grammatik qurilishi.

GRAMMATIK MA'NO *ing.* grammar meaning (significance), *nem.* grammatische Bedeutung, *rus.* грамматическое значение. Grammatik hodisa anglatgan ma'no. Qiyos: leksik ma'no.

GRAMMATIK SHAKL (forma) *ing.* Grammar form, *nem.* grammatische Form, *rus.* грамматическая форма. Grammatik hodisaning tashqi ko'rinishi, ifoda vositalari.

GRAMMATIK KATEGORIYA *ing.* grammatical category. *nem.* grammatische Kategorie, *rus.* грамматическая категория.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Grammatika - yunoncha harf yozish san'ati ma'nosini ifodalaydi. Grammatika tilshunoslikning bo'limlaridan biridir. U tildagi so'zlarning shakllari va gap turlari bilan shug'ullanadi. U so'z birikmalari va gap bo'laklarini turlanish va tuslanish (paradigmatika) nuqtai nazardan tadqiq qiladi, so'zlar orasidagi leksik-semantik aloqalarni tekshiradi. Grammatika so'z turkumlari va gaplarning tuzulishini o'rganadi. Grammatikaning ko'pgina tarmoqlari mavjud:

1. **Tashqi** grammatika - so'z turkumlarining gapdagi vazifalarini o'rganadi.
2. **Ichki** grammatika - so'zlarning morfologik va ritmo-melodik jihatdan tuzilishini tekshiradi.
3. **Deskriptiv** (izohli) grammatika. Izohlash metodi asosida so'z, so'z birikmalari va gaplarning qat'iy sinxronik izohini o'rganadi.
4. **Tarixiy** grammatika tilning turli davrdagi tarixiy taraqqiyot yollarini chog'ishtirgan holda so'zlar va so'z birikmalari va gaplarning nutq birligi sifatida tekshiradi.
5. **Qiyosiy** grammatika kelib chiqishi bir bo'lgan yoki bir bo'lmagan turli tillarning grammatik qurilishini qiyoslash asosida tadqiq qiladi.
6. **Qiyosiy-tarixiy** grammatika til hodisalarining tarixiy rivojlanish bosqichlarini qiyosiy jihatdan o'rganadi.
7. **Akademik** grammatika ma'lum davrning (mamlakatning) asosiy ilmiy tashkiloti tomonidan ma'qullangan normativ grammatikasidir.
8. **Normativ** grammatika til hodisalariga oid qoidalarga ma'lum norma belgilaydi, ya'ni to'g'ri va na'munali so'z shakllari va sintaktik qurilma modellarini tavsiya etadi.

Grammatika o'z **kategoriya** lariga ega. Grammatik kategoriya deganda maxsus ko'rsatkichlar yordamida so'zlarning o'zgarishi, birikishi va gap tuzish qoidalariga asoslangan umumgrammatik tushuncha anglashiladi. Grammatik kategoriyalar: a) morfologik va b) sintaktik kategoriyalarga bo'linadi.

GRAMMATIK KATEGORIYALAR

Morfologik kategoriyalar

Sintaktik

			kategoroyalar
ot	fe'l	olmosh	gap
kelishik	zamon	kishilik	
son	mayil	egalik	
rod	shahs	ko'rsatish	
		so'rog'	
		nisbiy	

Grammatik kategoriyalarning **SONI** turli tillarda turlichadir. Dunyodagi har bir til inson tafakkuri yaratgan hamma tushunchlarni ifodalashga qodirdir.

Grammatik **kelishik** kategoriyasi narsa, hodisa va ularning sifatleri o'rtasidagi munosabatni belgilaydi. Kelishiklar ishga tushishi uchun kamida ikki so'z munosabatga kirishishi kerak. Kelishiklar soni tillarda bir xil emas. Masalan: ingliz tilida - ikkita, olmon tilida -to'rtta, o'zbek, turk, rus tillarida - oltitadan kelishik mavjud, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmatadan ortiq kelishik bor. Xitoy-tibet tillarida va farang tilida kelishik umuman yo'q. Bunday tillarda so'zlar o'rtasidagi munosabat boshqa grammatik vositalar bilan amalga oshiriladi.

Grammatik **son** kategoriyasi predmetlarning sonini, birlik yoki ko'pligini ko'rsatadi. Son kategoriyasi faqat otga hos bo'lmay, balki sifat,olmosh va fe'llarda ham ifodalanishi mumkin. Barcha tillarda birlik va ko'plik farqlanadi. Ayrim tillarda ikkilik soni ham mavjud, masalan: arab tilida. Son kategoriyasining ifodalanish usuli tillarda bir xil emas. Masalan: ko'plik o'zbek tilida "lar"qo'shimchasi orqali, ingliz tilida "s" suffiksi bilan, olmon tilida artikl+umlaut+qo'shimcha vositasida ifodalanadi.

Grammatik **rod** kategoriyasi tildagi ot turkumiga kiruvchi so'zlarni turga ajratish uchun xizmat qiladi. Grammatik rod kategoriyasi barcha tillarga hos emas. U ko'pchilik xind-evropo tillariga, jumladan, rus, olmon, farang va semit-hamit tillariga hosdir. Grammatik rod kategoriyasi biologik rod kategoriyasiga mos tushmasligi mumkin. Grammatik rod ko'pchilik tillarda uchga bo'linadi. Masalan: Maskulinum, Neutrum, Femininum. Farang tilida neutrum mavjud emas. Ingliz tilida esa umuman rod kategoriyasi yo'q.

Rod kategoriyasi mavjud tillarning o'ziga hos jins ko'rsatkichlari bor.

Bir so'zning o'zi turli tillarda turli grammatik rodga mansub bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida grammatik rod kategoriyasi yo'q. Lozim bo'lganda bu ma'no leksik-semantik, morfologik va sintaktik usullar bilan ifoda etiladi.

a). Leksik-semantik usul:

o'g'il-qiz, ota-ona, tog'a-xola, erkak-ayol, amma-xola va boshqalar.

b). Morfologik usul:

Karim-Karima, Nodir-Nodira, Salim-Salima, Komil-Komila, Shoir-Shoira,

muallim-muallima.

c). Sintaktik usul:

Erkak mushuk-Urg'ochi mushuk.

Z a m o n fe'lga xos bo'lgan kategoriyadir. Bu kategoriya ish-harakatning nutq sodir bo'lishi paytiga nisbatan amalga oshishini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan bu kategoriya: gapirilayotgan paytda, gapirilayotgan paytdan oldin, gapirilayotgan paytdan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: hozirgi zamon-prezentum; o'tgan zamon-preteritum; yaqin o'tgan zamon- perfektum; uzoq o'tgan zamon- plusquamperfektum; kelasi zamon- futurum; davomli maqsad fe'li.

M a y I fe'lga xos kategoriya bo'lib, gapiruvchining ish-harakatga bo'lgan munosabatini anglatadi. Ish-harakatni real yoki hohishga ko'ra, imkoni borligini, majburiyligini va boshqalarni ifodalaydi. Turli tillarda mayl kategoriyasining turli formalari mavjud, masalan: rus va o'zbek tillarida mayl kategoriyasining uchta shakli bor, jumladan: aniqlik, buyruq, shart mayli.

Sh a x s kategoriyasi ish- harakatning gapiruvchi shaxsiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ish-harakat sub'yekti gapiruvchining o'zi (birinchi shaxs), uning suhbatdoshi (ikkinchi shaxs) yoki suhbatda ishtirok etayotgan shaxs (predmet) (uchunchi shaxs bo'lishi mumkin).

Grammatik ma'no. Tilda leksik va grammatik ma'no tushunchalari farqlanadi. Leksik ma'no narsa, hodisa yoki voqelikga aloqador yakka ma'no hisoblanadi. U bir so'z bilan bogliq bo'ladi. Grammatik ma'no esa bir yoki bir necha so'z turkumiga hos bo'ladi. Masalan: kitob, talaba, shoira, she'r so'zlarining leksik ma'nolari har xil lekin ularning grammatik ma'nolari bir xil, ya'ni: ot, birlik bosh kelishikda. Grammatik ma'no turli affikslar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi, intonatsiya, urg'u, takror (lot. *re-duplicare*), tovush almashinish sintaktik bog'lanish va boshqa vositalar yordamida ifodalanadi. Ushbu vositalarning qo'llanishi turli tillarda bir-biridan farq qiladi. Masalan: rus, ingliz, farang, turk, o'zbek tillarida grammatik ma'no anglatuvchi vosita sifatida asosan affikslar xizmat qiladi.

Ko'pchilik xind- ovrupeo tillarida yordamchi so'zlar(predlog, bog'lovchi, artikl) grammatik ma'no ifodalovchi asosiy vosita sanaladi. So'z tartibi ingliz va olmon tillarida turg'un bo'lib, grammatik ma'noga jiddiy ta'sir qiladi. V'etnam, Annam, Xitoy tillari uchun va Alyaska xindularining tillari uchun jumla intonatsiyasi emas, balki so'z intonatsiyasi grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ayrim tillar uchun so'z urg'usi grammatik ma'nonigina emas, leksik ma'noni ham o'zgartiruvchi vosita hisoblanadi. Ayrim tillarda takror orqali ham so'z ma'nosi o'zgartiriladi, masalan: dumal-dumal i reshil.

Ingliz, Arab, Qadimgi Yevrey, Shimoliy Amerika va Afrika xindularining tillari uchun tovushlarning almashinuvi katta ahamiyatga ega, masalan: ktb: kitob, kotib, kutub, ketib.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Grammatika atamasining ma'nosini izohlang.
- Grammatika qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
- Grammatikaning tarmoqlari haqida nimalarni bilasiz?

- Qanday grammatik kategoriyalar mavjud?
- Qaysi grammatik kategoriyalar ma'ruza matnidan tushib qolgan?
- Grammatik ma'no deganda nimani tushunasiz?
- Leksik ma'no grammatik ma'nodan qaysi jihati bilan farq qiladi?
- Grammatik ma'noni ifodalashning qaysi vositalari mavjud?
- Affikslar qaysi tillarga xos?
- Yordamchi so'zlar ko'proq qaysi tillarda uchraydi?
- So'z intonatsiyasi qaysi tillar uchun muhim?
- Urg'u so'z ma'nosini o'zgartirishi mumkinmi?
- Takror o'zbek tiliga hos hodisami?
- Tovush almashinuvi qaysi tillarda ko'proq uchraydi?

A D A B I Y O T

- | | | |
|-----------------------------|--|---------------------------|
| M.T.Irisqulov | T.1992. 53-64 sahifalar. | |
| O.Azizov | | T.1996. 89-125 sahifalar. |
| B.N.Golovin | M.1977. 133-186 sahifalar. | |
| A.A.Reformatskiy | M.1967. 243-346 sahifalar. | |
| G.A.Nechayev | Kratkiy lingvisticheskiy slovar. Rostov 1976. | |
| D.E.Rozental, M.A.Telenkova | Spravochnik lingvisticheskix terminov M. 1972. | |

L E K S I K O L O G I Y A

M A ' R U Z A B O ' Y I C H A A S O S I Y M A S A L A L A R

- Leksikologiya va uning tarmoqlari.
- So'z va tushuncha.
- Leksik ma'no va uning turlari.
- leksik ma'noning kengayishi va torayishi.
- Sinonimlar; - Omonimlar; - Antonimlar.
- Neologizm.
- So'z yasash.
- Leksikografiya.
- Lug'at va uning turlari.
- Izohli, tarjima, imlo, maxsus, etimologik lug'atlar.

M A ' R U Z A D A G I A S O S I Y L I N G V I S T I K A T A M A L A R I Z O H I

LEKSIKOLOGIYA *ing.* lexicology, *nem.* Lexikologie. Tilshunoslikning tilning lug'at sostavini o'rganadigan bo'limi.

SO'Z *ing* word, *nem.* Wort, *rus.* slovo, glossa. Tovush yoki tovushlardan iborat, ma'no anglatuvchi nutq birligi, gap bo'lagi.

SO'Z TURLARI a) Morfologik qurilishi va o'zgarishiga ko'ra: sodda, yasama, og'zaki so'zlar, qo'shma, juft so'zlar. b) ma'nosiga ko'ra: bir ma'noli, ko'p ma'noli;

tasdiq, inkor soʻzlar; intellektual, emotsional soʻzlar; soʻroq, undov, modal soʻzlar; c) fonetik jihatdan: urgʻuli, urgʻusiz; proklitik, enklitik soʻzlar. d) sintaktik funksiyasiga koʻra: yangi, eskirgan, kitobiy, ibratli, qoʻpol, kundalik, balandparvoz, rasmiy soʻzlar. i) adabiy til nuqtai nazaridan: shevaga oid, adabiy, territorial soʻzlar. e) kelib chiqishiga koʻra: asliy, chet, oʻzlashgan, internatsional soʻzlar.

SOʻZ MAʼNOSI *ing.* word meaning, *nem.* Bedeutung eines Wortes, *rus.* Znacheniyе slovo. Soʻz anglatgan tushuncha.

METAFORA *ing.* metaphor, *nem.* Metapher, *Ubertragung*, *rus.* метафора, perenos znacheniya. Soʻz yoki iborani **oʻxshashlik** yoki **oʻxshatish**ga asoslangan koʻchma maʼnoda ishlatish va shunday maʼnoda ishlatilgan soʻz yoki ibora.

METONIMIYA *ing.* metonymy, *nem.* Metonymie. Biror predmet yoki xodisa nomini **maʼno bogʻliqligiga** koʻra boshqasiga koʻchirish yoki shu predmet bilan bir oʻrin olgan boshqa predmet nomi bilan almashtirish; shu xilda ishlatilgan soʻz yoki ibora.

SNEKDOXA *ing.* synecdoche, *nem.* Synekdoche. Metonimiyaning tarkibiy qismi, butun orqali qismni yoki qism orqali butunni ifodalash va tushunish.

OMONIM *ing.* homonyms, *nem.* Homonyme, *rus.* omonimi, raznozvuchashiye slova. Omonimlar shakldosh soʻzlar boʻlib, yozilishi bir xil, maʼnosi har xil soʻzlardir.

SINONIM *ing.* synonyms, *nem.* Synonyme, *rus.* sinonimi, ravnoznachniye slova. Tovush sostavi, talaffuzi jihatdan boshqa-boshqa, ammo maʼnosi bir, oʻxshash yoki juda yaqin soʻzlardan har biri.

ANTONIM *ing.* antonyms, *nem.* Antonyme, gegensatzliche Wörter. Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar.

TABU *ing.* taboo, *nem.* Verbot, Tabu. Turli sabablarga: diniy qarashlarga, afsonalarga, davlat nazoratiga va boshqalarga koʻra qoʻllanilishi taʼqiqlangan yoki chegaralangan soʻz.

ETIMOLOGIYA *ing.* etymology, *nem.* Etymologie. Tilshunoslikning soʻzlarni kelib chiqishini oʻrganadigan sohasi.

TERMINOLOGIYA *ing.* terminology, *nem.* Terminologie. 1. Fan, texnika, kasbxunarning biror sohasida qoʻllaniladigan atamalar majmui. 2. Tilshunoslikning terminlarini oʻrganish, tartibga solish bilan shugʻullanuvchi sohasi.

IDIOMA *ing.* idiom, idiomatic expression, *nem.* Idiom, Idiotismus, *rus.* idioma, idiomatizm, idiomaticheskoye virajeniye. Turgʻun ibora, birikma. Maʼnosi oʻz tarkibidagi soʻzlarning maʼnolariga bogʻliq boʻlmagan, yaxlit holda bir maʼno beruvchi, ixcham ibora.

FRAZELOGIYA *ing.* phraseology, *nem.* Phraseologie. 1. Tilshunoslikning biror tilga hos barqaror soʻz birikmalari va iboralarini oʻrganadigan boʻlimi. 2. Biror tildagi barcha barqaror soʻz birikmalari va iboralar majmui.

LEKSIKOGRAFIYA *ing.* lexicography, *nem.* Lexikographie. 1. Lugʻat tuzish haqidagi fan.

2. Tildagi soʻzlar lugʻatini tuzish. 3. Tildagi yoki maʼlum sohaga oid lugʻatlar yigʻindisi.

LUG'AT *ing.* vocabulary, *nem.* Wortschatz, *rus.* slovar. 2. in. dictionary, word-book, *nem.* Wörterbuch. 1. So'z. Tildagi barcha so'zlar majmu'i. So'z boyligi. 2. Biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob.

ONEMASIOLOGIYA *ing.* onomasiology, *nem.* Bedeutungslehre, *rus.* onomatologiya. Leksikologiyaning narsa va hodisalarga nom berish masalalari bilan shug'ullanuvchi sohasi.

ONOMASTIKA *ing.* onomastiks, name-study, *nem.* Onomastik, Namenkunde, *rus.* onomatologiya. Leksikologiyaning atoqli otlarni o'rganadigan sohasi. Uning sohaları: Antroponimika (kishilar ismi), toponimika (geografik nomlar), etnonimika (millat nomlari) ni o'rganadi.

SEMASIOLOGIYA *ing.* semasiology, *nem.* Semasiologie, *rus.* semantika, sematologiya, signifika, ucheniye o znachenii. Tilshunoslikning so'z va iboralar ma'nosini va ular o'zgarishini o'rganadigan sohasi.

MAVZUGA OID ASOSIY MASALALAR BAYONI

Leksikologiya tilshunoslikning bo'limlaridan biri bo'lib, tilning lug'at sostavini o'rganadi. Leksikologiyaning quyidagi sohaları mavjud: Semasiologiya, leksikografiya, onemasiologiya, etimologiya, fraseologiya, onemastika.

Leksikologiyaning asosiy birligi so'zdir. So'z fonetik jihatdan shakllangan butunlikdir. So'z urg'uga ega. Urg'u so'zdagi tovushlarni birlashtiradi va nutq jarayonida bir so'zni ikkinchisidan farqlash uchun xizmat qiladi. Pauza so'zning butunligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Tilshunoslikda so'zning ma'nosini **signifikat** atamasi bilan, so'z anglatgan hodisani esa **denotat** atamasi bilan ifodalanadi.

	So'z		Stol	
Narsa	Tushuncha		Stol rasmi	Tushunca

So'z va u atagan narsa va hodisa o'rtasidagi munosabat haqida tilshunoslik tarixida munozaralar bo'lgan. Qadimgi yunonstonda bu munozaralar natijasida ikki katta oqim: **anomalistlar** va **anologistlar** vujudga kelgan.

Anomalistlar narsa (denotat) bilan uning nomi o'rtasida bog'lanish bor, so'zlar anglatgan narsaning biror xususiyatini hisobga olgan holda paydo bo'lgan deb izohlaydilar.

Anomalistlar esa bu fikrga qarshi chiqib, narsa va uning nomi-so'z o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q deb hisoblaydilar.

Hozirgi zamon tilshunosligida soʻz bilan u atagan narsa va hodisa oʻrtasida bevosita bogʻlanish yoʻq deb hisoblanadi. Agar bogʻlanish boʻlganda edi, ayni bir narsa har xil tillarda turlicha nom bilan atalmagan boʻlar edi.

SOʻZ TURLI: leksik, grammatik, stilistik maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Soʻzning leksik (lugʻaviy) maʼnosi boshqa maʼnolarga qaraganda konkret va individualdir. Soʻzlarning tildagi va nutqdagi maʼnolarini farqlash zarur. Soʻzlarning aniq, konkret maʼnolari nutqda (kontekstda) namoyon boʻladi. Leksik maʼno togʻri yoki koʻchma boʻlishi mumkin. Soʻzlarning koʻchma maʼnosi: istiora, metanimiya, snekdoxa, funksiyadoshlik orqali ifodalanadi.

Istiora soʻz maʼnosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi va ikki narsaning oʻxshashligi asosida bir soʻz bilan atash tushuniladi. Masalan: temir irodali odam, shirin uyqu.

Metonimiya narsa va hodisalarning makon yoki zamondagi oʻzaro doimiy bogʻlanishi asosida birining nomini boshqasiga koʻchirishdir. Agar metaforada bir predmet bilan ikkinchi oʻrtasida maʼlum xususiyatlarga asoslangan **oʻxshashlik** boʻlsa, metanimiyada ikki predmet oʻrtasida doimiy real **aloqaning** mavjudligi sababli birini aytilganda, ikkinchisini tushunish imkonini beradi.

Snekdoxa hodisasi metonimiyaning tarkibiy qismi boʻlib, butun orqali qismni yoki aksincha qism orqali butun tushuniladi.

Soʻzlar maʼno munosabatlariga koʻra bir-biriga shakldosh, maʼnodosh va maʼnolari bir-biriga zid boʻlishi mumkin. Bunday soʻzlarni: Sinonimlar, omonimlar, antonimlar deb yuritiladi.

Tildagi barcha soʻzlar tilning lugʻat boyligini tashkil qiladi. Tildagi soʻzlarni turli qatlamlarga ajratish mumkin. 1. Tematik qatlam (taʼlim-tarbiyaga, oʻsimliklarga, hayvonotga va boshqalar)ga oid soʻzlar. 2. Jamiyat tarixiga bogʻlab qatlamlarga ajratish. 3. Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar.

4. Ijtimoiy sheva qatlamlari.

Tillardagi maʼlum soʻzlar istemoldan chiqib, maʼlumlari esa yangi paydo boʻlib turadi. Istemoldan chiqib ketgan va chiqib ketayotgan soʻzlarni tarixiy va arxaizm soʻzlar deb yuritiladi. Istemolga yangi kirib kelgan soʻzlarni esa neologizmlar deb yuritiladi.

Tildagi soʻzlar lugʻatlarga jamlanadi. Leksikologiyaning lugʻat tuzish masalalari bilan shugʻullanadigan sohasi **leksikografiya** deb ataladi. Lugʻatlarning koʻplab turlari mavjud.

Izohli lugʻatlar. Bunday lugʻatlar bir tilli boʻlib, soʻz va iboralarga shu tilda izoh beriladi. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Tolkoviy slovar ruskogo yasika.

Tarjima lugʻatlari. Bu turdagi lugʻatlar ikki yoki undan ortiq tillik bolishi mumkin. Bunday lugʻatlarda biror tilga oid soʻz va iboralar ikkinchi (uchinchi ...) tilga tarjima qilinadi.

Imlo lugʻatlari. Bunday lugʻatlar soʻzlarning yozilishi va imlo qoidalarini oʻz ichiga oladi.

Orfoefik lugʻat soʻzlarning togʻri talaffuzini ifoda etadi. Worterbuch der deutschen Aussprache.

Maxsus lug'atlar. Bunday lug'atlar fan va texnikaning ma'lum bir yo'nalishiga, tarmog'iga oid bo'lib, tarjima lug'ati bo'lishi ham mumkin. O.S.Axmanova slovar lingvisticheskix terminov, M.1966. Ruscha-nemischa-o'zbekcha metodik atamalar lug'ati, T. 1992.

Chastotniy (so'zlarning ishlatilish darajasiga ko'ra) lug'atlar. Bunday lug'atlarga kiruvchi so'zlar tartibi ularning nutqda ishlatilish darajasi bilan belgilanadi. L.N.Zasorina Chastotniy slovar russkogo yazika.

Etimologik lug'atlar. Lug'atning bu turi so'zlarning kelib chiqish tarixini tushuntirib, izohlab beradi. Rus tilida bunday lug'atdan ikkitasi ma'lum. Kratkiy etimologicheskii slovar russkogo yazika, S.G.Barxudarov tahriri ostida, 1961, Kratkiy etimologicheskii slovar russkogo yazika, G.P.Tsiganenko, Kiev, 1970.

Ensiklopedik lug'at. Bunday lug'atga kiritilgan so'zlar va shu so'z taluqli bo'lgan soha qisqacha sharxlanadi va shu haqda ma'lumot beriladi. Bolshaya ensiklopediya. O'zbek ensiklopediyasi.

O'quv lug'ati. Bunday lug'atga ta'lim va tarbiyaga oid so'z va iboralar kiritiladi.

Frazeologik lug'at. Bu turdagi lug'atga turg'un birikmalarning tarjimalari va ishlatilishi haqidagi ma'lumotlar kiritiladi. Sh. Raxmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. 1978.

Rasmi (illustrativ) lug'at. Bu lug'atga kiritilgan so'zlar turli rasmlar tasvirlar orqali tushuntiriladi. Bildworterbuch.

O'zbek xalq shevalari lug'ati. Sh.Shoabduraxmonov tahriri ostida. 1971.

MASHQ VA NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- Sh.Karimov Praktikum. 14 sahifadagi savollarga yozma ravishda javob bering.
- Quyidagi amaliy mashqlarni bajaring: 33-44 mashqlar. 15-17 sahifalar.
- 18 sahifadagi savollarga javob yozing.
- Quyidagi amaliy mashqlarni bajaring. 45-62 mashql.
- 21-22 sahifalardagi savollarga yozma javob bering.
- 63-80 mashqlarni bajaring.
- 25 sahifadagi savollarga yozma ravishda javob bering.
- Quyidagi amaliy mashqlarni bajaring: 81-89 mashqlar. 25-27 sahifalar.
- 27 sahifadagi savollarga javob bering.
- Quyidagi amaliy mashqlarni bajaring. 90-102 mashqlar.
- 29-30 sahifalardagi savollarga yozma javob bering.
- Quyidagi mashqlarni bajaring: 103-109 mashqlar. 30-31 sahifalar.

A D A B I Y O T

- | | |
|---------------|----------------------------|
| M.T.Irisqulov | T. 1992. 90-118 sahifalar. |
| O.Azizov | T. 1996. 56-82 sahifalar. |

A.A.Reformatskiy M. 1967. 54-150 sahifalar.
O.S.Axmanova M. 1966.
Sh.Karimov T. 1991. 14-31 sahifalar.

TILSHUNOSLIKKA KIRISH KURSIDAN REFERAT YOZISH BOYICHA USLUBIY TAVSIYALAR

O'quv rejası talabiga muvofiq har biringiz tilshunoslikka kirish kursidan referat yozishingiz lozim.

O'quv rejasida talab qilinmagan taqdirda ham O'qituvchi referat yozishni talab qilishga haqli, chunki referat yozish reyting usulining tarkibiy qismidir. Referat yozish sizni:

- mustaqil ishlashga o'rgatadi,

- kitob bilan ishlashga majbur qiladi,

- reja tuzishga, fikringizni mustaqil yozma ravishda bayon qilishga, matn tuzishga, matn yuzasidan hulosalar chiqarishga, adabiyotlar ro'yhatini tuzishga, hullas, ilim deb atalmish cheksiz, mashaqqatli, lekin maroqli maydonga kirishga undaydi.

REFERAT tushunchasini sodda, lo'nda qilib shartli ravishda **“ERKIN MAVZUDA YOZILGAN INSHO”** deb ta'riflashimiz mumkin.

Hurmatli talabalar. Kechagina siz ona maktabingiz quchog'ida insho yozgansiz. Tasavvur qiling siz yana insho yozishingiz lozim. Buning uchun:

1. Mavzularning taxminiy ro'yhatidan o'zingizga yoqqan mavzuni tanlab oling.

2. Ushbu mavzuni o'ylab, o'rtoqlaringiz, muallimlaringiz, ota-onangiz bilan maslahatlashgan holda tahrir qiling.

3. Tavsiya qilingan adabiyotlardan tanlagan mavzuingiz bo'yicha konspektlar yozing.

4. Konspektlaringizga asoslanib mavzuga oid reja tuzing. Reja mavzudagi barcha tushunchalarni qamrab olsin va yoritsin.

5. Rejaning tuzilishiga e'tibor bering:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM.

III. XULOSA.

KIRISH nomlanmaydi. Mavzuning dolzarbligi, ahamiyati, boshqa mavzularga aloqadorlik tomonlari, tanlashdan maqsad, mavzu tarkibiga kiruvchi mas'ala va vazifalar, ularning qaysilarini siz o'rganish, muhokama qilish va hal qilishni ho'xlaysiz, buning uchun nima qilmoqchisiz

ASOSIY QISM bir necha punktlardan iborat bo'lishi mumkin. Har bir punktda masalaning mohiyatini ochib berishingiz, bu haqdagi turli olimlarning fikr-

laridan keltirishingiz, ko'pchilik tomonidan ma'qullangan dalillar va o'z fikringizni bayon etishingiz lozim.

Imkoniyatingiz darajasida baxsga kirishing va o'z fikringizni isbotlashga harakat qiling. Xato qilishdan cho'chimang.

XULOSA nomlanmaydi. Matnda so'z nima haqida borganligi va sizning ushbu masalaga munosabatingizni qisqa, lo'nda bayon qiling. Hulosani rejaga qaraganda kengroq yozing.

MATNNI TAYYORLASHDA QUYIDAGILARGA E'TIBOR BERING:

* Siz o'zbek tilshunosligidan emas, balki **TILSHUNOSLIKKA KIRISH** kursidan referat yozayotganligingizni unutmang.

* Birinchi sahifani quyidagicha tayyorlang:

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Roman-german filologiyasi fakulteti

Mavzu: JAHON TILLARI KLASSIFIKATSIYASI.

Muallif: 102 guruh talabasi, HAKIMOVA YOQUT.

Namangan 1997.

* Matnni varoqqa joylashtirishda yuqoridan, pastdan va chap tomondan 2,5 sm va o'ngdan 1 sm hoshiya qoldiring.

* Matnni qog'ozga tushurishda turli ranglardan, turli kattalikdagi xarf va raqamlardan foydalaning.

* Matndagi avvalgi jumlangiz keyingi jumlagi zamin tayyorlab berishi lozim.

* Keyingi jumlangiz o'zidan avval turgan jumlaning to'ldirib, aniqlab, izohlab kelishini ta'minlang.

* Abzatslar o'rtasida mantiqiy uzilish bo'lmasin.

* Kitoblardan ko'chirgan chog'ingizda, ko'chirilgan matnlarni qo'shtirmoq ichiga olishni, man'baning

muallifi, nomi, nashr joyi, yili va sahifasini ko'rsatishni unutmang.

* Adabiyotlarni quyidagi tartibda ko'rsating: Muallif, kitob yoki maqolaning nomi, nashr joyi, yili, sahifasi.

TILSHUNOSLIKKA KIRISH KURSIDAN REFERAT MAVZULARI

1. Til va tilning paydo bo'lishi.
2. Til ijtimoiy hodisa sifatida.
3. Til, nutq va nutq faoliyati.
4. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.
5. Til va tafakkur.
6. Til va jamiyat.
7. Tilshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari.
8. Qadimgi asrlar tilshunosligi.
9. Qiyosiy - tarixiy tilshunoslik.
10. Yosh grammatiklar.
11. Yosh grammatiklarni tanqid.
12. Rossiyadagi tilshunoslik maktablari.
13. Qadimgi xind tilshunosligi.
14. Qadimgi arab tilshunosligi.
15. Orta va yangi asrlarda ovrupoda tilshunoslikning rivojlanishi.
16. Mixail Vasilyevich Lomonosov.
17. O'rta asrlarda arab tilshunosligi.
18. O'rta Osiyoda tilshunoslik.
19. Abu Ali ibn Sino va tilshunoslik.
20. Mahmud ibn Husayin ibn Muhammad Qashg'ariy.
21. Alisher Navoiy va tilshunoslik.
22. Mirzo Mehdixon (Nizomiddin Muhammad Hodi al Husayn as Safaiy).
23. Qiyosiy - tarixiy tilshunoslikning yaratilishi.
24. Frans Bopp (1791-1835).
25. Yakob Grimm (1785-1864).
26. Aleksandr Xristoforovich Vostokov (1781-1864).
27. Vil'helm fon Humboldt (1767-1835).
28. Naturalizm va tilshunoslik.
29. Avgust Shlayher (1821-1868).
30. Psixologizm va tilshunoslik.
31. Geymann Shtayntal (1823-1899).
32. Aleksandr Afanasevich Ptebnya (1835-1891).
33. Maskva tilshunoslik maktabi.
34. Filipp Fyodorovich Fortunatov (1848-1914).
35. Kopengagen strukturalizm (glosematika) maktabi.
36. Amerika strukturalizm (deskriptiv lingvistika) maktabi.
37. Aleksandr Matveevich Peshkovskiy (1878).
38. Nikolay Yakovlevich Marr (1864-)

39. Lev Vladimirovich Shcherba(1880-1944).
40. Tilshunoslikning tadqiqot metodlari.
41. Kommunikativ tilshunoslik.
42. Psixolingvistika.
43. Sotsiolingvistika.
44. Matn tilshunosligi.
45. Matnning ta'rifi va matn birligi masalalari.
46. Matndagi sintaktik boq'lanish vositalari.
47. Matn va matn turlari.
48. Tillarning tipologik tasnifi.
49. Qiyosiy tipologiya masalalari.
50. Geneologik klassifikatsia masalalari.
51. Yozuv va yozuvning taraqqiyot bosqichlari.
52. Grafika va orfografiya masalalari.
53. Yozuv va yozuv turlari.
54. Fonetika va fonologiya masalalari.
55. Fonetikaning asosiy masalalari.
56. Fonologiyaning asosiy masalalari.
57. Nutqning fonetik jihatdan bo'linishi.
58. Nutq va nutq apparati.
59. Nutq tovushlari klassifikatsiyasi.
60. Nutqning prosodik elementlari.
61. Fonetika va talaffuzga o'rgatish masalalari.
62. Tilning grammatik vositalari.
63. Grammatik kategoriya tushunchasi.
64. Grammatik son kategoriyasi.
65. Grammatik kelishik kategoriyasi.
66. Grammatik zamon kategoriyasi.
67. Morfologiyaning asosiy masalalari.
68. So'z turkumlari.
69. So'z morfologiyaning tadqiqot ob'yekti sifatida.
70. Sintaksisning asosiy masalalari.
71. Gap sintaksisning tadqiqot ob'yektidir.
72. Gap bo'laklari.
73. Gap turlari.
74. Sintaktik munosabat turlari.
75. Leksikologiyaning asosiy masalalari.
76. So'z leksikologiyaning tadqiqot ob'yektidir.
77. So'z va tushuncha masalasi.
78. So'zlarning ma'no munosabatlari.
79. Leksik ma'no va ularning turlari.
80. Tillarning lug'at tarkibi.

81. Leksikografiyaning asosiy masalalari.
 82. Milliy tillarning shakllanishi va rivojlanishi.
 83. Adabiy til va til normasi.
 84. Orfografiya prinsiplari.
 85. Faol va nofaol leksika.
 86. Semasiologiya.
 87. So'zlarning ko'p ma'noliligi.
 88. Tillardagi omonimlar masalasiga doir.
 89. Tillardagi sinonimlar masalasiga doir.
 90. Tillardagi antonimlar masalasiga doir.
 91. Tabu, evfemizm va argo.
 92. Atama va atamashunoslik masalalari.
 93. So'zlarning aniq va mavhum ma'nolari.
 94. Mustaqil ma'noli va yordamchi so'zlar.
 95. So'zlarning etimologiyasi.
 96. Qo'shma so'zlar.
 97. Hukm va gap.
 98. O'zbekiston tilshunoslari.
 99. Tilshunoslik va til o'rgatish masalalari.
 100. Ko'p til bilish masalasiga doir.
 101. Tilshunoslik va ma'naviyat masalalari.
 102. Tilshunoslik va milliy mafkura masalalari.
- 2/12/97

TILSHUNOSLIKKA KIRISH KURSI BO'YICHA SAVOLLAR TILSHUNOSLIKKA KIRISH KURSINING OB'YEKTI VA PREDMETI:

1. Tilshunoslik nimani o'rganadi?
2. O'rganish sohasini ajratib olish nuqtai nazaridan tilshunoslik necha guruhga bo'linadi?
3. Tilshunoslik fanining qanday aspektlari mavjud?
4. Tilshunoslik - so'z va so'z birikmalarining yig'indisidir, degan fikrni kim aytgan?
5. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning qanday funksiyasini tas'kil etadi?
6. Til faqat ayrim shahslarning aloqa quroli bo'lmay, balki millatlararo aloqa quroli, to'plangan bilim va tajribalarni kelajak avlodga etkazish vositasi ekanligi, uning qanday funksiyasi hisoblanadi?
7. Til yana qanday funksiyalarni bajaradi?
8. Qaysi filosof: "... o'zaro aloqa qilish uchun tilni odamlar o'zlari yaratganlar" deb da'vo qilgan?
9. Qaysi fanlar tilshunoslik bilan uzviy bog'liq hisoblanadi?
10. Filologiya fanlari deganda qaysi fanlar nazarda tutiladi?

11. Tilshunoslik bilan adabiyotshunoslikning aloqasi qachon ko'zga yaqqolroq tashlanadi?

GRAMMATIKA

1. Grammatik kategoriyalarni sanang.
2. Grammatika qaysi tildagi so'zdan olingan?
3. Grammatika nimani o'rganadi?
4. Grammatikaning qanday tarmoqlari mavjud?
5. Grammatika necha qismga bo'linadi?
6. Qanday grammatik kategoriyalar bir vaqtning o'zida, ham analitik ham sintetik yo'l bilan grammatik ma'noni ifodalaydi?
7. Rod kategoriyasi nimani ko'rsatadi?
8. O'zbek, rus, ingliz, olmon tillaridagi son kategoriyasining ko'plik qo'shimchasini ayting?
9. Zamon kategoriyasi qaysi so'z turkumiga hos?
10. Kitob, maktab, sevgi, dars, bellashuv, qor, nihol, bahor so'zlarining grammatik ma'nosi bir-biridan farq qiladimi?
11. Qanday grammatik vositalarni bilasiz?
12. Qanday fonetik vositalarni bilasiz?
13. So'zlarni turkumlarga ajratishda qaysi belgilar hisobga olinadi?
14. Ingliz va o'zbek tillarida nechtdan so'z turkumi bor?
15. Sintaksisning asosiy tadqiqot ob'yekti nima?
16. Gap bo'laklarining ishtirokiga ko'ra gaplar qanday turlarga bo'linadi?
17. Qaysi bo'laklar gapning bosh bo'laklari hisoblanadi?
18. Ohang qaysi tillar uchun muhim ahamiyatga ega?
19. So'z tartibi va yordamchi so'zlar, qaysi tillar uchun muhim hisoblanadi?
20. So'z turkumlari gapdagi vazifasiga ko'ra, qaysi turlarga bo'linadi?

LEKSIKOLOGIYA

1. Leksikologiya qaysi tildagi so'zdan olingan?
2. Leksikologiyaning qanday sohalari mavjud?
3. Narsa va hodisalarga nom berish masalasini leksikologiyaning qaysi sohasi o'rganadi?
4. Antroponimika, toponomika, etnonimika qaysi sohaning tarmoqlari hisoblanadi?
5. Fonetik jihatdan shakllangan bir butunlik leksikologiyada nima deb ataladi?
6. So'z ma'nosi qanday atama bilan yuritiladi?
7. So'z atagan narsa yoki hodisani nima deyiladi?
8. So'z ma'nosining o'xshashlikka ko'ra ko'chishi nima deyiladi?
9. So'z ma'nosining bog'liqligiga ko'ra ko'chishi nima deyiladi?
10. Quyidagi jummalarda qanday hodisa ishtirok etgan:
Dadangning tuyog'i nechtaga yetdi?

-200 boshdan ortdi-yov.

11. Katta, buyuk, ulug', gigant, atoqli, taniqli, mashhur so'zlari qanday so'zlar hisoblanadi?
12. "Tor" so'zi qanday omonim hisoblanadi?
13. "Devor" so'zining antonimi bormi?
14. Ingliz tilida bo'lishsizlik, qarama-qarshilikni ifodalaydigan qanday qo'shimchalar mavjud?
15. Omoch, o'g'ir, objuvoz, mingboshi, mola so'zlari qanday so'zlar hisoblanadi?
16. So'zlarning biror maqsadda to'planib, tartibga solingan yig'indisi nima deyiladi?
17. Chappa lug'atni qanday izohlash mumkin?
18. Lug'atning qanday turlarini bilasiz?
19. Eng katta lug'at qaysi lug'at hisoblanadi?
20. "Strike, ishile the iron is hot" maqoli qanday tarjima qilinadi?
21. Chuchvarani hom sanama, ichi qora, tepsa- tebranmas, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi birikmalari qanday birikmalar hisoblanadi?
22. Broker, aksiya, investitsiya, banknot, menendjer so'zlari qanday so'zlar hisoblanadi?

FONETIKA

1. Til tovushlari haqidagi fan nima deb ataladi?
2. Ingliz tilida nechta harf bor?
3. O'zbek tilida nechta tovush bor?
4. O'zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berilgan?
5. "ko'ngil" so'zida nechta tovush bor?
6. So'z bo'g'inlaridan birining boshqasiga qaraganda kuchliroq ohang bilan tala ffuz qilinishi qanday hodisa deyiladi?
7. Qanday tovushlar sirg'aluvchi, portlovchi, afrikat tovushlariga bo'linadi?
8. Qaysi unlilar lablanmagan unlilar hisoblanadi?
9. Nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki tomonidan pauza bilan chegaralangan, o'ziga hos ohangga ega bo'lgan qismi.
10. Nutqning fonetik jihatdan bo'linmaydigan eng kichik birligi.
11. Fonemaning asosiy funksiyasi nima?
12. Nutq fonetik jihatdan nimalarga ajraladi?
13. "Opera", "tom", "tonna" so'zlari "o'pera", "to'm", "to'nna" kabi talaffuz etilsada, biroq boshqacha yoziladi. Ular qaysi orfografik prinsipga muvofiq yoziladi?
14. "Olma" va "olma", "tana" va "ta'na" so'zlari bir- biridan qaysi jihatlari bilanfarq qiladi?
15. Biror tovushning qo'shni tovush ta'sirida unga o'xshab talaffuz etilish hodisasi.
16. Alifbo nima?
17. Harf nima?
18. Aktiv nutq organlari qaysilar?
19. Ingliz tilida nechta diftong mavjud?

20. Fonetika to'g'risida ilk bor qachon ma'lumot olgansiz?
21. "Mustaqillik orzuimiz" so'z birikmasida nechta bo'g'in mavjud?
22. Tovushlar cho'zqligining qisqarish hodisasi.

DIALEKTOLOGIYA

1. Dialektologiya qaysi so'zdan olingan?
2. Dialektologiya ob'yektni o'rganish jihatdan qanday qismlarga bo'linadi?
3. Umumhalq tilining ma'lum hududda mos tarmog'i, mahalliy til.
4. Arabcha so'zdan olingan bo'lib, tilning bir necha sheva va dialektlarini o'z ichiga olgan umumiy hususiyatlari jihatidan mahalliy guruh.
5. Umumiy adabiy tilda ma'lum hususiyatlar bilan farq qiluvchi mahalliy sheva.
6. Yangi dialektlarva tillarning paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'lgan faktorlar.
7. Tilning dialektdan farqi.
8. Xalq tilining fonetik, leksik, grammatik jihatdan normaga keltirilgan shakli.
9. O'zbek milliy tili qaysi dialektlarni o'z ichiga olgan?
10. Bir tilga mansub shevalarning adabiy til normalariga yaqinlashuvi.
11. Dialektlar sonini ko'payishi va ular asosida yangi tillarning vujudga kelishi.
12. Millatning asosiy belgilari.
13. Milliy tillar necha yo'l bilan paydo bo'lishi mumkin?
14. Farang tili qachon davlat tili deb e'lon qilingan?
15. Ingliz tili necha rivojlanish davrini boshdan kechirgan?
16. Qachon rus milliy tili shakllana boshlagan?
17. Milliy tillarni shakllanishida katta hissa qo'shgan shahslardan kimlarni bilasiz?
18. "Singil abam, hali mazon kelalle" jumlasida qaysi shevaga hos?
19. Vulgarizm va jargonizmlar ham adabiy til doirasiga kiradimi?
20. "Qani bulbulni sayratib yubor" jumlasidagi "bulbul" so'zi qaysi so'z o'zida ishtatlangan?

STILISTIKA

1. Tilshunoslik fanining uslublar, uslublarning qo'llanilishini o'rganadigan bo'limni nima deb ataladi?
2. Adabiy tilda uslublar bormi?
3. Qanday uslublarni bilasiz?
4. Kitob, maktab, shamol, qish, yashash, men, siz so'zlari qaysi uslubga mansub?
5. Barcha atamalar kitobiy uslubga hosmi?
6. So'zlashuv uslubida nutq ko'proq qanday shaklda bo'ladi?
7. So'zlashuv uslubida gaplardagi so'z tartibi qanday bo'ladi?
8. Kitobiy uslubda ko'pincha nutq qanday shaklda bo'ladi?
9. Kitobiy uslublar necha hil bo'ladi?
10. Teorema, uch burchak, gap, sintaksis, punktatsiya, romb, fe'l, tuslanish so'zlari ichidan qaysilari tilshunoslikka oid atamalar hisoblanadi?

11. Nutqimizda qo'llanilayotgan iqtisodiyotga oid atamalardan qaysilarni bilasiz?
12. Ilmiy uslubda so'zlar o'z ma'nosida ko'llanilmasa ham bo'ladimi?
13. Qoida, kirish so'z, aksioma, teoremlardan rasmiy uslubda ko'llanib bo'ladimi?
14. Qarorlar, qonunlar, xalqaro xujjatlar qaysi uslubda yoziladi?
15. Rasmiy uslubning muxim leksik va grammatik hususiyatlari:
16. Ushbu uslubda gapning maqsadga ko'ra turlaridan qaysinisini ko'p ishlatiladi?
17. Rasmiy uslub tartibi qanday bo'ladi?
18. Tashviqot- targ'ibot ishlari olib borishda foydalaniladigan nutq qaysi uslubda bo'ladi?
19. "Mustaqillik, mulkning o'z egasiga topshirish, PIF, rasmiy tashrif, diplomatik munosabatlar" kabi so'zlar qaysi uslubda qo'llaniladi?
20. Publitsistik uslubda aforizm, maqol va matallardan foydalaliladimi?
21. Esse, ocherk, badia, chizgilar ham publitsistik uslubmi?

TILSHUNOSLIK SOHALARIGA OID SAVOLLAR

1. Orfoefiya nimani o'rganadi?
2. To'g'ri yozuv masalalarini qaysi soha o'rganadi?
3. Harflar bilan tovush o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi qoidalar tizimi nima deb ataladi?
4. Alifbo qanday prinsiplar asosida tuzilishi mumkin?
5. O'zbek orfografiyasining etakchi prinsipi qaysi prinsip hisoblanadi?
6. Monosemantizm nima?
7. Iboralarning qanday turlari mavjud?
8. Tarkibidagi so'zlardan birining to'g'ri, ikkinchisini ko'chma ma'noda qo'llanilishi.
9. Tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolariga bog'liq ravishda umumlashgan ko'chma ma'no ifoda etuvchi birlik.
10. Kampirning oldiga u shoshganidan *oyog'ini ko'liga olib yugurdi*, gapidagi kursiv bilan yozilgan ibora qanday ibora hisoblanadi?
11. Aytilishi, talaffuzi jihatdan bir-biriga yaqin so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?
12. Tilshunoslikning tinish belgilarini o'rganuvchi sohasi qanday ataladi?
13. Tovush ifodalamaydigan ishora, shakl nima deyiladi?
14. Tinish belgilarining qo'llanish usuli va qonuniyatlari.
15. O'zbek tili puntuaksiyasining qanday prinsiplari mavjud?
16. Qanday tinish belgilari mavjud?
17. Gap ohirida qanday tinish belgilari qo'yiladi?
18. Aralash holda qaysi tinish belgilari qo'yiladi?
19. Gap boshida, o'rtasida va ohirida qaysi tinish belgilari qo'yiladi?
20. Bir elementli tinish belgilaridan qaysilarni bilasiz?

21. Frazeologik antonimlarga misol keltiring.
22. Antonimlar bir hil so'z turkumi bo'lishi shartmi?

TILLAR KLASSIFIKATSIYASIGA OID SAVOLLAR

1. Tillarni klassifikatsiya qilishning qaysi turlari ko'pchilik tilshunoslar tomonidan tan olingan?
2. Tillarni qarindoshligiga ko'ra klassifikatsiya qilish qanday atama bilan yuritiladi?
3. Dunyodagi tillar so'z strukturasi nuqtai nazaridan necha tipga bo'linadi?
4. Tillarning to'rt tipga bo'lib o'rganish shartlimi?
5. Nima uchun tillarni to'rt tipga bo'lish shartli hisoblanadi?
6. Morfologik klassifikatsiyaga qachon asos solingan?
7. Qaysi tillarda grammatik munosabatlar qo'shimchalar orqali emas, balki analitik vositalar orqali ifodalanadi?
8. Analitik vosita deganda qanday grammatik hodisalar nazarda tutiladi?
9. Sintetik tillarga qaysi tillar kiradi?
10. Sof analitik, yoki sof sintetik tillar bo'lishi mumkinmi?
11. Siz o'rganayotgan til qaysi til oilasiga kiradi?
12. Jahonda qanday xalqaro tillar mavjud?
13. Qanday tillar klassik tillar hisoblanadi?
14. O'lik tillar qaysilar?
15. Esperanto tilining asoschisi kim?
16. Geneologik klassifikatsiya masalalari bilan qaysi tilshunoslar shug'ullanganlar?
17. Tipologik klassifikatsiya masalalari bilan qaysi tilshunoslar shug'ullanganlar?
18. Dunyodagi barcha tillarni necha guruhga bo'lish mumkin?
19. Qaysi til boy, sodda, umri boqiy deb savol qo'yish to'g'rimi?
20. Qaysi tilshunos o'zakning o'zgarishi, yoki o'zgarmasligiga qarab tillarni ikki guruhga bo'ldi?
21. Avgust Shlegel jahongagi tillarni necha tipga bo'lgan?
22. Aka-uka Shlegellar nazariyasining qanday kamchilaklari mavjud?
23. Qaysi tilshunos dunyodagi tillarni to'rt tipga ajratgan?
24. Tipologik klassifikatsiya atamasining sinonimi qaysi?
25. Yer yuzidagi aholining ko'p qismi qaysi tilda gaplashadi?
26. O'zakli tillarga qaysi tillar kiradi?
27. Aglutinativ tillarda yer yuzi aholisining necha foizi gaplashadi?
28. To'rtinchi tip tillarning asosiy xususiyatlari qaysilar?
29. Flektiv tillarning ajratib turadigan xususiyatlari qaysilar?
30. Har bir til ma'lum tipga oid bo'lgan holda paydo bo'ladi?
31. Tilning paydo bo'lishi uchun faqat biologik zaminlargina zarurmi?
32. Til ijtimoiy hodisa, shundaymi?
33. Tilni qanday fanlar o'rganadi?
34. Tilning paydo bo'lishi masalasi ong va jamiyatning paydo bo'lishi bilan bog'liqmi?

35. Til tabiiy hodisa, shundaymi?

YOZUV

1. Yozuv ham kashfiyotmi?
2. Dunyoda yozuvi yo'q xalq bormi?
3. Yozuv turlaridan qaysilarni bilasiz?
4. Jonli va jonsiz narsalarning suratlarini chizish qanday yozuv hisoblanadi?
5. Qadimgi xitoyliklar “Yaxshi” so'zini qanday ifodalaganlar?
6. Qaysi yozuv “Muqaddas” yozuv hisoblanadi?
7. Yozuvning qanday maxsus turlarini bilasiz?
8. Bir tilning harflarini boshqa bir tilning harflari bilan ifodalash nima deyiladi?
9. Agar siz yo'lda qaychi va taroq rasmini chizib qo'yilgan belgini qo'rsangiz, bu nimaning ifodalaydi?
10. Yo'llardagi havfsizlik va hushyorlikka chaqiruvchi belgilar yozuvning qaysi turiga mansub?
11. Hozirgi kunda yozuvning qaysi turlari jahonda keng tarqalgan?
12. Qaysi prinsipga ko'ra harflarning yozilishi alifboda tovushlarniqanday esh itishga bog'liq holda yoziladi?
13. Tarixiy an'anaviy prinsipga qaysi tillarning yozuvlari mansub?
14. Rus tilidagi yumshatish belgisi “Ъ”, olmon tilidagi otlarning bosh harf bilan yozilishi qaysi prinsipga hos?
15. Kirill alifbosi rus tili uchun nechanchi yilda qabul qilingan?
16. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini qabul qilish tug'risidagi qaror qachon qabul qilindi?
17. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlari nima deb nomlanadi?
18. Nechanchi asrdan boshlab O'rta Osiyo xalqlari Arab yozuvidan foydalanganlar?
19. Musulmonlarning “Muqaddas kitobi” qaysi yozuvda yozilgan.
20. Alifbolarning o'zgarishi nimaga olib keladi?

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK

1. Kommunikatsiya atamasi qanday ma'noni ifodalaydi?
2. Kommunikativ tilshunoslikning qanday tarmoqlari mavjud?
3. Matnning qanday grammatik kategoriyalari mavjud?
4. Matn birligi nima?
5. Ma'lum qilinayotgan voqea yoki hodisalarni ketma-ket izchillik bilan bayon qilinishi.
6. Matn qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim?
7. Qanday gap matn birligi bo'la oladi?
8. Matnning birligini taminlab turuvchi vosita.
9. Qanday matn turlarini bilasiz?
10. Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan, qadim o'tgan zamonda... -qanday matn turiga kiradi?

PSIXOLINGVISTIKA

1. Psixolingvistika nima bilan shug'ullanadi?
2. Psixolingvistika- nutq faoliyati haqidagi fandi degan fikrni kim aytgan?
3. Psixolingvistika sohasida kimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar?

SOTSIOLINGVISTIKA

1. Sotsiologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Davlat tili nima?
3. Davlat tili sifatida qanday til qabul qilinadi?
4. Umumxalq tilining qayta ishlanib normalashtirilgan shakli qanday til hisoblanadi?
5. O'zbekiston aholisini tillarni bilishiga ko'ra qanday tabaqalarga bo'lish mumkin?
6. Tillarni turlarga ajratish masalasida sotsiologiya qaysi o'lchovlarni asos qilib oladi?
7. Adabiy til normasiga ega bo'lgan til.
8. Lotin, Yunon, klassik Arab tillari qanday til hisoblanadi?
9. O'z yozuviga ega bo'lmagan, son jihatdan chegaralangan kishilar uchun aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan tillar qanday ataladi?
10. Ovrupo tillarining mahalliy tillardan biriga qo'shilib chatishuvidan hosil bo'lgan til nima deb ataladi?
11. Pijin tillari bilan kreol tillari o'rtasida qanday farq mavjud?
12. Sun'iy tillardan qaysilarni bilasiz?
13. Tillar qanday funksiyalarni bajaradi?
14. Qaysi til bilan Gaiti mahalliy tili qo'shilib Gaiti-Kreol tilini hosil qilgan?
15. Hindistonda qaysi til davlat tili hisoblanadi?
16. O'zbekistonda qachondan beri til o'rganish va o'rgatishga e'tibor kuchaydi?

AZIZ O'QUVCHI, YUQORIDAGI SAVOLLARGA JAVOBNI MATNDAN TOPISHGA HARAkat QILING. BU BIR OZ QIYINROQ, BIROQ FOYDALIROQ. SAVOLLARGA QUYIDA JAVOB TOPISHINGIZ HAM MUMKIN. BU YO'L OSON, BIROQ FOYDASI KAMROQ. HULLAS O'ZINGIZNI TEKSHIRIB KO'RING.

TILSHUNOSLIKKA KIRISH KURSINING OB'YEKT VA PREDMETI

1. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat, tilning ichki qurilishi, tillarning klassifikatsiyasi va boshqalar. 2. Makrolingvistika va mikrolingvistika. 3. Umumiy, hususiy, amaliy, nazariy. 4. F.F. Fortunatov. 5. Kommunikativ. 6. Akkumulyativ. 7. Ekspressiv, gnesiologik. 8. Demokrit. 9. Falsafa, psixologiya, tarix va boshqalar. 10. Filologiya. 11. Stilistika, til tarixi, adabiyot muammolarini o'rganishda.

GRAMMATIKA

1. Rod, son, kelishik, zamon, mayl... 2. Yunoncha. 3. Soʻz turkumlari, gap va gap boʻlamlari. 4. Tashqi, ichki, deskriptiv (izohli), tarixiy, qiyosiy, qiyosiy tarixiy, akademik, normativ. 5. ikki qismga. 6. Aralash grammatik kategoriya. 7. Otlarning grammatik rodga mansubligini. 8. -lar; - ы,- a, - i; -es, -s, -en, -er, -s, -e, Umlaut. 9. Feʼl. 10. Yoʻq. Ot. 11. Affiksatsiya, ichki fleksiya, supletivizm. 12. Ohang, pauza, urgʻu, temp, ton. 13. Leksik, grammatik maʼno, grammatik shakl, sintaktik funktsiya, morfemalar, soʻzning distributsiyasi. 14. Ingliz tili- 14-ta; oʻzbek tili-10-ta. 15. Gap. 16. Elleptik va noelleptik. 17. Ega va kesim. 18. Xitoy, Birma, Vʼyetnam. 19. Ingliz, farang, olmon. 20. Uchga.

LEKSIKOLOGIYA

1. *Grek*. “lexis”- soʻz, “logos” taʼlimot. 2. Etimologiya, onomastika, semasiologiya, onomaseologiya, leksikografiya. 3. Onomasiologiya. 4. Onomastika. 5. Soʻz. 6. Signifikat. 7. Denotat. 8. Metafora. 9. Metonimiya. 10. Sinekdoxa. 11. Sinonim. 12. Mutloq sinonim. 13. Yoʻq. 14. dis-, un-, in-, ir-. 15. Arhaizm. 16. Lugʻat. 17. Soʻzlarning tugashiga koʻra alifbo tarzida tuzilgan lugʻat. 18. Izohli, imlo, dialekt, tarjima, qomusiy... 19. Verbster. 20. Temirni qizigʻida bos. 21. Frazologizm. 22. Neologizm.

FONETIKA

1. Fonetika. 2. 26-ta. 3. 31-ta. 4. 1989 yil, 21-oktyabr. 5. 5-ta. 6. Urgʻu. 7. Undosh. 8. A, E, U. 9. Fraz. 10. Tovush. 11. Soʻz maʼnosini oʻzgartirish. 12. Fraz. takt, boʻgʻin, nutq tovush. 13. Etimologik. 14. Urgʻu. 15. Assimilyatsiya. 16. Harflarning muayyan tartibda joylashuvi. 17. Tovushlar belgisi. 18. Tovush paychalari, lablar, yumshoq tanlagay. 19. 9-ta. 20. 4- sinfda. 21. 7-ta . 22. Reduksiya.

DIALEKTOLOGIYA

1. *Grekcha* “dialektos”. 2. Tasviriy va tarixiy. 3. Sheva. 4. Lahja. 5. Dialekt. 6. Vaqt va masofa. 7. Til butun bir xalqqa xizmat qiladi. 8. Adabiy til. 9. Qorluq-chigil-uygʻur, qipchoq, oʻgʻiz. 10. Integratsiya. 11. Differentsiatsiya. 12. Umumiy til, hudud, maʼnaviyat, madaniyat. 13. 3-ta. 14. 1539-yilda. 15. 3-davmi. 16. XVI- XVII asrlar. 17. Alisher Navoiy- oʻzbek tili, A.S. Pushkin- rus tili, V.Shekspir- ingliz tili, Martin Lutter, F.Shiller, Y.V.Geote- olmon tili, Sh.Rustavelli- gruzin tili, R.Gamzatov- avar tili. 18. Namangan. 19. Yoʻq. 20. Toʻpponcha.

STILISTIKA

1. Stilistika. 2. Ha. 3. Funktsional, badiiy adabiyot, rasmiy , matbuot, kundalik... 4. Neytral. 5. Ha . 6. Dialog. 7. Erkin. 8. Monolog. 9. 3-xil. 10. Punktualsiya, feʼl, tuslanish, gap, sintaksis. 11. XIF, aksiya, banknot, renta, pay, kredit, moliya. 12. Yoʻq. 13. Yoʻq. 14. Rasmiy. 15. Soʻzlarning oʻz maʼnosida qollanilishi, qisqartmalarni qoʻllanmasligi, har bir sohaning oʻz atamasining qoʻllanilishi. 16. Darak gap. 17. Odatdagi tartib. 18. Publitsistik. 19. Publitsistik. 20. Ha. 21. Ha.

TILSHUNOSLIK SOHALARI

1. Tildagi so'zlarni adabiy talaffuz etish. 2. Orfografiya. 3. Grafika. 4. Fonetik, morfologik, tarixiy traditsion. 5. Morfologik va fonetik. 6. Bir ma'noni ifoda etuvchi so'zlar. 7. 3-ta. 8. Frazologik qo'shilma. 9. Frazologik butunlik. 10. Frazologik chatishma. 11. Paronomlar. 12. Punktatsiya. 13. Belgi. 14. Punktatsion prinsip. 15. 3-ta. 16. Nuqta, vergul, ko'sh timoq, tire, nuqtali vergul, ikki nuqta, so'roq, undov belgilari. 17. . ; ? ! 18. (; " - ...). 19. [" (...) ? ! . 20. . , - . 21. Oq ko'ngil-ichi qora. 22. Ha.

TILLAR KLASSIFIKATSIYASI

1. Morfologik va geneologik. 2. Geneologik. 3. 4-tipga. 4. Ha. 5. Sof agglutinativ, flektiv yoki o'zakli tillar mavjud emas. 6. XIX- asr. 7. Ingliz, farang, fors. 8. So'z tartibi, bog'lovchi, ko'makchi... . 9. Xind-evropo, olmon, slavyan, litva. 10. Yo'q. 11. Hind-evropo. 12. Ingliz, farang, ispan, rus, arab, xitoy. 13. Grek, lotin, arab. 14. Lotin, grek, yunon. 15. Doktor Zalinge. 16. Y. Yustus Skaliger, M.V. Lomonosov. 17. F. Shlegel. 18. 2-ga. 19. Yo'q. 20. F. Shlegel. 21. 3-tipga. 22. Tillarni boy qambag'alga ajratish mumkin emas. 23. V. fon Humboldt. 24. Morfologik klassifikatsiya. 25. Xitoy va ingliz tili. 26. Xitoy, v'yetnam, birma. 27. 25 foiz. 28. So'zlarning bir-biriga qo'shib talaffuz etilishi, gaplarda so'zlar chegarasining sezilmasligi. 29. So'z va forma o'zakning o'zgarishi bilan yasaladi. 30. Ha. 31. Yo'q. 32. Albatta. 33. Antropologiya, etnografiya, psixologiya... 34. Ha.

YOZUV

1. Ha. 2. Ha. 3. Piktografik, logografik, fonografik, mixsimon, sillabik. 4. Piktografik. 5. Ayol va bola. 6. Iyerografik. 7. Transkripsiya va stenografiya. 8. Transliteratsiya. 9. Sartoroshxona. 10. Ideografik. 11. Lotin, kirill, arab, xitoy. 12. Fonetik. 13. Ingliz, olmon, farang. 14. Morfologik. 15. 1508 yilda. 16. 1992 yil 2-sentyabrda. 17. So'g'd va horazm. 18. VIII asrda. 19. Arab. 20. Qiyinchiliklarga.

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK

1. Aloqa, muomala, fikr almashish. 2. Psixologik, ijtimoiy, matn tilshunosligi. 3. 3-ta. 4. Gap. 5. Retrospeksiya. 6. Tugal fikr ifoda qilish. 7. Gap. 8. Fikr. 9. Epigrafik, sfragistik, numizmatik, poleografik. 10. Ertak.

PSIXOLINGVISTIKA

1. Tildan muomala vositasi sifatida foydalanish jarayoni, shu jarayon natijasi. 2. A.A. Leont'yev. 3. A.N.Leont'yev, A.A. Leont'yev, N.I.Jinkin, V.A.Artyomov, B.V.Belyaev, I.A.Zimnyaya, Z.I.Klichnikova... .

SOTSIOLINGVISTIKA

1. Til va jamiyat , adabiy til , sheva, dialekt, jahon tillari, til funksiyalari... .
2. Qonun yo'li bilan tasdiqlangan, mamlakatning ichki va tashqi siyosati yuritiladigan til.
3. Adabiy til.
4. Adabiy til.
5. Ozbek tilini ona tili, rus tilini chet tili sifatida biluvchilar; o'zbek va rus tillarini ona tili sifatida biluvchilar; rus tilini onatili, o'zbek tilini chet tili sifatida biluvchilar; o'zbek tilini onatili, rus va evropo tillaridan birini chet tili sifatida biluvchilar.
6. Standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik, avtonomlik.
7. Standart til.
8. O'lik til.
9. Mahalliy, kreol.
10. Pijin tilida so'zlashuvchi jamiyat yo'q.
11. Espiranto.
12. Ijtimoiy, estetik, kommunikativ, genesiologik, ideologik, akkumulyativ.
13. Farang tili.
14. Ingliz tili.
15. Mustaqillikdan so'ng.

MUNDARIJA

Tilshunoslik fani va uning predmeti	
Til, nutq va nutq faoliyati	
Til va tafakkur	
Tilning paydo bolishi va rivojlanishi	
Jahon tillari klassifikatsiyasi	
Kommunikativ tilshunoslik	
Psiholingvistika	
Sotsiolingvistika	
Matn tilshunosligi	
Lingvistik tahlil metodlari	
Yozuv	
Tilning ichki qurilishi	
Fonetika	
Grammatika	
Leksikologiya	
Referat yozish boyicha uslubiy tavsiyalar	
Referat mavzularining royxati	
Savollar royxati	
Javoblar	

